

FOLKLOR MATERIALLARINI TO‘PLASH VA NASHR ETISH METODIKASI



- ❖ O'zDSMI huzuridagi Tarmoq markazi
- ❖ “Xalq ijodiyoti” (turlari bo‘yicha) yo‘nalishi
- ❖ dotsent Rustam Abdullayev

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391--sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasida dotsenti Rustam Abdullayev.

Taqrizchilar: O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori, filologiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov;

O‘zDSMI “Folklor va etnografiya” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi Saidqul Alimov.

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR.....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI.....	12
III.	NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	92
V.	KO‘CHMA MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....	112
VI.	KEYSLAR BANKI.....	115
VII.	GLOSSARIY.....	121
VIII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	126

I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli Qarori, 2018 yil 28 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvardagi "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi 688-son Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan mutaxassislik fanlari o'qituvchilarining malakasini oshirish kursining namunaviy o'quv rejasiga binoan ishlab chiqilgan.

"Folklor materiallarini to'plash va nashr etish metodikasi" moduli bo'yicha ishchi o'quv dasturi doirasida berilayotgan mavzular Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari va o'quv rejalari asosida shakllantirilgan bo'lib, bu orqali madaniyat sohasidagi kadrlarining sohaga oid zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, ijodiy va tashkilotchilik faoliyatini muntazam yuksaltirish, shuningdek, rahbar xodimlarda optimal qarorlar qabul qilish bilan bog'liq kompetensiyalarga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

Ushbu ishchi o'quv dasturda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3022-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 apreldagi "Baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 304-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4320-son Qarorlari ijrosini ta'minlashga qaratilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilariga **“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” modulining maqsadi:**

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” yangi fan bo‘lib, uning asosiy maqsadi folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish, folklor namunalarini yozib olish, tasniflash, nashrga tayyorlash kabi ko‘plab masalalarini o‘z ichiqga qamrab oladi. Folklor materiallarini bugungi kun folklorshunosligi nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganish fanni yanada chuqar va atroflicha o‘rganish, yangi zamonaviy shakl va uslublarni amaliyotga tatbiq etish va boshqalarni qo‘llash uchun pedagog kadrlarni tayyorlashdan iborat.

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” modulining vazifalari:

Mamlakatimiz rahbari SH.M. Mirziyoyev tomonidan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan vazifalar asosida “Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” fanining manbalarini jamlash, ilmiy tadqiq etish va talabalarga yetkazish;

- O‘zbek folklorshunosligidagi eng yetakchi mavzular tizimini yaxlit holda o‘rganish;

- O‘zbek folklori materiallarni to‘plash va tadqiq etish usullarini haqida talabaga ilmiy bilimlarni berish;

- Folklordagi doston janri tarkibi va unda badiyatning o‘ziga xos namoyon bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatish;

- Mifologik tafakkur barcha san’at asosi ekanini, mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq bilimlar va badiiy obrazlarning ramziy timsoliy ma’nolarini talabalar ongiga singdiri;

- Xalq xalq nasri va qo‘shiqlarida mifologik syujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- O‘zbek xalq qo‘shiqlarining strukturasi, obrazlar tizimi uning badiiyatini tadqiq etishda muhiya ahamiyatga ega ekanligini;

- O‘zbek folklori va yozma adabiyot namunalarini qiyoslash orqali folklor san’atiga xos bo‘lgan tushuncha va tasavvurlar, poetik tafakkurning yozma adabiyotda ko‘chib o‘tishi omillarini ilmiy asosda ko‘rsatish va ularning xalqimiz madaniy merosida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berish.

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” fani bo‘yicha tinglovchilar avvalo, o‘zbek folklorini tadqiq etishdagi yetakchi tamoyillar va usullar haqida atroflicha **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- Folklor materiallarini to‘plash va nashrga tayyorlash haqida atroflicha tasavvurga ega bo‘ladilar.

- Folklor matnlarini qiyosiy tadqiq etish metodlari bilan tanishadilar, folklor matnini variant va versiyalarga qiyoslab tadqiq etish metodlari ustida ish olib boradigan, folklorshunoslik borasida dunyodagi yetakchi tamoyillar to‘g‘risida **bilim va ko‘nikmalar hosil qiladilar.**

- Bugungi kun folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlari, xalq ijodkorlarining badiiy mahorati, o‘zbek folklorshunoslarining ilmiy merosi, barkamol avlod tarbiyasida folklor asarlarining o‘rni va ahamiyati **haqida tushunchaga ega bo‘lishadi.**

- Folklor materiallarni turli nazariy qarash va metodlarga suyangan holda qiyosiy tadqiq etish va ularni baholash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.**

Modulni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” kursi ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan.

Ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish mo‘ljallangan.

O‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o‘tkazish, ijrochilik malakalarini shakllantirish va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” moduli mazmuni o‘quv rejadagi Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish. Folklor namunalarini yozib olish. Folklor materiallarini to‘plash, tasniflash. Folklor asarlarini yozib olish, to‘plash va o‘rganilish metodikasi. Folklor ekspeditsiyasini tashkil etish usullari. Xalq dostonlarini yozib olish prinsiplari. Folklor namunalarini yozib olishda sheva xususiyatlarini saqlab qolish. Ertaklarni yozib olish va nashr etish printslari. Marosim folklorini yozib olish, ilmiy o‘rganish metodlari. Xalq maqollarini yozib olish va chop etish masalalari. Xalq qo‘shiqlarini yozib olish, nashrga tayyorlash va ilmiy o‘rganish. Xalq latifalarini yozib olish va ilmiy o‘rganish. Bolalar folklor namunalarini yozib olish va nashr etish. Hozirgi zamon

folklorshunosligida yetakchi metodlar o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar oliy ta’lim muassasalarida nomoddiy madaniy merosning o‘rganilishini ta’minlash, zamonaviy uslublar bilan boyitilgan holda amalda qo‘llash va talabalar bilimini baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

№	Mavzu	Nazariy	Amaliy	Ko‘chma	Mustaqil ta’lim	Sana	Imzo
1	Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish.	2					
2	Folklor namunalarini yozib olish. Folklor materiallarini to‘plash, tasniflash. Folklor asarlarini yozib olish, to‘plash va o‘rganilish metodikasi.	2					
3	Folklor namunalarini yozib olishda sheva xususiyatlarini saqlab qolish. Folklor ekspeditsiyasini tashkil etish usullari.		2				
4	Ertaklarni yozib olish va nashr etish printslari.		2				
5	Marosim folklorini yozib olish, ilmiy o‘rganish metodlari.		2				
6	Xalq maqollarini yozib olish va chop etish masalalari.		2				
7	Xalq qo‘shiqlarini yozib olish, nashrga tayyorlash va ilmiy o‘rganish.		2				
8	Xalq latifalarini yozib olish va ilmiy o‘rganish.		2				
9	Bolalar folklor namunalarini yozib olish va nashr etish.			2			
10	Hozirgi zamon folklorshunosligida yetakchi metodlar.			2			
	Jami: 20	4	12	4			

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish. (2-soat)

Folklor ekspeditsiyasidan yozib olingan materiallar qat’iy prinsiplar asosida tasnif etilada va nashrga tayyorlanadi. Bu prinsiplar ilk bor o‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik esa folklorshunos olim, akademik To‘ra Mirzaev tomonidan qayta ishlab chiqildi.

Mazkur mavzu folklor namunalari to‘plash eng avvaliga unga puxta tayyorgarlik ko‘rish, tashkil etilayotgan ekspeditsiyaning rejasini to‘g‘ri tashkil etishdan boshlanadi. Folklor namunalari to‘plashga, yozib olishga chiqayotgan kishi birinchi galda nazariy ma‘lumotga ega bo‘lishi, folklorga xos bo‘lgan xususiyatlardan xabardor bo‘lishi talab etiladi. Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish yo‘l-yo‘riqlari va metodikasi, folklor namunalari yozib olish prinsiplari atroflicha yoritib beriladi.

2-mavzu: Folklor namunalari yozib olish. Folklor materiallarini to‘plash, tasniflash.

Folklor ijodkorlari va tashuvchilari xalq tilining barcha boyligidan keng foydalanganliklari tufayli xalq og‘zaki badiiy ijodining tilida, xususan, leksikasida allaqancha faktlarning saqlanib qolishiga olib kelganki, ular hozirgi adabiy tilimizda umumlashmagan. Shuningdek, tarixiy, ijtimoiy madaniy va adabiy aloqalar tufayli, turli xalqlarning og‘zaki ijodidan ijodiy foydalanish natijasida u yoki bu xalq tiliga xos ba‘zi lingvistik faktlar ham folklor asarlari tekstida uchray turadi. Bugina emas, folklor asarlari tilida sheva uchun xarakterli bo‘lmagan, yozma adabiyotning ta‘sirida yuzaga kelgan ayrim faktlar ham mavjuddir.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilarga folklorning o‘rganilish tarixi, folklor asarlari to‘plash va yozib olish masalasi, folklor asarlarining nashri masalasi haqida keng tushuncha beriladi.

Ma‘lumki, folklor asarlari bizgacha bir necha versiya na variantlarda etib kelgan. Bir necha versiya variantlarda yozib olingan asarlar mavjud bo‘lgan hollarda, ularni qiyosiy o‘rganib, prospekt talablariga javob beradigan yaxshisi yoki yaxshilari tanlab olinadi. Dostonlardan, umuman bir-ikki versiya, ayrim hollardagina bir necha versiya, ertaklar, latifalar, xalq dramasi, askiya, qo‘shiq, maqol va topishmoqlardan ikki-uch va undan ko‘p versiya olinishi mumkin. Asarlarning versiyalar ichidagi mavjud variantlari ham qiyosiy o‘rganilib, ular orasidan eng yaxshisi tanlab olinadi.

Folklorshunosligimiz oldidagi eng dolzarb muammolardan biri bu folklor borasidagi tekstologik tadqiqotlarga yetarlicha e‘tibor berilmayotganligidir. Epik ijod namunalari tekstologik tadqiq etmay turib, folklor nazariyasi va poetikasini ham tadqiq etib bo‘lmaydi. Buning uchun eng avvaliga folklor asarlarining eng mukammal va to‘liq variantlarini nashrga tayyorlash va uni chop etish lozim bo‘ladi. Tinglovchilar mavzu davomida folklor materiallarini to‘plash va tasniflash haqida ma‘lumotga ega bo‘ladilar

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Amaliy mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Amaliy mashg‘ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek baxshilar bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

1-amaliy mashg‘ulot. Folklor namunalarini yozib olishda sheva xususiyatlarini saqlab qolish. Folklor ekspeditsiyasini tashkil etish usullari. (2-soat)

Qo‘shiq inson ma‘naviyatiga xos badiiy-estetik hodisa sifatida xalqning kundalik maishiy turmushida hamkor, ma‘naviy hayotida hamroh hisoblanadi va ruhiy dunyosining boyishiga xizmat qiladi. Har qanday xalqning, umuman insonning hayotini qo‘shiqsiz tassavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli ham dunyodagi jamiki xalqlar folklorida qo‘shiq janri mavjudligini ko‘ramiz. Inson quvonchga to‘lganida ham g‘am-anduhga botganida ham kuylaydi, qo‘shiq aytadi. Xalqda: “Kuygan ham qo‘shiqchi, suygan ham”, degan maqol bejiz paydo bo‘lmagan. Xalq qo‘shiqlarini turli nuqtai nazardan, xususan, ijro shakli, kompozitsiyasi, raqs bilan munosabati, ishtirokchilariga ko‘ra, etnografik jihatdan marosim va nomarosim qo‘shiqlarga ajratib hamda mintaqaviy jihatdan – Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonning o‘zbeklar istiqomat qiladigan tumanlaridagi qushiqchilik an‘analari, Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyati qo‘shiqchiligi, o‘rta va quyi Zarafshon vohasida ommalashgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari, Janubiy O‘zbekiston qo‘shiqchiligi ijodiyoti, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqaqlar qo‘shiqlari va hokazo hududlarga ajratib tadqiq etish mumkin. Ammo folklorshunoslikda asarni so‘z sa‘natining nodir namunasi sifatida o‘rganish, unda qo‘llanilgan turli poetik ko‘chimlar va ularning semantik qatlamlarini aniqlash, estetik qimmatiga oydinlik kiritish, tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzu yuzasidan tinglovchilar folklor asarlarini yozib olish, to‘plash va o‘rganilish metodikasi haqida ma‘lumot beriladi, amaliy tahlil etadilar, bahsmunozara yuritadilar.

2-amaliy mashg‘ulot: Ertaklarni yozib olish va nashr etish printslari. (2-soat)

Ertaklar folklordagi eng yetakchi janrlardan biri hisoblanadi. Har qanday folklor namunasi kabi bu janrni yozib olishda ham qat‘iy an‘analar mavjud. Ertaklar dostonlardan farqli ravishda ertakchidan yozib olinadi. Dostonni professional ijrochi ijro etsa, ertaklarni ertakchi ham, boshqa aytib beruvchilar ham aytib berishi mumkin. Ertaklarni yozib olayotganda qaysi hududdan, kimdan yozib olinayotgani muhim hisoblanadi.

Ertaklarni yozib olish va nashrga tayyorlash prinsiplari ertak nashrlari misolida tahlil etiladi.

3-amaliy mashg‘ulot: Marosim folklorini yozib olish, ilmiy o‘rganish metodlari. (2-soat)

O‘zbek folklori namunlari orasida marosim folklori alohida o‘rin tutadi. Marosim folklori mavsum marosim va oilaviy-maishiy marosim folklori namunlariga bo‘linadi. Bu janr namunlari asosan marosimda ishro etishi bilan farqlanib turadi. Xuddi shu xususiyatidan kelib chiqib, uni yozib olishda marosim paytidagi ijro holatidan kelib chiqib yondoshiladi. Marosim folklor namunalarini yozib olish va ilmiy o‘rganishda o‘ziga xos prinsiplar mavjud.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari namunlari tahlili misolida mavsum marosim hamda oilaviy maishiy marosim folklori namunalarining yozib olinishi va ilmiy o‘rganilishi yoritib beriladi.

4-amaliy mashg‘ulot: Xalq maqollarini yozib olish va chop etish masalalari. (2-soat)

Maqollar xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va boy janrlaridan biridir. Xalqning asrlar davomida to‘plagan hayotiy tajribalari, falsafiy-axloqiy qarashlari, ma’naviy qiyofasi va donishmandligi xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri hisoblangan maqollarda o‘z aksini topadi

Maqol janri shakliy ixchamlilik, ko‘p ma’nolilik, xalqning real voqelik haqidagi xulosalarini badiiy ifodalash, nasihatomez fikr va muayyan hodisa haqidagi hukmning qat’iyligi kabi belgilari bilan boshqa paremiologik janrlardan farqlanadi. Maqol va uning o‘ziga xos janriy xususiyatlari, maqollar tasnifi, uni yozib olish va nashr etish masalalari tahlillar misolida yoritib beriladi.

5-amaliy mashg‘ulot: Xalq qo‘shiqlarini yozib olish, nashrga tayyorlash va ilmiy o‘rganish. (2-soat)

Xalq qo‘shiqlari bugungi kungacha ko‘p marta yozib olingan va nashr etilgan. “Oq olma”, “Gulyor” kabi xalq qo‘shiqlari to‘plamlariga kirgan qo‘shiqlar yozib olish, nashr etishda o‘z sohasining bilimdonlari faoliyat yuritganini ko‘ramiz. Biroq, xalq qo‘shiqlarining hamma nashrlariga ham bunday bahoni bera olmaymiz. Bugungi kungacha to‘plangan tajriba shuni ko‘rsatadiki, xalq qo‘shiqlarini yozib olishda qat’iy bir qoidaga rioya etilmagan, yozib oluvchilarda yetarli darajada bilim va tajriba yetishmagan, nashrga tayyorlashda qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan.

Xalq qo‘shiqlari matni tahlili misolida ularni yozib va nashr etish bilan bog‘liq masalalar atroflicha tahlil etiladi.

6-amaliy mashg‘ulot: Xalq latifalarini yozib olish va ilmiy o‘rganish. (2-soat)

O‘zbek xalq latifalarining yozib olinish tarixi o‘tgan asrning o‘ttizinchi yillaridan boshlangan. Bu jarayon bugungi kungacha davom etib kelmoqda. O‘zbek xalq latifalarini yozib olishda u qadar muammolar qo‘zga tashlanmasada, nashri borasida ko‘plab muammolar yuzaga kelmoqda.

O‘zbek xalq latifalarining yozib olinish va o‘rganish tarixi mavjud materiallar asosida atroflicha yoritib beriladi.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

Ko‘chma mashg‘ulotlar tinglovchilarning taklif etilayotgan mavzuga bo‘lgan munosabatini yozma, og‘zaki javob yoki amaliy ijro ko‘rinishlarida ifoda etishlari uchun imkon yaratishi ko‘zda tutilgan. Ko‘chma mashg‘ulotlardagi rejalashtirilgan masalalar pedagog tomonidan maxsus tayyorlangan tarqatma materiallar, yozma manbalar, qo‘shimcha vositalar, shuningdek baxshilar bilan amaliy ishlash orqali tinglovchilarning faolligini oshirish uchun xizmat qilishi kerak.

1-ko‘chma mashg‘ulot: Bolalar folklor namunalarini yozib olish va nashr etish. (2-soat)

Bolalar folklori rang-barang matnlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bolalar folklor namunlari kattalar tomonidan bolalar uchun aytilgan, kuylangan, ijro etilgan materiallar bilan bir qatorda, bolalarning o‘zi tomonidan ijro etib kelinayotgan matnlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

Bolalar folklor namunalarini yozib olish tarixi, ilmiy o‘rganilish, nashrga tayyorlash kabi masalalar mavjud materiallar asosida yoritib beriladi.

8- ko‘chma mashg‘ulot: Hozirgi zamon folklorshunosligida yetakchi metodlar. (2-soat)

Bugungi kunda dunyoda folklor namunalarini turli metodlarda tadqiq qilish yetakchi tamoyilga aylandi. Bunda ayniqcha folklor materiallarining barcha variant va versiyalariga qiyosan o‘rganish hamda ruhiy tahlil nuqtai nazaridan tadqiq qilish ustivor ahamiyat kasb etmoqda. Bu birinchidan ushbu tahlil metodining yangidan yangi nazariy xulosalar chiqarishga zamin yaratayotganligi bilan izohlansa, ikkinchidan bugungi kun insoni ruhiyatini ochib berishda eng maqbul metod ekanligi bilan ajralib turadi.

Folklor materiallari tahlili misolida hozirgi zamon folklorshunosligida eng yetakchi metodlar tahlil etiladi.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash), ko‘chma mashg‘ulotlar;
- davra suhbatlari (muammo yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

Aqliy hujum (breynstroming-aqllar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish uchun guruhlashtirish mumkin.
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

Insert - samarali o‘qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o‘qib-o‘rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan ta’lim oluvchiga vazifa qilib beriladi. Uni o‘qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o‘z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

- (v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.
 (+) – yangi ma’lumot.
 (-) – men bilgan narsaga zid.
 (?) – meni o‘ylantirdi. Bu borada menga qo‘shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?
Ta’lim metodi va ta’lim texnologiyasi				
Ta’limda interfaol metodlardan foydalanish yo‘llari				
Ta’lim va tarbiyani tashkil etish shakllari				
Pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari				

Pedagogik texnologiya turlari				
Pedagogik texnologiyaning rivojlanish nazariyasi				
Pedagogik texnologiyalarning samaradorligi				

"Qarama-qarshi munosabat" metodi

Metod o'z mohiyatiga qo'ra o'zlashtirilgan bilimlarni tahlil va sintez qilish asosida asosiy hamda ikkinchi darajali ma'lumotlar sifatida guruhlariga ajratish imkonini beradi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- mavzuning umumiy mazmuni yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi;
- ular muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi;
- tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo'lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi;
- jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim bo'lgan, 2-ustuniga muhim bo'lmagan tushunchalar yoziladi;
- kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi;
- jamoaning umumiy fikriga ko'ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

"Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim" metodi

Ushbu metod talabalarga muayyan mavzular bo'yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo'llash jarayonida talabalar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg'ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagi ko'rinishda tashkil etilishi mumkin:

- 1) har bir guruh umumiy sxema asosida o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi va mashg'ulot yakunida guruhlarning munosabatlari loyiha bandlari bo'yicha umumlashtiriladi;
- 2) guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi.

O'quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog'ozida o'z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

17-shakl

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi, ya'ni:

1. Talabalar o'rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo'yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.

2. Talabalarning mavzu bo'yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo'lgan ehtiyojlari o'rganiladi.

3. Talabalarni mavzuga oid ma'lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo'yicha amalga oshirilgan harakatlarning to'liq tafsiloti quyidagicha:

- *Talabalar guruhlariga biriktiriladi;*
- *Talabalarning yangi mavzuga bo'yicha tushunchalarga ega bo'lganligi o'rganiladi;*
- *Talabalar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;*
- *Talabalarning yangi mavzu bo'yicha mavjud bilimlarni boyitishga bo'lgan ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo'yiladi;*
- *o'qituvchi Talabalarni yangi mavzuga oid umumiy ma'lumotlar bilan tanishtiradi;*
- *Talabalar o'zlashtirgan yangi tushunchalar aniqlanadi;*
- *bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo'yiladi;*
- *mashg'ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.*

Keys -stadi metodi.

Keys-stadi (inglizcha sase - to'plam, aniq vaziyat, stadi -ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiradigan aniq real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubidir.

Keys – bu real xayotning «bir bo'lagi» (ingliz terminalogiyasida TRUE LIFE).

Keys – faqat vaziyatni to'g'ri yoritish emas, balki vaziyatni tushuntirish va baholashga imkon beradigan yagona ma'lumot kompleksi.

Keysda aks etgan vaziyat, bu real yoki sun'iy hodisani institusional tizimda ma'lum vaqtda hayotda yuzaga kelishini aks ettiradi.

Keysda bayon qilingan vaziyat institusional tizimda (shu o'rinda va keyinchalik - korxonada) diskret (ayni shu) vaqtda tashkiliy hayotdagi tipik muammolarni qayta yaratadigan real yoki sun'iy qurilgan hodisalarning ideal tarzdagi in'ikosidan iboratdir.

Muammoli vaziyat. Mazkur holda vaziyat subektining hozirgi vaqtda yoki kelgusidagi maqsadlarga erishishiga xavf soladigan vaziyat tushuniladi.

Muammoli vaziyat. Bunda subektni hozirgi sharoitda yoki kelgusida maqsadiga erishishiga xavf tug'diruvchi vaziyat tushuniladi

“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari

Ish Bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
----------------------------	---------------------------------------

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil echim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir echimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini echimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

“VEYER” texnologiyasi.

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “VEYER” texnologiyasi umumiy mavzuni ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

“VEYER” texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

- boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida; uning asosiylarini anglab yetish;
- yakunlash bosqichida; olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat-ijobiy sifat.

Nuqson-nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa-muayyan bir fikrga, mantiqiy, qoidalar bo'yicha dalildan natajaga kelish.

FSMU texnologiyasi.

(F) - fikringizni bayon eting.

(S) - sababini ko'rsating.

(M) - misol (dalil) keltiring.

(U) - umumlashtiring.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach qo'llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egalaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

Ushbu texnologiyaning asosiy maqsadi tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa ifoda etib, tasdiqlovchi dallillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

1-bosqich.

-o'qituvchi tinglovchilar bilan birga bahs mavzusini yoki muhokama etilishi kerak bo'lgan muammoni, yoki o'rganilgan bo'limni belgilab oladi;

-o'qituvchi o'quv mashg'ulotida avval har bir tinglovchi yakka tartibda ishlashi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib borilishi va nihoyat dars oxirida jamoa bo'lib ishlanishi haqida tinglovchilarga ma'lumot beradi:

-mashg'ulot davomida har bir talaba o'z fikrini erkin holda to'liq bayon etishi mumkin ekanligi eslatib o'tiladi.

2- bosqich.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining 4 bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S - fikringizni bayon etishga sabab ko'rsating.

M - ko'rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U - fikringizni umumlashtiring.

Har bir tinglovchi yakka tartibda tarqatilgan qozozdagi FSMU ning 4 bosqichini o‘z fikrlarini yozma bayon etgan holda to‘latadi.

3 - bosqich.

-Har bir tinglovchi o‘z qog‘ozlarini to‘latib bo‘lgach, O‘qituvchi ularni kichik guruhlariga bo‘linishlarini iltimos qiladi yoki o‘zi turli guruhlariga bo‘lish usullaridan foydalangan holda tinglovchilarni kichik guruhlariga bo‘lib yuboradi:

-o‘qituvchi har bir guruhda FSMU texnologiyasining 4 bosqich yozilgan katta formatdagi qog‘ozlarni tarqatadi:

-o‘qituvchi kichik guruhlariga har birlari yozgan qog‘ozlardan fikr va dallillarni katta formatdagi umumlashtirgan holda 4 bosqich bo‘yicha yozishlarini taklif etadi.

4 - bosqich.

-Kichik guruhlarda avval har bir tinglovchi o‘zi yozgan har bir bosqichdagi fikrlari bilan guruh a‘zolarini tanishtirib o‘tadi. Guruh a‘zolarining barcha fikrlari o‘rganilgach, kichik guruh a‘zolari ularni umumlashtirishga kirishadi:

-guruh a‘zolari FSMUning 4 bosqichini har biri bo‘yicha umumlashtirib, uni himoya qilishga tayyorgarlik ko‘radilar:

-fikrlarni umumlashtirish vaqtida har bir tinglovchi o‘z fikrlarini himoya etishi, isbotlashi mumkin.

5- bosqich.

-Kichik guruhlarda umumlashtirilgan fikrlarini himoya qiladilar: Guruh vakili har bir bosqichni alohida o‘qiydi iloji boricha izoh bermagan holda. Ba‘zi bo‘limlarni isbotlash ya‘ni guruhning aynan nima uchun shu fikrga kelganini aytib o‘tishi mumkin.

6 - bosqich.

-o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi, bildirilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi;

-quyidagi savollar bilan tinglovchilarga murojat qiladi:

-ushbu texnologiyadan nimalarni bilib oldingiz va nimalarga o‘rgandingiz?

-ushbu texnologiyani o‘quv jarayonida qo‘llanilishi qanday samara berdi?

-ushbu texnologiyani qo‘llanilishi tinglovchilarda qanday hislatlarni tarbiyalaydi, nimalarni shakllantiradi, ularning qanday fazilatlarini rivojlantiradi?

-ushbu texnologiyaning o'quv jarayonining qaysi bosqichida qo'llanilgani ma'qul va nima uchun?

-ushbu texnologiyani dars jarayonida qo'llanilishi tinglovchilarga nima beradi va nimaga o'rgatadi?

-ushbu texnologiyani yana qanday tartibda yoki qanday shaklda o'tkazish mumkin?

III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU: FOLKLOR EKSPEDITSIYALARINI TASHKIL ETISH.

Reja:

1. Modulning maqsad va vazifalari.
2. Folklor ekspeditsiyalari.
3. Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish uslublari.

Modulni o‘qitishdan maqsad – “folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” yangi fan bo‘lib, uning asosiy maqsadi folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish, folklor namunalari yozib olish, tasniflash, nashrga tayyorlash kabi ko‘plab masalalarini o‘z ichiqga qamrab oladi.

Folklor materiallarini bugungi kun folklorshunosligi nuqtai nazaridan qiyosiy o‘rganish fanni yanada chuqar va atroflicha o‘rganish, tadqiq etishga xizmat qiladi.

Modulni o‘qitishning vazifalari-mamlakatimiz rahbari sh.m. Mirziyoyev tomonidan “2017-2021 yillarda o‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan vazifalar asosida “folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” fanining manbalarini jamlash, ilmiy tadqiq etish va talabalarga yetkazish;

- o‘zbek folklorshunosligidagi eng yetakchi mavzular tizimini yaxlit holda o‘rganish;

- o‘zbek folklori materiallarni to‘plash va tadqiq etish usullarini haqida talabaga ilmiy bilimlarni berish;

- folklordagi doston janri tarkibi va unda badiyatning o‘ziga xos namoyon bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatish;

- mifologik tafakkur barcha san’at asosi ekanini, mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq bilimlar va badiiy obrazlarning ramziy timsoliy ma’nolarini talabalar ongiga singdirish;

- xalq xalq nasri va qo‘shiqlarida mifologik syujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon bo‘lish yo‘llarini ko‘rsatish;

- o‘zbek xalq qo‘shiqlarining strukturasi, obrazlar tizimi uning badiiyatini tadqiq etishda muhiya ahamiyatga ega ekanligini;

- o‘zbek folklori va yozma adabiyot namunalarini qiyoslash orqali folklor san‘atiga xos bo‘lgan tushuncha va tasavvurlar, poyetik tafakkurning yozma adabiyotda ko‘chib o‘tishi omillarini ilmiy asosda ko‘rsatish va ularning xalqimiz madaniy merosida tutgan o‘rni haqida ma’lumot berish.

“folklor materiallarini to‘plash va nashr etish metodikasi” fani bo‘yicha magistr talabalari, avvalo, o‘zbek folklorini tadqiq etishdagi yetakchi tamoyillar va usullar haqida atroflicha tasavvur hosil qiladilar. Folklor materiallarini to‘plash va nashrga tayyorlash haqida atroflicha tasavvurga ega bo‘ladilar. Folklor matnlarini qiyosiy tadqiq etish metodlari bilan tanishadilar, folklor matnini variant va versiyalarga qiyoslab tadqiq etish metodlari ustida ish olib boradilar, folklorshunoslik borasida dunyodagi yetakchi tamoyillar to‘g‘risida bilim va ko‘nikmalar hosil qiladilar. Bugungi kun folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlari, xalq ijodkorlarining badiiy mahorati, o‘zbek folklorshunoslarining ilmiy merosi, barkamol avlod tarbiyasida folklor asarlarining o‘rni va ahamiyati haqidatushunchaga ega bo‘lishadi. Folklor materiallarni turli nazariy qarash va metodlarga suyangan holda qiyosiy tadqiq etish va ularni baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi asrlar bo‘yi yaratilgan ulkan ma’naviy xazina, namunalari jahonga mashhur bo‘lgan ijod, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo‘lgan milliy hodisadir. Shu bois uning tarixi va taqdiri, bir mutaxassis sifatida, ushbu maqola muallifini ham doimo o‘ylantiradi. Ammo bu yerda gap mutaxassis bo‘lish yoki bo‘lmaslikda ham emas. Muhimi asrlar bo‘yi xalq tarixi, ma’naviy-maishiy turmushi, madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi, ilmiy ta’bir bilan aytganda, o‘zbek folklori taqdiridadir. E’tirof etish lozimki, hozirgacha folklor va uning ko‘pgina namunalari tarixi, taqdiri, albatta, badiiyati,

o‘zbek folklorshunosligi haqida ham mutaxassislarning e‘tiborli fikrlari bayon etilgan.

Asrlar davomida, o‘tgan asrning o‘rtalarigacha og‘zaki ijod xalqning ko‘pchilik qismi uchun ham teatr, tasviriy, musiqa sa‘nati, ham tarix, ham falsafa, adabiyot, ham estetika, ham pedagogika, milliy etika va etnografik mezonlar, milliy g‘oya ham amaliyot –xullas hozir ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘rganayotgan hamma narsalar edi. Tarixan folklor etnofolkloriy xarakterli, maishiy turmush bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, turmush va ma‘naviyat sa‘nati edi. Bugun amaliyotdagi folklor asosan so‘z, ma‘naviyat sa‘nati bo‘lib bormoqda. Marosim folklori urf-odatlar va so‘z sa‘natining uyg‘unligi, etnofolkloriy jarayon hosilasidir. Bugun esa uning asosan so‘z qismigina saqlanib qolmoqda.

Folklor tabiatiga ko‘ra jahoniy hodisadir. Akademik v.m. Jirmunskiy qadimda bir-biridan umuman bexabar bo‘lgan xalqlar ijodidagi umumiylikni insoniyat taraqqiyotining ma‘lum bir bosqichidagi ijtimoiy, tarixiy-folkloriy jarayonlarning yaqinligidan kelib chiqqanini kashf etib berganki, bu o‘zbek folklorining umuminsoniy ahamiyatini ham belgilaydi. Shuningdek, ijtimoiy taraqqiyot, o‘zgarishlar tufayli juda ko‘plab folklor janrlari namunalarining yaratilmay va ijro etilmay qo‘yganligi, epik ijod jarayonning so‘nishi, jahon folkloriga xos tabiiy hodisadir.

Folklor qaysi davrda, qanday shakllarda bo‘lmasin, jamiyatning, kishilarning ma‘lum bir ehtiyojlariga javob bermasa, o‘z-o‘zidan hayot sahnasidan tushib, faqat tarixiy faktgina bo‘lib qoladi. Shu bois uning bugunigacha bo‘lgan tarixi mutaxassislar tomonidan ko‘p o‘rganilgan, keyingi taqdiri yanada ko‘proq o‘rganilishi zarur bo‘lgan masaladir.

Folklor - xalq ijodi deymiz, ammo bu juda murakkab tushuncha. Hayotda hech qachon uch-to‘rt talantli kishi yig‘ilib, dostonning bir qismini men yaratay, qolganini sizlar yaratinglar deb, doston aytmagan. Yoki ayollar to‘planib olib, bir misrani u, bir misrani bu aytib, qo‘shiq to‘qishmagan. Folklor xalq ijodi tushunchasini izohlash uchun bir misol juda xarakterlidir. O‘g‘li ravshan zarifovning hikoya qilishicha, folklorshunosligimiz fani asoschisi ustoz hodi zarif maqollar

to'plamini tuzibdi-yu, kitobni qanday nomlashni bilmay ancha o'ylanib yuribdi va o'zi «otalar so'zi –aqlning ko'zi» degan sarlavha qo'yibdi. Bugungi kunda bu ifodaning xalq maqoliga aylanib ketganiga hech kim shubha qilmasa kerak. Demoqchimizki, har bir folklor namunasining dastlabki ijodchisi bo'ladi va u mualliflikka da'vo ham qilmaydi. Yillar, asrlar o'tib bu ijodga yana kimlardir nimalarnidir qo'shadi, o'zgartiradi, sayqal beradi va h.z. «alpomish»ning bizgacha shu darajada etib kelishida balki yuzta, balki mingta xalq vakilining ulushi bordir.

Insonning tabiatida ozmi, ko'pmi ijod qobiliyati bor. Bola ham ijod qilishi mumkin, biroq xalqning barcha vakillari ijod va ijro qilish qobiliyatiga birdek ega emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda, folklor tarixi xalq ijodchilari va ijrochilari hamda ular yaratgan ijod tarixi, taqdiridir.

Professor t.mirzayev qayd etganidek, o'zbek folklorida professionallashuv juda rivojlangan. Tarixan xalqning professional ijodchi va ijrochilari – bular o'zidagi iqtidorni «xudo bergan», «tanglayiga bergan» deb tushungan baxshilar, ertakchilar, qo'shiqchilar, qiziqchilar, askiyachilar, latifachilar, xalfalar – xullas ijodning qaysidir bir sohasidagi etuk profesionallardir. Hozirgi paytda bunday kishilar yoshligidan o'z salohiyatiga mos keladigan sohalarda tom ma'noda individual ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bundan tashqari o'tmishda u sohadan bir shingil, bu sohadan bir shingil biladigan, yaratadigan, umumfolklor rivojiga ozmi-ko'pmi ulush qo'shib kelgan juda katta aholi borki, fanda ular ommaviy ijrochi, ijodchilar tushunchasi bilan ta'riflanadi.

Folkloriy jarayon nuqtai nazaridan, o'tgan asrda professional ijodchilar taqdirida quyidagilarni ko'ramiz:

Xx asrning 20=yillaridanoq klassik dostonchilik maktablari tugay boshlagan, ammo ergash shoir, fozil shoir, po'lkan, islom shoir, bola baxshi kabi uning etuk namoyondalari faoliyati avj nuqtaga ko'tarilgan edi. Fandami, sa'natdami biror maktab tugab ketishi mumkin. Ammo ular tugagach ham, vakillari yana ko'p yillar ijod qiladilar. Ijodlari turli yo'llar bilan avlodlardan avlodlarga etib boradi. Folklorning kelgusi taqdiri bevosita ana shu ijodni, umuman mavjud xazinani turli yo'llar bilan bugunga xizmat qildirish, avlodlarga etkazib berishga bog'liq. Busiz

folklor haqida so‘zlashga hojat yo‘q. Biror bir nodir folklor asarini, umuman yozib olingan barcha namunalarni yuz yildan keyin ham ilmiy tadqiq, nashr qilish mumkin. Biroq ular yo‘qolib ketgan bo‘lsa, uning o‘rnini hech narsa qoplay olmaydi. Shu bois folklor asarlarini yozib olish bilan shug‘ullangan folklorshunoslar bilan birga folklor muxlislaridan har qancha minnatdor bo‘lsak arziydi. Bu fikrni folklorshunoslik ikkinchi darajali ekan, deb tushunmaslik kerak.

O‘tgan asrda ulkan xalq ijodkorlari, turli darajadagi xalq baxshilaridan, ertakchilar, qo‘shiqchilar, aholining barcha qatlamlari vakillaridan beqiyos folklor namunalari yozib olinib, saralanib, talay qismi nashr qilindiki, o‘zbek folklorshunoslik amaliyoti hech qachon bunday yuksak yutuqqa erishgan emas, erisha olmaydi ham. Ayni paytda folklorshunoslik kelajakda ham folklor taqdiri uchun eng muhim asos bo‘lib qoladi. Masalan, 1928 yilda maxmud zarifov tomonidan fozil shoir kuylagan «alpomish» dostoni yozib olinmaganda, bugun biz prezidentimiz tashabbusi va yunesko hamkorligida 1000 yilligi jahon miqyosida nishonlangan, dune xalqlarining eng yuksak eposlari bilan bellasha oladigan, t. Mirzayev ta’rifi bilan aytganda, «dostonlar gultoji»dan abadiy mahrum bo‘lar edik. Bu fikrni, xususan, eng mo‘jaz maqolu, topishmoqlarimizdan tortib, umuman, bugungi kunda biz ega bo‘lgan beqiyos ma’naviy xazina –folklor merosimizga nisbatan ham bemalol aytish mumkin. Og‘zaki ijodni to‘plash, nashr etish, ilmiy o‘rganish, uning asl ahamiyatini xalqqa tushuntirish – folklorshunoslik fani ham folklorning o‘zi kabi zarur va qimmatlidir. Afsuski, nazarimda, bugungi kunda o‘zbek folklorshunosligi fani unga asos solgan hodi zarif, katta va o‘rta avlod yaratgan, yaratayotgan ilm zahiralari, to‘plagan tajribalariga tayanib qolganga o‘xshaydi. Men xato qilarman balki, menga ba’zi fanga kirib kelayotgan yoshlar o‘rtasida fan rivojidan ko‘ra, ilmiy daraja uchun kurash o‘sib borayotganga o‘xshab tuyuladi.

Xx asrning 70 – yillarigacha, ilmiy-ijodiy kuchlar-ning etishmasligi, mavjud siyosat tufayli erishilgan katta yutuqlar bilan birga, bu ma’naviy merosning juda katta qismi yo‘qolib ketdi. Odamlar cho‘chitilib, ayrim xalq baxshilari ta’qibga ham uchradi. Ayrim mavzular umuman taqiqlandi yoki qora buyoqlar bilan chaplandi.

Misol sifatida, o‘zbek folkloridagi diniy mavzularga munosabatni ko‘rsatish mumkin.

Dinga munosabat o‘zbek folklori tarixi va taqdiriga taalluqli muhim jihatlardan biridir. Xalq hech qachon mutaassib bo‘lmagani kabi, e’tiqodsiz ham yashamagan. Jahon xalqlari, jumladan, o‘zbek folklori ham ilk asosiga ko‘ra diniy edi. Odamizot osmon, olam, o‘simliklar va jonivorlar, o‘zi qanday paydo bo‘lgan? –degan savollarga dastlab miqlar bilan javob bergan edi. Qanday yashash kerak degan, savolga esa homiy va yovuz ruhlarga ishonch, ularga bag‘ishlangan turli-urf odatlar, marosimlar, dinning arxaik shakllari bo‘lgan: animizm, totemizm, shomonlik, magiya, hosildorlik va boshqa ko‘plab kultlarga e’tiqodi, qolaversa, maqolu topishmoqlar, mehnat, marosim qo‘shiqlari va boshqalar bilan javob topdiki, ular bizgacha etib kelgan folklor asarlarida mukammal badiiy ifodasini topgan. Qizig‘i shundaki, jahonga mashhur etnograf – dinshunoslar e.b.taylor, j.j.frezer, s.a.tokarev va ko‘plab folklor-shunslarning tadqiqotlari, garchi har biri biror urug‘-qabila, urug‘lar birlashmasiga tegishli bo‘lsa ham, arxaik dinlar jahonning barcha xalqlari tarixida bo‘lgani, ayrimlari taraqqiyotning kuyi bosqichida turgan ba’zi xalqlar hayotida hozir ham mavjudligini ko‘rsatadi. Uchta jahon dinlaridan biri bo‘lgan islom ta’limoti inson qanday yaralgan, qanday yashashi kerak, qayoqqa boradi, degan savollarga imon etiqodi tushunchasi bilan mukammal tizimiy javob berdi. Ko‘pxudolik bo‘ladimi, yaxxudolik bo‘ladimi barcha dinlar uchun bir umumiylik bor – bu jon, ruh va uning butunlay yo‘qolib ketmasligi g‘oyasidir. Bu g‘oya jahon folklorida qizil chiziq bo‘lib o‘tadi. O‘zbek folklori tarixi va taqdirining ahamiyati shundaki, uning namunalarida yuqorida aytilgan barcha arxaik dinlar va islomiy qarashlar doimo o‘z ifodasini topib kelgan. Folklor tarixan noyestetik qarashlarning estetik hodisalarga, jumladan, diniy tassavurlarning badiiy tassavurlarga o‘tishi maydoni bo‘lgan.

“din, shu jumladan islom dini ham, - deydi prezidentimiz islom karimov, - ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelganligining o‘ziyoq, u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi”.1 tarixan folklorning dinlarga, diniy qarashlarning

folkloriga ta'siri shubhasizdir. Jumladan, arab va o'zbek folklori qiyosining ilk tadqiqotchilaridan biri sh. Shomusarov shunday deb yozadi: "o'z davri folklorini juda yaxshi bilgan muhammad alayhissalom o'z diniy, ma'rifiy, axloqiy, estetik qarashlarini targ'ib qilishda ham arab xalq og'zaki ijodining afsona, rivoyat, maqol va hikmatli so'z kabi janrlardan samarali foydalangan"².

Shu o'rinda o'zbek folklori asrlar bo'yi diniy vazifa ham bajarib kelgan, desak mubolag'a bo'lmas. Masalaning muhim bir jihati shundaki, arxivlarda juda boy namunalar mavjud bo'la turib, o'zbek folklorining diniy mavzulari umuman ilmiy xolis o'rganilgan, diniy namunalari nashr etilgan emas.

Folklor taqdiriga nazar tashlar ekanmiz, qiziq bir qutbiy ziddiyatni ko'ramiz. Bir tomondan epik jarayon, ko'pgina, folklor janrlari, ayniqsa, doston, ertak, afsona, rivoyat, marosim folklori namunalari yaratilishi, ijro etilishi tugab, yo'qolib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uni o'rganuvchi fan - folklorshunoslik rivojiga zaruriyat tobora o'sib bormoqda. Tadqiqotlarda etnofolkloristik yo'nalish rivojlanib, jahon fanining eng zamonaviy yutug'i – ruhiy tahlil metodi o'zbek folkloriga samarali tadbiq etila boshlandi.

Ayrim kishilar folklorshunoslikka adabiyotshunoslikning eng engil sohasi deb qaraydilar. Buning sababi, birinchidan, folklor tabiatini tushunmaslik bo'lsa, ikkinchidan, folklorshunoslik sohasidagi bo'sh ishlardir. Ulardan ko'z yumib bo'lmaydi. Holbuki, hodi zarif folklorshunos tarix, etnografiya, pedagogika, arxeologiya, tilshunoslik, xususan, shevashunoslik, yozma adabiyot va boshqalarni mukammal bilishi zarur, deb bilgan va o'zi bunga namuna ko'rsatgan.

Folklor va yozma adabiyot masalasida, ularning o'zaro aloqasi haqida qator jiddiy ishlar mavjudligini inkor etmagan holda shuni aytish mumkinki, nazarimda, bugun yozma adabiyot mutaxassislarining ko'pchiligi folklori, folklor mutaxassislari yozma adabiyotni yaxshi bilmagandek tuyuladi.

Folklor bilan adabiyotni har qancha qiyoslash mumkin, ammo aslo ularni bir-biriga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Bu ota-onani farzandlariga gij-gijlashday gap. Afsuski, hayotda turli saviyadagi kishilar o'rtasida yozma adabiyot yuksak, folklor sodda, u boy, bu qashshoq, u haqiqat bu yolg'on, u donu bu somon qabilidagi

qarashlar mavjud. Achinarlisi shundaki, bunday qarashlar folklorning kelgusi taqdiriga, masalan, asarlarning nashr etilishi, o'rganilishi, targ'ib qilinishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yozma adabiyot paydo bo'lgandan buyon hozirgacha folklor, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar ijodiga ta'sir qilib kelmoqda. Hozirda uning kino, rassomchilik, qo'shiqchilik va boshqa sa'natlarga ta'siri yanada kuchaygan. Xususan, ko'pgina xonandalar xalq qo'shiqlarini aynan, ba'zan o'zgartirib, afsuski ba'zan buzib, juda ko'p kuylamoqdalar. An'anaviy tarixiy – folkloriy jarayonda, ta'bir joiz bo'lsa, erkaklarning o'z, xotin-qizlarning o'z folklor muhitlari bo'lgan. Ko'plab talantli xotin-qizlar mohir qo'shiqchi sifatida tanilganlar. O'zlari ham xalq qo'shiqlari yo'lida yangi namunalar ijod qilganlar va bu ijod ham barchaning mulkiga aylanib ketgan. Xorazm xalfalarining ijodi buning yorqin namunasi. Biz bunday xotin-qizlarning deyarlik barchasining ism-shariflarini bilmaymiz. Bugungi kunda bunday xotin-qizlar tezda professional yo'lga o'tib ketmoqdalar. To'g'ri va ko'chma ma'noda «yulduzlar»ning ko'payib ketishi sabablaridan biri ana shunda. Xuddi shuningdek, hozirgi professional qiziqchilar repertuarida an'anaviy latifalar yoki ularning zamonaga moslab talqin qilinishi juda keng tarqalgan.

Hozirda ko'pgina kishilar kelajakni axborot jamiyati bo'ladi, uning asosi bo'lgan axborot madaniyatining tarkibiy qismlaridan birini ommaviy kompyuter savodxonligi tashkil qiladi, deb hisoblamodalar. Hozircha, ularni ta'riflashga shoshmay turib shuni aytish mumkinki, o'tmishda xalqning o'ziga xos barqaror folklor madaniyati va folklor savodxonligi bo'lgan. Ijrochi biror doston yoki qo'shiq, ertak va h.z. Buzib aysa, tinlovchilar unga tanbeh berishgan. Shu jihatdan qaralganda zamonaviy folklor madaniyati, savodxonligini shakllantirishni uning taqdiridagi eng muhim shartdir, deb o'ylayman. Ana shunda folklor asarlarini istalgancha buzib aytish va nashr qilishni folklor madaniyatsizligi deb baholash mumkin bo'ladi. Folklor asarlari, ular asosida yaratilgan turli sa'nat namunalarining elektron kataloglarga kiritilishi va shu asosda o'rganilishi folkloriy jarayoning zamonaviy o'ziga xos ko'rinishlaridan bo'lib qolishiga ishonaman.

Folklor, barcha sa'natlar ahamiyatini bozor iqtisodi qonunlari bilan o'lchab bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotga qaram bo'lgan odam moliyaviy foydasi tegsa, ularning mazmuni va ma'naviy ahamiyatini tirnoqcha bilmay, «alpomish» dostoni yoki ertaklar, maqollar to'plamini minglab nusxada nashr ettirishi mumkin. Ammo nafi tegmasa, eng nodir qo'lyozmani ham ikkilanmay, nosfurusga berib ketadi. Menimcha, bu folklor madaniyatsizligining misoli bo'ladi. Folklorshunoslarimiz e'tirof etishlaricha, o'tmishda professional xalq ijodchilari, fozil, ergash, islom, po'ltan shoir kabi buyuklari ham, o'z sa'natlarini tirikchilik manbai deb qaramaganlar. Xizmatlari uchun odamlar o'z himmatiga qarab, nimalardir sovg'a qilishsa, olishganu ammo aslo moddiy ta'ma qilishmagan. Ularning xudo bergan iqtidorlaridan tashqari, yashashlari uchun albatta, cho'ponlik yoki dehqonlik, hunarmandchilik kabi kasblari bo'lgan. Xalqqa xolis ximat qilish baxshilar axloqiy – estetik qarashlarining bosh mezonlaridan hisoblangan. Shu o'rinda bir xalq rivoyatini keltirish o'rinlidir:

«bir och, yalang'och bechora xudoga yolvoribdi: ey xudo, qani edi, ushlagan narsam tilla bo'lib qolsa-yu, men ham boylarday yashasam. Qarangki, u ushlagan hamma narsa tilla bo'lib qolaveribdi-yu, bechora tillaga botib, ochdan o'lib ketibdi».

Qissadan hissa shuki, biz hamma narsadan, folklordan ham moddiy boylik axtaraversak, ma'naviy ochlikdan o'lib ketish hech gapmas.

Folkloriy jarayon u yoki bu darajada bundan keyin ham mavjud, folklor asarlari zamonaviy shakllarda voqe bo'laveradi. Gap egasini topadi deyдилar. Ayrim kishilar, jumladan ba'zi olimlarimiz, arxiv hujjatlarini o'lik material, og'zaki ijro jarayoni so'nishi tufayli nashr etilgan kitoblar qanchalik ahamiyatli bo'lmasin, asarlarning jozibasini bera olmaydi deb, ularning so'z sa'nati sifatidagi badiiy-yestetik, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatini unutadilar. Bunday fikrlar folklor kelajagi, tashviqi uchun oz bo'lsa ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Holbuki, taniqli folklorshunos b.n. Putilov yozib olingan folklor materiallarini «ikkilamchi matnlar deb» ularning ahamiyatini juda yuksak baholaydi. Aslida arxiv hujjatlari imkoniyatda mavjud material bo'lib, og'zaki ijro an'anaviy folklor poyetikasining voqe bo'lish usuli, yashash shaklining, tarkibiy qismidir, hammasi emas. Folklorning an'anaviy voqe

bo'lishining so'nishi, uning kuni bitdi degani emas. Qolaversa, hayotining keyingi yillarida doston kuylamay qo'ygan, savodxon ergash jumanbulbul o'g'li o'z repertuaridagi juda ko'p asarlarni o'zi yozib, arxivga topshirgan. Folklorshunoslar o'z tadqiqotlarida og'zaki jarayonni kuzatish bilan birga, asosan, yozma matnlarga tayanib kelishgan. Folklorshunosligimiz jahon miqyosida katta yutuqlarga erishgan. Shu bilan birga bu fan natijalarini mustaqillik g'oyasi nuqtai nazaridan yana bir bor jiddiy, ilmiy xolisona ko'rib chiqilsa, yomon bo'lmas edi.

Folklor tarixiy– ijtimoiy, etnografik-maishiy, badiiy-yestetik hodisa. Jamiyatning insonlar ongi, ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan qonunlari bo'lganidek, folklor taqdiri ham tabiiy kechadi. Biz faqat unga ma'lum darajada ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishimiz mumkin.

Jahon folklorshunosligida evrilish motivi tushunchasi juda keng tarqalgan. Masalan, ertaklarda, go'ro'g'li dostonlarida bir to'p kaptar uchib kelib, bir dumalab parilarga, yoki ilon yigitga aylanib qoladiki, buni evrilish deymiz. Bunday evrilishlarda tub mohiyat o'zgarmaydi, faqat shakl o'zgardi. Bizningcha, ijtimoiy taraqqiyot tufayli ko'pgina folklor asarlarining an'anaviy ijod va ijrochiligi so'nishi, yangicha shakllarda mavjud bo'lishini evrilishlarga qiyoslash mumkin. Boshqacha aytganda, folklor asarlari matnlarda ham an'anaviy mazmuni, ahamiyatini saqlab qoladi.

Folklor asarlarining turlicha shakllarda yashash sababalari, kishilarni jalb etuvchi jihatlari ko'p. Shulardan biri hozirgi zamon kishilari ko'pchiligining tafakkurida eng qadimiy mifologik qarashlardan tortib, eng zamonaviy tushunchalargacha uyg'unlashib ketgani, ular tafakkurining ko'p qatlamlilik mavjudligidir. Shu tufayli eng zamonaviy samolyotda qit'adan qit'aga uchmoqchi bo'lgan kishi yo'lini qora mushuk kesib o'tgani uchun safarini kechiktirsa ajab emas. Inson tafakkurining ko'pqatlamligi esa umumfolklorida, ya'ni janrlari majmuasida allaqachon o'z badiiy ifodasini topgan. Qizig'i shundaki, bunday ko'pqatlamlilik fan va texnika naqadar rivojlangan hozirgi davrda jahon adabiyoti namunalari, fantastik asarlar, kino sa'nati, turli teleko'rsatuvlarda tobora ko'proq o'z ifodasini topmoqda.

Folklor asarlarining tarixini an'anaviylik, kelajagini zamonaviy yashash shakllari belgilab beradi. Bizningcha, folklor asarlari bugungi kunda, asosan, quyidagi shakllarda yashamoqda va odamlarga xizmat qilmoqda:

1. Klassik folkloriy ko'rinishda: janubiy o'zbekistonda dostonchilik, xorazmda dostonlar va ulardan parchalar ijro etish, xalfachilik ma'lum darajada, farg'ona vodiysida askiyachilik, ommaviy tarzda latifachilik, qo'shiqchilik biroz bo'lsa-da, davom etmoqda. Yangi dostonlar yoki zamonaviy folklor namunalari tushunchalariga kelsak, ular ham an'ana zamirida paydo bo'lib, folklorning zamon talablari, ba'zan sho'ro tuzumi tazyiqiga yoki ijodkor individulligiga ko'ra o'zgarishlarini, ko'proq an'anadan chekinishlarni, buzilishlarni ifodalaydi. «yangi dostonlar» yoki «avtorli dostonlar», «sovet davri» qo'shiqlari» deb yuri-tilayotgan asarlar ularga misol bo'la oladi.

Bizningcha, bizning irodamizga bog'liq emas ekan, epik asarlar, umuman, ko'pgina folklor asarlarining og'zaki jarayonda ijodchiligi va ijrochiligi so'nib borishidan behuda tashvishlanish, bu jarayonni salbiy baholash shart emas. Yaxshisi ularning mavjudlarini imkon qadar to'liq yozib olishga, yozib olinganlarining eng yaxshi namunalari saralab, xalq ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qildirishga qayg'urgan, barchasini mutaxassislar ixtiyoriga berib, ahamiyatini tushuntirib berishlarini so'ragan ma'qul.

Kishilar nutqlarida maqollardan, bolalar maqol va topishmoqlardan faol foydalanishmoqda va h.z. Jahon folklorshunoslari, etnograflarining e'tirof etishicha, topishmoq va maqollar folklorning eng qadimiy va eng zamonaviy janrlaridan bo'lib, insoniyat tafakkuri va faoliyati tarixida beqiyos rol o'ynagan ekan. Chunki, ibtidoiy odam uchun hamma narsa dastlab jumboq, topishmoq bo'lsa, bolalarning har kuni o'ziga xos hayot jumboqlarini echish kashfiyotlaridan iboratdir. Til, falsafa, so'z sa'naining hosilasi bo'lgan maqollar esa kishilar dunyoqarashi, o'tmish tajribalarining ifodasi bo'libgina qolmay, buguni va kelajakdagi hayoti uchun o'ziga xos qomusiy dastur hamdir.

2. Arxiv materiallari sifatida.

3. Turli xalq ijodchilarining ko‘rik –tanlovlari shaklida, ommaviy bayramlar va tomoshalar, bolalar ko‘rsatuvlari, telemusobaqalari tarkibida.

4. Folklor – etnografik, jumladan, dostonchilik jamoalari repertuarida.

5. Kitoblar shaklida, elektron versiyalar, o‘quv qo‘llanmalari, darsliklarda - «o‘zbek xalq ijodi» turkumidan nashr etilgan ko‘p tomlik, turli xarakterdagi folklor matnlari to‘plamlari, maktabgacha tarbiya, maktab, kollej, litseylar, oliy o‘quv yurtlari xrestomatiyalari, alisher navoiy nomidagi o‘zbekiston milliy kutubxonasining kompyuterlashtirish sohasidagi bugungi faoliyati bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Yozuv va kitob ajdodlarni avlodlar bilan bog‘lab turadigan insoniyatning eng buyuk beqiyos kashfiyotlaridandir. Har qancha zamonaviy bo‘lmasin, kino sa‘natining, o‘ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, kitoblardan, aniqrog‘i, so‘z sa‘natidan ancha ojizligi bor. U inson xayoloti, ijodiy tafakkuri o‘rishini o‘z qolipiga solib, cheklab, qo‘yadi. Bunga abdulla qodiriyning «o‘tgan kunlar» asari asosida olingan kinoni ko‘rgach, kinodagi qahramonlar bilan kitobdagi qahramonlar haqidagi tassavurlarim o‘rtasida katta farq paydo bo‘lganida o‘zim ishonganman. Folklor asarlarining yozma, kitoblar shaklida tarqalishi ham juda yangilik emas. Masalan, xix asrdayoq xorazmda qo‘pgina dostonlar og‘zaki jarayondan qo‘lyozmalarga, ulardan yana og‘zaki jarayonga o‘tgan. Ularning «xalq kitoblari» deb nom olgan litografik nashrlari keng tarqalgan. Nashr etilgan asarlardan(dostonlar, qo‘shiqlar, ertaklar, latifalar va boshqalar) o‘rganib, ijro qilish tajribasi xx asrda ham mavjud edi, hozir ham ma‘lum darajada davom etmoqda.

6. Ommaviy axborot vositalari, gazeta jurnallarda. Folklor asarlari taqdirida ularni targ‘ib va targ‘ib qilish juda muhim o‘rin tutadi. Bu jihatdan ommaviy axborot vositalari, folklor asarlari namunalarini e‘lon qilishdan tashqari, tengsiz ahamiyatga ega. O‘zbek folklorini ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish tarixi va taqdiri maxsus tadqiqotlarga arziydi. Yubileylar munosabati bilan ommaviy axborot vositalarining etuk xalq ijodkorlari haqidagi targ‘ibot ishlari hurmat va e‘tiborga loyiq. Ammo ba‘zan bu borada ham mavsumiylik etakchi bo‘lib qoladi. Masalan, daho baxshi ergash jumanbulbul o‘g‘lining 100-yilligi nishonlanganda «yergashunoslar» juda ko‘payib ketdi. Bundan folklor tashviqotchilari ham,

mutaxassis bo'lmasa ham, folklor tabiatini yaxshi bilishlari kerak, «chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, bir og'iz bo'lsa ham bilgan gapirsin », - degan xulosa chiqadi.

7. multfilmlar, kino ssenariylari, teatrlash-tirilgan tomoshalar shaklida.

8. Ilmiy-tadqiqot ishlarida faktik manba sifatida.

9. Yozma adabiyot vakillari ijodiga ta'sir, ya'ni folklorizmlar sifatida.

O'quvchilar o'z bilim, tajribalaridan kelib chiqib, bu tasnifni yanada mukammalishtirishlari, tuzatishlari mumkin. Ammo bir narsa aniqki, folklor asarlari, qanday shakllarda voqe bo'lmasin, o'zlarining tarixiy, badiiy-yestetik, ilmiy-ma'rifiy, tarbiyaviy –ma'naviy va h.z. – ularning barchasini umumlashtirgan milliy –ma'naviy ahamiyatini saqlab qoladi. Qadimgi yunon va rim adabiyoti hozirgacha butun jahon xalqini qanchalik hayratga solib kelayotgan, sa'natning barcha turlariga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, kelgusi avlodlar uchun shunchalik qimmatli bo'ladi.

Til haqida dune xalqlari, mutaffakirlari, yozuvchi=yu, olimlari, donolarning millionlab maqollari, hikmatli so'zlari mavjud. Har bir xalq, millat tilining millat tarixi, buguni, kelajagidagi hayotiy ahamiyatini ta'riflab tugatish qiyin. Folklor asarlarining o'ziga xos badiiy tilidan tashqari sheva tili ham bor. Folklor asari qaysi shevada ijro etilayotgan bo'lsa, aynan yozib olish folklorshunoslik amaliyotining asosiy qoidasidir. Yozib olingan folklor asarlarida shunday sheva so'zlari borki, ularning ko'pchiligi jonli shevalarda ham unutilib ketgan yoki ma'nolari butunlay o'zgargan. Albatta, adabiy tilni shevalashtirish joiz va mumkin emas. Biroq shevalardagi ko'pgina so'zlarni adabiy tilga kiritish uni yanada boyitadi. Demoqchimizki, folklor asarlari tilimiz tarixi, shevalarini o'rganish, so'z boyligini oshirishda bundan keyin ham muhim manba bo'lib qoladi.

Demak, folklorning kelajagidagi yana bir muhim jihat til masalasidir. Hech kimga sir emas, yuksak va boy badiiy tili tufayli bugungi kunda hazrat navoiy ijodining asosiy qismini mutaxassislardan tashqari ko'pchilik lug'atlarsiz tushunmaydi. O'zbek folklorining asosiy qismi shevalarda yozib olingan. Ko'pgina namunalari ommaviy nashrlarida ham asar badiiyatiga putur etmasligi uchun sheva

xususiyatlari saqlanib qolgan. Qolaversa, qahramonlarning ko‘pi mifkjubrik, epik, fantastik xususiyatlar, nomlanishlarga ega. Bular barchasi o‘kuvchi uchun katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Shu bois hodi zarif ilmiy-ijodiy faoliyatining boshidanoq folklor asarlari lug‘atini yaratishga alohida e‘tibor bergan va o‘nlab kartochkalar tuzgan edi. Ammo bu sohaga endigina kirishilmoqda. Misol sifatida “alpomish” dostonining izohli lug‘ati”ni ko‘rsatish mumkin. O‘zbek folklori va folklorshunosligining so‘zli va izohli lug‘atlarini tuzish murakkab va sharaflı ishlardandir.

Folklor janrlar taqdiri turlicha kechgan va kechmoqda. Marosim folklori etnofolkloriy jarayon mahsulidir. Shu bilan birga bugungi kunda bevosita marosim bilan bog‘liq bo‘lmagan janr namunalari tarkibida ham shunchalar ko‘p urf-odatlar, etnografik detallar qayd etiladiki, o‘zbek folklorshunosligida etnofolkloristik yo‘nalishning rivojlanib borayotgani bejiz emas.. Ko‘pgina urf-odat marosimlar yoki ular tarkibidagi so‘z sa‘nati namunalari unutilib, yoki marosimdan uzilib, etnofolkloriy jarayon so‘nib bormoqda. Masalan, hozir nikoh to‘ylarida an‘anaviy urf-odatlar chala yoki umuman bajarilmaydi. Yor-yorlar deyarlik aytilmaydi. Biroq yozib olingan, nashr etilgan yor-yor matnlariga qarab, nikoh to‘ylaridagi barcha urf-odatlar, marosimlar mazmunini tiklash mumkin.

Folklor va etnografiya tarixan siam egizaklari kabidir. Biz har bir janrning o‘ziga xos urf-odatlari bo‘lgan deyishimiz mumkin. Shu bois folklorshunoslikda umumfolklor etnografiyasi va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan dostonchilik, qo‘shiqchilik, bolalar folklori etnografiyasi va h.z. Atamalarni qo‘llasak xato bo‘lmas. Masalan, dostonchilikda ustozning shogirdga fotiha berishi, doston, odatda, kechalari aytilishi va u aytilayotgan joyga bolalar, ayollarning kiritilmasligi, doston voqealari ayni avjga chiqqanda, do‘mbira to‘nkarilib, ro‘mol yozilishi, do‘mbira bilan bog‘liq ko‘plab irimlar dostonchilik etnografiyasi elementlari, yor-yorlarning:

Avval boshdan xudoni yod etaylik, yor-yor,

Payg‘ambarlar ruhini shod etaylik, yor-yor...

O‘lanlarning:

O‘lan degan qo‘shiqni qizmi yo ul boshlaymi,
Qiz boshlagan o‘lanni el xushlaymi...

Misralari bilan boshlanishi qo‘shiqchilik urflari bo‘lsa, bolalar o‘yinlarining qa‘tiy-tartibga rioya qilinishi, uni buzish g‘irom hisoblangani asrlar bo‘yi bolalar folk-lorining odati bo‘lib kelgan. Shu jihatdan olganda, bizda hali folklor etnografiyasi ham maxsus, deyarli o‘rganil-magan sohadir.

Yepik jarayon, ko‘pgina folklor namunalarning yaratilishi folkloriy, etnofolkloriy jarayonda so‘nib bormoqda. Buning sababarlari juda ko‘p, ammo qisqa qilib, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar deyish mumkin. Shu bilan birga hozir ham hayotda har kuni latifalar yaratilmoqda, kattalar nutqlarida, bolalar zakovat o‘yinlarida maqol va topishmoqlarni aytishmoqda, xonandalar xalk qo‘shiqlarini kuylashmoqda. Umuman olganda, klassik ko‘rinishda bo‘lmasa ham folkloriy jarayon so‘nmaydi.

Bizda so‘z folklori, musiqa folklori, xalq dramasi, xalq amaliy sa‘natini bir-biriga bog‘lab o‘rganishda hozirgacha katta uzilish bor. Boshqacha aytganda, har biri o‘z yo‘liga. Holbuki tarixiy – folkloriy jarayonda ularning barchasi bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, «qarindoshlik rishtalari» bilan bog‘langan yaxlit tizim edi. Kelgusida bu uzilishni bartaraf qilish umumfolklor-shunoslikning ulkan yutug‘i, pirovardida folklor taqdirining ham yorqin tomonlaridan biri bo‘lishi mumkin.

O‘zbek folklori, ming-minglab ijodkorlari, o‘nlab mutaxassislari va yuzlab muxlislari xizmatining ma‘naviy, milliy, umuminsoniy qadriyatini, kelgusida bajarilishi mumkin va zarur bo‘lgan ishlar rejasini bir maqola doirasida mukammal yoritishning imkoni yo‘q. Buning uchun, avvalo, folklor janrlarining nisbatan mukammal tasnifini tuzib, so‘ngra, har bir janr tarixi va taqdiri haqida maxsus tadqiqotlar olib borish zarur. Bu bir kishining qo‘lidan keladigan ish emas. Masalan, mo‘jazgina topishmoq janri tarixi ibtidoiy, miflar yaratila boshlagan, tabular rivojlangan davrga borib taqaladi.

Ushbu maqola munozarali xarakterda bo‘lib, to‘la tasdiq, aql o‘rgatish da‘vo qilmaydi. U o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan qiziquvchi har bir kishini, folklor taqdiri

haqida biroz bo'lsa ham o'ylashga, o'z mulohazalarini o'rtoqlashishga undar degan niyatda yozildi.

Ma'naviyatsiz xalqning kelajagi yo'q, -deydi prezidentimiz. Xalqning o'tmishi ham ma'naviyatsiz bo'lmagan. Buning eng ishonchli guvohlaridan biri folk-lordir. Odam va odamizot taqdirini olloh belgilaganiga ishongan bir musulmon sifatida yurtboshimiz aytgan hikmatni inson va insoniyat, barcha xalqlar kelajagiga taalluqli desak, xato bo'lmas. O'zbek folklori esa bugungi mavjudlik shakllarida ham bevosita ma'naviyatga taalluqli, kelgusida ham shunday bo'lib qoladigan qadriyatdir.

Folklor namunalarini to'plash eng avvola unga puxta tayyorgarlik ko'rish, tashkil etilayotgan ekspeditsiyaning rejasini to'g'ri tashkil etishdan boshlanadi. Folklor namunalarini to'plashga, yozib olishga chiqayotgan kishi birinchi galda nazariy ma'lumotga ega bo'lishi, folklorga xos bo'lgan xususiyatlardan xabardor bo'lishi talab etiladi.

Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish yo'l-yo'riqlari va metodikasi, folklor namunalrini yozib olish prinsiplari atroflicha yoritib beriladi.

Folklor ekspeditsiyasidan yozib olingan materiallar qat'iy prinsiplar asosida tasnif etilada va nashrga tayyorlanadi. Bu prinsiplar ilk bor o'zbek folklorshunosligining asoschisi hodi zarifov tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik esa folklorshunos olim, akademik to'ra mirzayev tomonidan qayta ishlab chiqildi. Folklor asarlarini nashrga tayyorlash prinsiplari quyidagilardan iborat:

O'zbek xalq ijodi» ko'p tomligiga kiradigan asarlirni aniqlash va nashrga tayyorlshn «o'zbek xalq ijodi» ko'p tomligini nashr etish prospekt» asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun avvalo prospektni puxta o'rganib chiqish zarur.

Prospektda ko'rastilgan talablarga javob beradigan har bir asar kuylovchi va aytuvchidan yozib olingan dastlabki qo'lyozma asosida nashrga tayyorlanadi. Qo'lyozmaning qo'lda yo mashinkada ko'chirilgan yoki to'liq nashr etilgan nusxalari mavjud bo'lgan taqdirda ham, dastlabki qo'lyozma bo'lmog'i shart. Chunki ko'chirish prosessida ayrim so'zlar va iboralarni noto'g'ri o'qish, xato yozish, tushirib qoldirish hodisalari ko'p uchraydi. Bunday hodisa va faktlarning

miqdori u yoki bu asarning nashrida ham yana ham ko‘proqdir. Dastlabki qo‘lyozma umuman mavjud bo‘lmagan ayrim hollardagina, u asar qo‘lyozmasining kopiyasi yoki original asosidagi nashr asosga olinadi.

Asosiy nusxa, ya’ni yoki bu folklor asari qaysi grafika va qanday imloda yozib olingan bo‘lmasin, u asar hozirgi o‘zbek grafikasida va hozirgi joriy orfografiya qoidalariga rioya qilingan holda nashrga tayyorlanadi.

Ma’lumki, folklor asarlari bizgacha bir necha versiya na variantlarda etib kelgan. Bir necha versiya variantlarda yozib olingan asarlar mavjud bo‘lgan hollarda, ularni qiyosiy o‘rganib, prospekt talablariga javob beradigan yaxshisi yoki yaxshilari tanlab olinadi. Dostonlardan, umuman bir-ikki versiya, ayrim hollardagina bir necha versiya, ertaklar, latifalar, xalq dramasi, askiya, qo‘shiq, maqol va topishmoqlardan ikki-uch va undan ko‘p versiya olinishi mumkin.

Asarlarning versiyalar ichidagi mavjud variantlari ham qiyosiy o‘rganilib, ular orasidan eng yaxshisi tanlab olinadi. Doston va ertaklardan asosan bir variant, boshqa janrlardagi asarlardan ayrim hollarda ahamiyatiga ko‘ra ikki variant olish mumkin. Faqat maqol, topishmoq, to‘rtlik, qo‘shiq, tez aytish kabi mayda janrlardagi asarlardan zarur topilgan taqdirdagina uch-to‘rt variant olish mumkin.

Ko‘p tomlikka kiradigan har bir asar to‘liq ravishda olinadi. Chala yozib olingan tekst yoki biror asarning ayrim parchalari umuman ko‘p tomlikka kiritilmaydi. Faqat u yoki bu folklor asari o‘z vaqtida qisman (parcha) holida yoki mazmuni yozib olingan bo‘lib, uning to‘liq nusxasi bo‘lmasa, mavjud qismi tarixiy, ijtimoiy va badiiy jihatlaridan muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, ayrim hollardagina ularni ko‘p tomlikka kiritish kerak bo‘ladi.

Asar to‘liq ravishda olingani bilan qo‘lyozmaning teksti hammavaqt boshdan-oyoq to‘liq olinmaydi. U yoki bu asar tekstidagi g‘oyaviy va tarbiyaviy jihatdan mazkur asar ruhiga yod bo‘lgan ayrim parchalar, bandlar, jumlar, iboralar, so‘zlar tushirib qoldiriladi. Tushirib qoldirilganlarning o‘rni ko‘p nuqta bilan qayd etiladi, hajmi ko‘rsatilmaydi.

Hozirgi kunda tarbiyaviy jihatdan zararli deb hisoblangan ayrim parchalar, jumla va satrlarni, hatto so‘zlarni ham tahrir etib, “tuzatish” mumkin”

emas. Chunki bu tur “tuzatish” faqat soxtalashtirish bo‘ladi. Shuning uchun eng to‘g‘ri yo‘l ularni tushirib qoldirishdir. Lekin bu tur qisqartirishlarni har jihatdan puxta o‘ylab, ularga konkret yondoshish, ularning mazkur asarlardagi o‘rnini to‘g‘ri belgilash, muayyan asarning yaratilgan davrini hisobga olib, uning g‘oyaviy-badiiy saviyasiga zarar yetkazmaslik kerak.

2-MAVZU: FOLKLOR NAMUNALARINI YOZIB OLISH. FOLKLOR MATERIALLARINI TO‘PLASH, TASNIFLASH. FOLKLOR ASARLARINI YOZIB OLISH, TO‘PLASH VA O‘RGANILISH METODIKASI.

Reja:

1. Folklor san’ati asarlarini yozib olish turlari.
2. Folklor – etnografik ekspeditsiyalari.
3. Folklor asarlarini yozib olishning ahamiyati.

Folklor san’ati asarlarini yozib olish usullari 3 turga ajratiladi: fonografik usul, qo‘lda yozib olish, tasviriy usul.

Fonografik usul:

Fonografik usulda yozib olishda texnika vositalaridan foydalaniladi. Magnitafon yoki tasvirga olish texnikasi yordamida folklor san’ati janrlariga oid marosim folklori namunalarini yozib olish “Folklor-yetnografik jamoalari uslubiyoti: fanini ilmiy-amaliy jihatdan o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Fonografik usul qulayliklari

- Jonli og‘zaki ijro;
- Qo‘shiqning kuyi va ohangi;
- An’ana;
- Aytuvchining ijrochilik mahorati;
- Ijro usullari.
- Asarlar magnitafon yordamida tabiiy, jonli, ohangi va kuyi bilan yozib

olinadi.

□ Magnitafon yordamida yozib olingan folklor asarida ijrochilik amaliyotida avlodan-avlodga o'tib davom etib kelayotgan an'analar to'la saqlanib qoladi.

□ San'atshunoslar, folklorshunos va etnolog olimlar uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Qo'lda yozib olish usuli:

O'zbek xalq og'zaki ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan xalqimiz tarixi, turmush tarsi, e'tiqodi, va qarashlari qadimiy urf-odatlarini, raqs san'ati harakatlarini o'rganishda turli marosimlarni to'liq holda tasavvur etish va o'rganish uchun esa qo'lda yozib olish usulidan foydalanish zarur.

□ Bu usullarga qat'iy amal qilgan holda xalq ijodining mukammal san'at asarlari darajasida haqiqiy durdonalarni yozib olish mumkin.

□ Qo'lda yozib olish jarayonida ijrochi bilan folklor asarini yozib oluvchi mutaxassis o'rtasida muloqot tizimi saqlanib turadi.

Qo'lda yozib olish usuli qulayliklari:

□ Ijrochi aytgan matnni aniq va to'la qog'ozga tushirish;

□ Ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlar (sheva)ga xos atamalarga bevosita yozib olish jarayonida izoh berish;

□ O'zaro muloqot;

□ Folklor san'atining marosim folklori sirasiga kiradigan afsona, rivoyat, maqol, topishmoq, tez aytish, sanama, matal va iboralarni magnitafonda emas, balki qo'lda yozib olish maqsadga muvofiqdir.

□ Folklor asarlarini qo'lda yozib olish yozib oluvchidan maxsus filologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Tasviriy usul

□ Zamonaviy repertuarni aniqlash va o'zlashtirish ;

□ Tarixiy manbalar, arxivlarni saralash va ular ustida ishlash tartibi;

□ Ilmiy va dasturiy ma'lumotlar;

□ Qat'iy amal qilgan holda xalq ijodining mukammal san'at asarlari darajasida haqiqiy durdonalarni yozib olish mumkin.

Folklor san'ati asarlarini to'plovchi mutaxassis ijro etuvchining shaxsi haqida to'la ma'lumot keltirishi kerak:

- Asarning pasporti aniq va ravshan bo'lishi;
- Asarning ijro usullarini qayerdan va kimdan yozib olganligi;
- Ijro etgan ijrochining yoshi, ma'lumoti, qaysi hududga mansubligi;
- Asarni kimdan o'rganganligi;
- Asar yozib olingan vaqti; ijro usuli, ijro mahorati va tinglavchilar bilan muloqotiga ham e'tibor berish lozim.

Folklor – etnografik ekspeditsiyalari

Folklor asarlarini to'plash va o'rganish ishlari 1918-20 yillarda Turkiston Maorif xalq komissariatining Turkiy seksiyasi, 1921-24 yillarda esa Davlat ilmiy kengashining O'zbek bilim hay'ati tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek bilim hay'atining Toshkent viloyati Bo'stonliq tumaniga (1921), Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga (1922), Farg'ona vodiysiga (1922) uyushtirgan folklor ekspeditsiyalari, ayniqsa, samarali bo'lgan. Bu ilmiy safarlarda qatnashgan G'ozim Olim Yunusov va G'ulom Zafariy lapar, o'lan, bolalar qo'shiqlari, og'zaki drama, ertak va afsona, marosim folkloriga oid materiallarni yozib olishgan.

O'zbek bilim hay'ati tomonidan tashkil etilgan folklor-yetnografik ekspeditsiyalarga boshchilik qilgan G'.O.Yunusov xalq og'zaki badiiy ijodi namunalarini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi xalq baxshilarini aniqlagan. G'.O.Yunusov o'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922 yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dostonidan parchalar yozib olgan.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, YE.YE.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa folklori asarlarini yozib olgan bo'lishsa, G'ulom Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.F.Gavrilov o'zbek xalq og'zaki teatri an'alarini o'rgandilar. G'ozim Olim Yunusov, Elbek, YE.D.Polivanov, L.Potapov, Bekjon Rahmon, H.Zarifov, A.K.Borovkov,

YE.M.Peshchereva, V.Drujinin, V.G.Andreyev, Q.Ramazonov, A.Alaviy, SH.Rizo, SH.Ro‘zi, SH.Abdullayeva, B.Karimiy, M.Alaviya va boshqalar o‘zbek folklorining eng nodir asarlarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan dastlabki folklor ekspeditsiyalarida faol qatnashdilar.

O‘zbek folklorshunosligining filologik yo‘nalishdagi fan sifatida shakllanishi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. U folklor asarlarini yozib olish, to‘plash, nashr etish va o‘rganishga ulkan hissa qo‘shgan alloma, o‘zbek folklorshunosligining asoschisidir.

Atoqli olim H.Zarifov o‘zining 20-yillarda o‘tkazgan ekspeditsiyalari chog‘ida Jizzax viloyatidan «yo ramazon» qo‘shiqlarining mukammal namunasini yozib olishga, shuningdek, xalqimizning irim-sirimlari va e‘tiqodlariga oid boy faktik materiallar to‘plashga muvaffaq bo‘lgan.

Folklor san‘atining o‘ziga xos janrlaridan biri xalq qo‘shiqlarini to‘plash va o‘rganishga katta hissa qo‘shgan Muzayyana Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg‘ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspeditsiyalarida bo‘lib, xalq qo‘shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to‘plagan.

M.Alaviya o‘zbek xalq marosim qo‘shiqlarining mavzu qamrovi, g‘oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari, ijtimoiy mohiyati, qo‘shiqchilarning ijrochilik san‘ati, qo‘shiqlarning tarixiy asoslariga doir ko‘plab ilmiy tadqiqotlar muallifidir. M.Alaviya O‘zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyalari ishtirokchisi sifatida oilaviy-maishiy marosimlar bilan aloqador o‘lan, yor-yor, kelin salom, lapar kabi janrlarga oid matnlarni to‘plagan. 1969 yilda Sayram, Turkiston, Iqon, Qorabuloq bo‘ylab o‘tkazilgan folklor ekspeditsiyasi chog‘ida shamol to‘xtatish marosimi bilan bog‘liq «Choymomo» qo‘shig‘ining ko‘plab variantlarini aniqlagan.

O‘zbek folklorini to‘plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo‘shgan olim Z.Husainova 1951 yildan buyon O‘zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspeditsiyasi safida Respublikamizning barcha viloyatlarida, Janubiy Tojikiston va O‘shda bo‘lib, xalq og‘zaki ijodiyotining qo‘shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to‘plagan.

Folklorshunos olim R.Muhammadiyevning tashabbusi va ishtirokida askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish maqsadida maxsus folklor ekspeditsiyalari o'tkazilgan. 1961 yilda Farg'ona vodiysida ish olib borgan birinchi ekspeditsiyada askiya janrining tarqalish doirasi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar to'plangan, askiya payrovlarini yozib olingan. 1963 yilda o'tkazilgan ikkinchi ekspeditsiya chog'ida mashhur askiyabozlarning repertuari tadqiq etilgan.

Xalq ijodi asarlari o'zbek tilining turli dialektlari va shevalarida yaratilib, kuylanib va aytilib kelinganligi uchun ham uning badiiy tili fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan o'zbek adabiy tilidan farq qiladigan ancha xususiyatlarga ega. Bu farqlarning tarixiy asoslari, zamini va qator obektiv sabablari bor.

O'zbek tili dialektlari va shevalarining ko'pligi, folklor asarining u yoki bu shevada yaratilganligi, uni yana bir sheva vakilidan yozib olinganligi tufayli tekstda umumo'zbek xalq tilining xususiyatlari bilan bir qatorda shevalar uchun xarakterli leksik va grammatik xususiyatlar ham o'z aksini topgan. Folklor asarlarining asrlar osha og'izdan-og'izga ko'chib uzoq yashashi, keng tarqalishi va shu tufayli ko'p o'zgarishlarga uchragani holda, ayrim lingvistik faktlar adabiy til hatto shevaning o'ziga nisbatan ham arxaik yoki eskirgan holda saqlanib qolgan. Folklor ijodkorlari va tashuvchilari xalq tilining barcha boyliklaridan keng foydalanganliklari tufayli xalq og'zaki badiiy ijodining tilida, xususan, leksikasida allaqancha faktlarning saqlanib qolishiga olib kelganki, ular hozirgi adabiy tilimizda umumlashmagan. Shuningdek, tarixiy, ijtimoiy madaniy va adabiy aloqalar tufayli, turli xalqlarning og'zaki ijodidan ijodiy foydalanish natijasida u yoki bu xalq tiliga xos ba'zi lingvistik faktlar ham folklor asarlari tekstida uchrab turadi. Bugina emas, folklor asarlari tilida sheva uchun xarakterli bo'lmagan, yozma adabiyotning ta'sirida yuzaga kelgan ayrim faktlar ham mavjuddir.

Mana shularning hammasini hisobga olganda, folklor asarlari tilidagi farqli xususiyatlar u asarlarni keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallagai holda nashrga

tayyorlash ishini ancha qiyinlashtaradi va katta mas'uliyat talab qiladi. Shuning uchun ham folklorlarning poyetik tili har qaysi janr va asar badiiy formasining muhim tarkibiy qismi sifatida to'la saqlanishi, uni izohlash va qayta ishlashga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Masalan, «zig'ir – huti, tariq — tuti» maqolini zig'irni qishning oxirida tariqni tut pishig'ida ekan yaxshi kabi yoki “uyimda yo'q go'jalik, ko'nglim istar xo'jalik” maqolini go'ja qaynatishga uyida masallig'i yo'g'u tag'in xo'jayin bo'lishni istaydi kabi izohlash va qayta ishlash mumkin emas. Bu tur «ishlash»da maqolning ma'nosi saqlansa ham barcha badiiy xususiyati yo'qoladi. Yoki «bu tog'larda bo'ktarilgan qormidi?» satrini «bu tog'larda oqaringan qormidi?» shaklida bo'ktarilgan so'zi o'rniga oqaringan so'zini ishlatish mumkin emas.

Bizning nazarimizda xalk ijodi asarlarini har qanday «tahrir» va «qayta ishlash» oqibatda uni soxtalashtirishga olib keladi.

Folklor asarlari tilida dialektlar va shevalarga xos, lekin badiiy asar tili uchun muxim ahamiyati bo'lmagan fonetik hodisalar o'zicha saqlanmasdan adabiy til normasida beriladi. Shu narsani unutmaslik kerakki folklor asarlarini ommaviy nashrga tayyorlashda dialektlar va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni adabiy tilda berish ham katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu qiyinchiliklar shundan iboratki, folklor tilidagi fonetik hodisalarni butunlay yo'qotib, har yerda adabiy tildagi shaklga ko'chirish ba'zan

Asarning badiiyligiga zarar etkazib qo'yishi va ba'zan tarixiy muhim faktlarni mexanik ravishda yo'q qilib yuborish kabi zararli oqibtlarga olib kelmasligi shart.

Folklor asarlari tilida mavjud, shevalar uchun xarakterli fonemalar ommaviy nashrda saqlanmaydi. Ular hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud grafikada beriladi. Shevalarda mavjud singarmonizm va lab oxangi saqlanmaydi, adabiy til normalariga bo'ysundiriladi. Shuningdek, ko'p hollarda ba'zi tovushlar oldidan paydo bo'ladigan, ba'zan so'z o'rtasida qo'shiladigan tovush natijasidagi farqlar saqlanmaydi, u so'zlar ham adabiy tildagidek beriladi.

Masalan, harra, hayvon. Xurum, iloy, irayim, o‘rimol, rayis, rasim, vo‘laxat emas, arra, ayvon, rum, loy, rahim, po‘mol, rais, rasm, viloyat shaklida olinadi.

Shevalar uchun xarakterli bo‘lgan jaranglashish yoki bir tovushning ikkinchi bir tovushga o‘tish hodisilari asosan saqlanmaydi, adabiy tildagicha beriladi. Gijik, go‘z, guj, getir, gatir, dosh, do‘shak, duz, adik, meydon, miymon, singni kabi hollarda sheva xususiyati saqlanmaydi, balki kichik, ko‘z, kuch, keltir, tosh, to‘shak, tuz, etik, maydon, mehmon, singil shaklida yoziladi. Birok har qaysi so‘z uchun shu prinsipni ushlab olib, hamma vaqt tovushlarni o‘zgartirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunda har bir faktga konkret yondoshib, uning mazmuni va poyetik tomoniga diqqat qilish kerak bo‘ladi. Tovushlarni o‘zgartirish qofiya, vazn umuman badiiylikka zarar etkazsa, uni aslicha qoldirgan ma’qul. Quyidagi misollarga diqqat qiling.

«yo‘l ustinda do‘shak, shuni bilmagan ashak” (ko‘prik) tomilmog‘ini «yo‘l ustinda to‘shak, shuni bilmagan eshak” deyilsa, asarning badiiyligiga zarar etmaydi. Ammo “uzun-uzun dalanlarda tanishtiq” satrini “uzun-uzun talinlarda tanishdik” qilinsa, she’rda ma’no buziladigina emas, barbod ham bo‘ladi. Chunki talin so‘zi hovliga kiradigan yo‘lak, tanishtiq so‘zlashdik ma’nosidadir. Shuning uchun bu satrni «uzun-uzun dalanlarda donishdik» shaklida berish mumkin.

Qipchoq shevalari uchun qo‘proq xarakterli bo‘lgan j lashish hodisilari bilan jarangsizlarning jaranglashish hodisalarini saqlamay, adabiy shaklda berish maqsadga muvofiq. Masalan, jer — er, jil — el, jelim — elim, jingichka — ingichki, jomon — yomon, jotoq — yotoq, jo‘q — yo‘q, juqa — yuqa — yupqa, juvon — yo‘g‘on, jugan — yugan, jildiz — yulduz, jilon — yilon—ilon, jilli — jinni, – jili — iliq, jilimoq — jilamoq – yig‘lamoq, jiynamoq – yig‘namoq, jiydirmoq – yig‘dirmoq, suvuq – sovuq, buvuq – bo‘g‘iq.

Shuni aytish kerakki, j tovushi bilan boshlanga, lekin adabiy tilda ishlatilmaydigan, xususan, talaffuznn adabiy lashtirish natijasida ma’nosi buzilib ketadigan hollarga e’tibor berib, bunday so‘zlarni aslidagidek saqlash zarur bo‘ladi. Masalan, jaynimoq so‘zini yaynamoq qilib bo‘lmaydi, chunkn bu so‘z adabiy tilda yashnamoqk shaklidadir. Uni yashnamoq so‘zi bilan ham

almashtirmasdan o'zini qoldirish kerak. Shuningdek, tog' ustidagi kichik yaylovni

Gildirgan jaipan so'zini yaypan qilish ham yaramaydi. Chunki bu ikkisinin ma'nosi bir ekanligi hali tekishirilib, aniqlangancha emas.

Jayragir so'zini yayragur qilinsa, katta xato bo'ladi. Chunki jayragir so'zi yayragur so'zining aksi bo'lib, yashamagur ma'nosidadir. Janalmoq so'zini yanalamoq kilib bo'lmaydi. Bu so'z qiyalamoq, qiyalab yurmoq ma'nosidadir. Jirov, jarg'i, jovliq, jilon, jiyda, jashovramoq so'zlari ham aslicha qolish kerak.

Folklor matnini nashrga tayyorlashda xalq og'zaki ijodi va og'zakn nutqning barcha xususiyatlarini hisobga olish kerak bo'ladi. Ularni adabiy tilga qinlashtirishda juda ehtiyot bo'lib, leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) xususiyatlarni mumkin qadar to'la saqlab, bir kator fonetik hodisalarni adabiy normalarga ko'chirish mumkin.

har bir asarning to'laligi, butunligi saqlangi holda ayrim hollarda asardagi barcha tekstning saqlanishi barcha asarlar uchun umumiy qoida bo'lmasligi, asarning g'oyaviy va badiiy qiymatiga jiddiy zarar etkazadigan o'rinlari puxta o'ylangan holda qisqartirilishi zarur bo'ladi. Ammo qisqartirishni asarning kompozitsiyasi va mazmuniga halal bermagasligi, shuning bilan birga u yoki bu asarning o'z davri bilan bog'liq bo'lgan kamchilik va qoloqliklarni yashirib, xaspo'shlab ketadigan bo'lmasligi shart.

Tushirib qoldirilishi mumkin bo'lgan o'rinlar asosan quyidagilardan iborat:

1. tarbiyaviy jihatdan foydasi bo'lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografik so'zlar, iboralar va tasvirlar.

2. asar ruhiga yopishmagan uznan-uzun diniy munojotlar, xudo, payg'ambar va avliyolarni ta'riflab sig'inishlar. Bunday diniy mazmuni ifodalovchi barcha so'z va iboralarni asardan chiqarib tashlash kerak degan ma'no chimasligi kerak. Bu o'rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.

3. qaysi bir yo'sinda bo'lmasin, biror xalq va millatni yoki o'sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg'ularini ifodalagan

soʻzlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, toʻgʻrirogʻi, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq gʻazab va nafratini bayon etgan soʻzlar, iboralar va taʼrif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash toʻgʻri emas.

5. folklor asarlari uchun xarakterli boʻlmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlar.

6. asarning umumiy gʻoyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bogʻlanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlar.

7. asarga aloqasi boʻlmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib oʻtilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «yendi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, soʻng yozamiz, «ovqat kelib koldi, avval taom, baʼdaz kalom» yoki «poʻlkan shoir aytayotir, mulla isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, ergash jumanbulbul oʻgʻli «qunduz bilan yulduz» dostonida toʻyda oʻlan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «u barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib boʻlmaydi.

8. baʼzan tasvirlar nihoyat darajada choʻzilib ketadi, qaytariqlar koʻpayadi, umumiy tasvir yoʻqoladi. Mana shunday tasvirlarni puxta oʻrgangandan keyin keragicha qisqartirish lozim boʻladi. Tasvirlar choʻzilgan sari har safar yangi-yangi detallar, yangi-yangi fikrlar yoki ayni bir voqea, hodisa va yo holatni turli obrazlar bilan ochib berilgan boʻlsa, ularga qaytariq deb qarash va qisqartirib yuborish yaramaydi.

Shuning bilan birga baʼzan qaytariq yoki qaytariqday sezilgan jumla, misra yoki band takrir boʻladi yoki oʻzidan avvalgi band bilan sheʼriy jihatdan zanjirband qilib ishlangan boʻladi. Bunday hollarda qaytariq deb qarab, natijada asar sheʼriyatiga putur etkazib qoʻyishdan saqlanshi kerak.

Har bir janrning oʻz xususiyati, har bir yozuvchining oʻziga xos uslubi boʻlib, ularga katta eʼtibor berilganidek, folklor asarlarining ham muayyan janri

talablariga va har bir san'atkor xalq ijodchisining uslubi belgilariga, undan yozib olingan asarlarning xususiyatlariga e'tibor berish, unday o'ziga xoslikni puxta o'rganish kerak. Nashrga tayyorlovchi o'ziga maqbul biror uslub yoki o'zi o'rgangan grammatik talablardangina kelib chiqib, asar tekstini o'zi istaganicha qolibga solib ishlashi, to'g'risi, o'ziga maqbul ko'rinmasa, ag'dar-to'ntar qilib, boshqatdan tuzib chiqishi umuman xatarli va zararlidir.

Asar tiliga xalq tilining boyligi sifatida qarab, leksik jihatdangina emas, balki grammatik jihatdan ham ko'p xususiyatlarga ega ekanligini e'tibordan tushirmaslik, har bir jumlaning, u jumladagi har bir so'zning ma'no nozikligini, o'rini puxta o'ylab ko'rish kerak. Jummalarda biror so'zni boshqa so'z bilan almashtirishga yo'l qo'ymasligi shart bo'lganidek, so'zlarning o'rini almashtirish ham javobgarlik talab qiladi. Shuni esda saqlash zarurki, o'rin almashtirish natijasida ba'zan ma'noda o'zgarish yuz beradi. Bunga

Bormaslik kerak. Lekin asarni yozib olinayotgan paytda aytuvchi ba'zan ayrim so'zlarni oldinma-ketin aytib qo'yadi, ba'zan jumla hali no'noq yoki grammatik jihatdan butunlay buzuk ham bo'lib qoladi. Mana shunday hollar ochiq, aniq bo'lgan taqdirdagina tayyorlovchi ularni tuzatib ketish kerak.

Folklor prozasi uchun saj xarakterlidir. Folklordagi saj ba'zan o'zbek klassik adabiyotnda mavjud saj'lardan har tomonlama ustunlik u qiladi. Shuning uchun folklordagi saj'lar hech qanday putur etkazilmagan holda saqlanishi kerak. She'rda ritm va qofiya talabi natijasida grammatik qoidalardan chetga chiqishga ruxsat etilganidek, prozada sajning talabi bilan ham xuddi shunday hodisalar ro'y beradi. Shunday ekan, jumlar saj xususiyati-

Ni buzib yuboradigan darajada fonetnk, morfologik va sintaktik jihatdan o'zgarib ketmasligi kerak. Masalan, «avazxon goh ovg'a borar edi, goh tovg'a» jumlasini «avazxon goh ovga, goh toqqa borar edi» qilinsa, saj yo'qoladi. Bu yerda faqat jo'nalish kelishigini -g'a emas, -ga shaklida berish bilan cheklanish kerak. Yoki "birov ug'an, biro bug'an, nechovlar oyog' ostida qog'an" jumlasini "birov unga, birov bunga, nechalar oyoq ostida qolgan" qilinsa, yana saj'ga putur etadi. Bu yerda ug'an, bug'an, qog'an so'zlarini o'zicha qoldirib, ularga izox

tariqasida sahifa ostida adabiy tildagi formasini berish lozim. Saj'larda ega va kesimlar o'z o'rnida kelmasligi ham mumkin. Bunday hollarda saj tartibi, uning xususiyatini yo'qotmaslik uchun o'zicha qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Folklor tili o'zining an'anaviy usullari, ifodalari va qoidalariga ega bo'lgan og'zaki badiiy tildir. Bu xususiyati bilan u muayyan sheva yoki shevalar gruppasi bilan chegaralanib qola olmaydi. Shuning uchun ham nashrlarda badiiy tekst o'zining barcha xususiyatlari bilan to'la namoyon bo'lishi, kitobxonlarga yaxlit adabiy asar sifatida etib borishi zarur.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-amaliy mashg‘ulot: FOLKLOR NAMUNALARINI YOZIB OLISHDA SHEVA XUSUSIYATLARINI SAQLAB QOLISH. FOLKLOR EKSPEDITSIYASINI TASHKIL ETISH USULLARI.

Ishdan maqsad – Folklorning o‘rganilish tarixi, Folklor asarlari to‘plash va yozib olish masalasi, Folklor asarlarining nashri masalasi yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi. (darslik, ma‘ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e‘lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e‘tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas‘uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o‘qish-2 minut.
2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.
4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
5. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova**Birinchi guruh uchun vazifa.**

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
<p>1. Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo‘lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografik so‘zlar, iboralar va tasvirlar Salbiy jihatlari qanday?</p>		
<p>2. Asar ruhiga yopishmagan uznan-uzun diniy munajatlar, xudo, payg‘ambar va avliyolarni ta’riflab sig‘inishlar. Bunday diniy mazmuni ifodalovchi barcha so‘z va iboralarni asardan chiqarib tashlash kerak degan ma’no chimasligi kerak. Bu o‘rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.</p>		
<p>3. Qaysi bir yo‘sinda bo‘lmasin, biror xalq va millatni yoki o‘sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg‘ularini ifodalagan so‘zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi</p>		

bilan ataluvchi epik nomlar, to'g'rirog'i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g'azab va nafratini bayon etgan so'zlar, iboralar va ta'rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to'g'ri emasni?		
---	--	--

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Fol'klor asarlari uchun xarakterli bo'lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlarni tushuntirib bering.		
Asarning umumiy g'oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog'lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so'zlab bering.		
Asarga aloqasi bo'lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o'tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so'ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba'daz kalom» yoki «Po'lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to'yda o'lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo'lmaydi qanday farqlanishi mumkin?		

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Xalq ijodi asarlari o'zbek tilining turli dialektlari va shevalarida yaratilib, kuylanib va aytilib kelinganligi uchun ham uning badiiy tili fonetik, leksik, morfologik va sintaktik jihatdan o'zbek adabiy tilidan farq qiladigan ancha xususiyatlarga ega. Bu farqlarning tarixiy asoslari, zamini va qator obektiv sabablari bor.

O'zbek tili dialektlari va shevalarining ko'pligi, folklor asarining u yoki bu shevada yaratilganligi, uni yana bir sheva vakilidan yozib olinganligi tufayli tektda umumo'zbek xalq tilining xususiyatlari bilan bir qatorda shevalar uchun xarakterli leksik va grammatik xususiyatlar ham o'z aksini topgan. Folklor asarlarining asrlar osha og'izdan-og'izga ko'chib uzoq yashashi, keng tarqalishi va shu tufayli ko'p o'zgarishlarga uchragani holda, ayrim lingvistik faktlar adabiy til hatto shevaning o'ziga nisbatan ham arxaik yoki eskirgan holda saqlanib qolgan. Folklor ijodkorlari va tashuvchilari xalq tilining barcha boyliklaridan keng foydalanganliklari tufayli xalq og'zaki badiiy ijodining tilida, xususan, leksikasida allaqancha faktlarning saqlanib qolishiga olib kelganki, ular hozirgi adabiy tilimizda umumlashmagan. Shuningdek, tarixiy, ijtimoiy madaniy va adabiy aloqalar tufayli, turli xalqlarning og'zaki ijodidan ijodiy foydalanish natijasida u yoki bu xalq tiliga xos ba'zi lingvistik faktlar ham folklor asarlari tekstida uchrab turadi. Bugina emas, folklor asarlari tilida sheva uchun xarakterli bo'lmagan, yozma adabiyotning ta'sirida yuzaga kelgan ayrim faktlar ham mavjuddir.

Mana shularning hammasini hisobga olganda, folklor asarlari tilidagi farqli xususiyatlar u asarlarni keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallagai holda nashrga tayyorlash ishini ancha qiyinlashtiradi va katta mas'uliyat talab qiladi. Shuning uchun ham folklorlarning poetik tili har qaysi janr va asar badiiy formasining muhim tarkibiy qismi sifatida to'la saqlanishi, uni izohlash va qayta ishlashga yo'l qo'yilmasligi lozim.

Masalan, «Zig'ir – huti, tariq — tuti» maqolini zig'irni qishning oxirida tariqni tut pishig'ida ekan yaxshi kabi yoki “Uyimda yo'q go'jalik, ko'nglim istar xo'jalik” maqolini go'ja qaynatishga uyida masallig'i yo'g'u tag'in xo'jayin bo'lishni istaydi kabi izohlash va qayta ishlash mumkin emas. Bu tur «ishlash»da maqolning ma'nosi saqlansa ham barcha badiiy xususiyati yo'qoladi. Yoki «Bu tog'larda bo'ktarilgan qormidi?» satrini «Bu tog'larda oqaringan qormidi?» shaklida bo'ktarilgan so'zi o'rniga oqaringan so'zini ishlatish mumkin emas.

Bizning nazarimizda xalk ijodi asarlarini har qanday «tahrir» va «qayta ishlash» oqibatda uni soxtalashtirishga olib keladi.

Folklor asarlari tilida dialektlar va shevalarga xos, lekin badiiy asar tili uchun muxim axamiyati bo'lmagan fonetik hodisalar o'zicha saqlanmasdan adabiy til

normasida beriladi. Shu narsani unutmaslik kerakki Folklor asarlarini ommaviy nashrga tayyorlashda dialektlar va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni adabiy tilda berish ham katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bu qiyinchiliklar shundan iboratki, folklor tilidagi fonetik hodisalarni butunlay yo‘qotib, har erda adabiy tildagi shaklga ko‘chirish

ba‘zan asarning badiiyligiga zarar etkazib qo‘yishi va ba‘zan tarixiy muhim faktlarni mexanki ravishda yo‘q qilib yuborish kabi zararli oqibtlarga olib kelmasligi shart.

Folklor asarlari tilida mavjud, shevalar uchun xarakterli fonemalar ommaviy nashrda saqlanmaydi. Ular hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud grafikada beriladi. Shevalarda mavjud singarmonizm va lab oxangi saqlanmaydi, adabiy til normalariga bo‘ysundiriladi. Shuningdek, ko‘p hollarda ba‘zi tovushlar oldidan paydo bo‘ladigan, ba‘zan so‘z o‘rtasida qo‘shiladigan tovush natijasidagi farqlar saqlanmaydi, u so‘zlar ham adabiy tildagidek beriladi. Masalan, *harra*, *hayvon*. *Xurum*, *iloy*, *Irayim*, *o‘rimol*, *rayis*, *rasim*, *vo‘laxat* emas, *arra*, *ayvon*, *Rum*, *loy*, *Rahim*, *po‘mol*, *rais*, *rasm*, *viloyat* shaklida olinadi.

Shevalar uchun xarakterli bo‘lgan jaranglashish yoki bir tovushning ikkinchi bir tovushga o‘tish hodsilari asosan saqlanmaydi, adabiy tildagicha beriladi. *Gijik*, *go‘z*, *guj*, *getir*, *gativ*, *dosh*, *do‘shak*, *duz*, *adik*, *meydon*, *miymon*, *singni* kabi hollarda sheva xususiyati saqlanmaydi, balki *kichik*, *ko‘z*, *kuch*, *keltir*, *tosh*, *to‘shak*, *tuz*, *etik*, *maydon*, *mehmon*, *singil* shaklida yoziladi. Birok har qaysi so‘z uchun shu prinsipni ushlab olib, hamma vaqt tovushlarni o‘zgartirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Bunda har bir faktga konkret yondoshib, uning mazmuni va poetik tomoniga diqqat qilish kerak bo‘ladi. Tovushlarni o‘zgartirish qofiya, vazn umuman badiiylikka zarar etkazsa, uni aslicha qoldirgan ma‘qul. Quyidagi misollarga diqqat qiling.

«Yo‘l ustinda do‘shak, shuni bilmagan ashak” (ko‘prik) tomilmog‘ini «Yo‘l ustinda to‘shak, shuni bilmagan eshak” deyilsa, asarning badiiyligiga zarar etmaydi. Ammo “Uzun-uzun dalanlarda tanishtiq” satrini “Uzun-uzun talinlarda tanishdik” qilinsa, she‘rda ma‘no buziladigina emas, barbod ham bo‘ladi.

Chunki *balan* so‘zi hovliga kiradigan yo‘lak, tanishtiq *so‘zlashdik* ma‘nosidadir. Shuning uchun bu satrni «Uzun-uzun dalanlarda donishdik» shaklida berish mumkin.

Qipchoq shevalari uchun qo‘proq xarakterli bo‘lgan *j* lashish hodisalari bilan jarangsizlarning jaranglashish hodisalarini saqlamay, adabiy shaklda berish maqsadga muvofiq. Masalan, *jer* — *er*, *jil* — *el*, *jelim* — *elim*, *jingichka* — *ingichki*, *jomon* — *yomon*, *jotoq* — *yotoq*, *jo‘q* — *yo‘q*, *juqa* — *yuqa* — *yupqa*, *juvon* — *yo‘g‘on*, *jugan* — *yugan*, *jildiz* — *yulduz*, *jilon* — *yilon*—*ilon*, *jilli* — *jinni*, — *jili* — *iliq*, *jilimoq* — *jilamoq* — *yig‘lamoq*, *jiynamoq* — *yig‘namoq*, *jiydirmoq* — *yig‘dirmoq*, *suvuq* — *sovuq*, *buvuq* — *bo‘g‘iq*.

Shuni aytish kerakki, *j* tovushi bilan boshlanga, lekin adabiy tilda ishlatilmaydigan, xususan, talaffuznn adabiylashtirish natijasida ma‘nosi buzilib ketadigan hollarga e‘tibor berib, bunday so‘zlarni aslidagidek saqlash zarur bo‘ladi. Masalan, *jaynimoq* so‘zini *yaynimoq* qilib bo‘lmaydi, chunkn bu so‘z adabiy tilda *yashnamoqk* shaklidir. Uni *yashnamoq* so‘zi bilan ham almashtirmasdan o‘zini

qoldirish kerak. Shuningdek, tog‘ ustidagi kichik yaylovni gildirgan *jaipan* so‘zini *yaypan* qilish ham yaramaydi. Chunki bu ikkisining ma’nosi bir ekanligi hali tekishirilib, aniqlanganicha emas.

Jayragir so‘zini **yayragur** qilinsa, katta xato bo‘ladn. Chunki **jayragir** so‘zi **yayragur** so‘zining aksi bo‘lib, **yashamagur** ma’nosidadir. **Janalmoq** so‘zini **yanalmoq** kilib bo‘lmaydn. Bu so‘z **qiyalamoq**, **qiyalab yurmoq** ma’nosidadir. **Jirov**, **jarg‘i**, **joyliq**, **jilon**, **jiyda**, **jashovramoq** so‘zlari ham aslicha qolish kerak.

Folklor matnini nashrga tayyorlashda xalq og‘zaki ijodi va og‘zakn nutqning barcha xususiyatlarini hisobga olish kerak bo‘ladi. Ularni adabiy tilga qinlashtirishda juda ehtiyot bo‘lib, leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) xususiyatlarni mumkin qadar to‘la saqlab, bir kator fonetik hodisalarni adabiy normalarga ko‘chirish mumkin.

Har bir asarning to‘laligi, butunligi saqlangi holda ayrim hollarda asardagi barcha tekstning saqlanishi barcha asarlar uchun umumiy qoida bo‘lmasligi, asarning g‘oyaviy va badiiy qiymatiga jiddiy zarar etkazadigan o‘rinlari puxta o‘ylangan holda qisqartirilishi zarur bo‘ladi. Ammo qisqartirishni asarning kompozitsiyasi va mazmuniga halal bermagasligi, shuning bilan birga u yoki bu asarning o‘z davri bilan bog‘liq bo‘lgan kamchilik va qoloqliklarni yashirib, xaspo‘shlab ketadigan bo‘lmasligi shart.

Tushirib qoldirilishi mumkin bo‘lgan o‘rinlar asosan quyidagilardan iborat:

1. Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo‘lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografak so‘zlar, iboralar va tasvirlar.

2. Asar ruhiga yopishmagan uznan-uzun diniy munojotlar, xudo, payg‘ambar va avliyolarni ta’riflab sig‘inishlar. Bunday diniy mazmuni ifodalovchi barcha so‘z va iboralarni asardan chiqarib tashlash kerak degan ma’no chimasligi kerak. Bu o‘rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.

3. Qaysi bir yo‘sinda bo‘lmasin, biror xalq va millatni yoki o‘sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg‘ularini ifodalagan so‘zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to‘g‘rirog‘i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g‘azab va nafratini bayon etgan so‘zlar, iboralar va ta’rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to‘g‘ri emas.

5. Fol’klor asarlari uchun xarakterli bo‘lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlar.

6. Asarning umumiy g‘oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog‘lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandler.

7. Asarga aloqasi bo‘lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o‘tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so‘ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba’daz kalom» yoki «Po‘lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul

o'g'li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to'yda o'lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo'lmaydi.

8. Ba'zan tasvirlar nihoyat darajada cho'zilib ketadi, qaytariqlar ko'payadi, umumiy tasvir yo'qoladi. Mana shunday tasvirlarni puxta o'rgangandan keyin keragicha qisqartirish lozim bo'ladi. Tasvirlar cho'zilgan sari har safar yangi-yangi detallar, yangi-yangi fikrlar yoki ayni bir voqea, hodisa va yo'holatni turli obrazlar bilan ochib berilgan bo'lsa, ularga qaytariq deb qarash va qisqartirib yuborish yaramaydi.

Shuning bilan birga ba'zan qaytariq yoki qaytariqday sezilgan jumla, misra yoki band takrir bo'ladi yoki o'zidan avvalgi band bilan she'riy jihatdan zanjirband qilib ishlangan bo'ladi. Bunday hollarda qaytariq deb qarab, natijada asar she'riyatiga putur etkazib qo'yishdan saqlanishi kerak.

Har bir janrning o'z xususiyati, har bir yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lib, ularga katta e'tibor berilganidek, folklor asarlarining ham muayyan janri talablariga va har bir san'atkor xalq ijodchisining uslubi belgilariga, undan yozib olingan asarlarning xususiyatlariga e'tibor berish, unday o'ziga xoslikni puxta o'rganish kerak. nashrga tayyorlovchi o'ziga maqbul biror uslub yoki o'zi o'rgangan grammatik talablardangina kelib chiqib, asar tekstini o'zi istaganicha qolibga solib ishlashi, to'g'risi, o'ziga maqbul ko'rinmasa, ag'dar-to'ntar qilib, boshqatdan tuzib chiqishi umuman xatarli va zararlidir.

Asar tiliga xalq tilining boyligi sifatida qarab, leksik jihatdangina emas, balki grammatik jihatdan ham ko'p xususiyatlarga ega ekanligini e'tibordan tushirmaslik, har bir jumlaning, u jumladagi har bir so'zning ma'no nozikligini, o'rnini puxta o'ylab ko'rish kerak. Jumalalarda biror so'zni boshqa so'z bilan almashtirishga yo'l qo'ymasligi shart bo'lganidek, so'zlarning o'rnini almashtirish ham javobgarlik talab qiladi. Shuni esda saqlash zarurki, o'rin almashtirish natijasida ba'zan ma'noda o'zgarish yuz beradi. Bunga bormaslik kerak. Lekin asarni yozib olinayotgan paytda aytuvchi ba'zan ayrim so'zlarni oldinma-ketin aytib qo'yadi, ba'zan jumla hali no'noq yoki grammatik jihatdan butunlay buzuq ham bo'lib qoladi. Mana shunday hollar ochiq, aniq bo'lgan taqdirdagina tayyorlovchi ularni tuzatib ketish kerak.

Folklor prozasi uchun saj xarakterlidir. Folklordagi saj ba'zan o'zbek klassik adabiyotnda mavjud saj'lardan har tomonlama ustunlik u qiladi. Shuning uchun folklordagi saj'lar hech qanday putur etkazilmagan holda saqlanishi kerak. She'rdan ritm va qofiya talabi natijasida grammatik qoidalardan chetga chiqishga ruxsat etilganidek, prozada sajning talabi bilan ham xuddi shunday hodisalar ro'y beradi. Shunday ekan, jumalalar saj xususiyatini buzib yuboradigan darajada fonetnik, morfologik va sintaktik jihatdan o'zgarib ketmasligi kerak. Masalan, «Avazxon goh ovg'a borar edi, goh tovg'a» jumlasini «Avazxon goh ovga, goh toqqa borar edi» qilinsa, saj yo'qoladi. Bu erda faqat jo'nalish kelishigini –g'a emas, -ga shaklida berish bilan cheklanish kerak. Yoki "Birov ug'an, biro bug'an, nechovlar oyog' ostida qog'an" jumlasini "Birov unga, birov bunga, nechalar oyoq ostida qolgan" qilinsa, yana saj'ga putur etadi. Bu erda

ug'an, bug'an, qog'an soʻzlarini oʻzicha qoldirib, ularga izox tariqasida sahifa ostida adabiy tildagi formasini berish lozim. Sajʼlarda ega va kesimlar oʻz oʻrnida kelmasligi ham mumkin. Bunday hollarda saj tartibi, uning xususiyatini yoʻqotmaslik uchun oʻzicha qoldirish maqsadga muvofiqdir.

Folklor tili oʻzining anʼanaviy usullari, ifodalari va qoidalariga ega boʻlgan ogʻzaki badiiy tildir. Bu xususiyati bilan u muayyan sheva yoki shevalar gruppasi bilan chegaralanib qola olmaydi. Shuning uchun ham nashrlarda badiiy tekst oʻzining barcha xususiyatlari bilan toʻla namoyon boʻlishi, kitobxonlarga yaxlit adabiy asar sifatida etib borishi zarur.

Ishdan maqsad – “Folklor materiallarini toʻplash va nashr etish metodikasi” yangi fan boʻlib, uning asosiy maqsadi folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish, folklor namunalari yozib olish, tasniflash, nashrga tayyorlash kabi koʻplab masalalarini oʻz ichiqga qamrab oladi.

Folklor materiallarini bugungi kun folklorshunosligi nuqtai nazaridan qiyosiy oʻrganish fanni yanada chuqar va atroflicha oʻrganish, tadqiq etishga xizmat qiladi.

Masalaning qoʻyilishi-Mamlakatimiz rahbari SH.M. Mirziyoyev tomonidan “2017-2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha harakatlar strategiyasi”da belgilab berilgan vazifalar asosida “Folklor materiallarini toʻplash va nashr etish metodikasi” fanining manbalarini jamlash, ilmiy tadqiq etish va talabalarga yetkazish;

- Oʻzbek folklorshunosligidagi eng yetakchi mavzular tizimini yaxlit holda oʻrganish;

- Oʻzbek folklori materiallarni toʻplash va tadqiq etish usullarini haqida talabaga ilmiy bilimlarni berish;

- Folklordagi doston janri tarkibi va unda badiyatning oʻziga xos namoyon boʻlish yoʻllarini koʻrsatish;

- Mifologik tafakkur barcha sanʼat asosi ekanini, mifologik tasavvurlar bilan bogʻliq bilimlar va badiiy obrazlarning ramziy timsoliy maʼnolarini talabalar ongiga singdirdi;

- Xalq xalq nasri va qoʻshiqlarida mifologik syujet, obraz va unsurlarning badiiy estetik sathda namoyon boʻlish yoʻllarini koʻrsatish;

- Oʻzbek xalq qoʻshiqlarining strukturasi, obrazlar tizimi uning badiiyatini tadqiq etishda muhiya ahamiyatga ega ekanligini;

- Oʻzbek folklori va yozma adabiyot namunalari qiyoslash orqali folklor sanʼatiga xos boʻlgan tushuncha va tasavvurlar, poetik tafakkurning yozma adabiyotda koʻchib oʻtishi omillarini ilmiy asosda koʻrsatish va ularning xalqimiz madaniy merosida tutgan oʻrni haqida maʼlumot berish.

“Folklor materiallarini toʻplash va nashr etish metodikasi” fani boʻyicha magistr talabalari, avvalo, oʻzbek folklorini tadqiq etishdagi yetakchi tamoyillar va usullar haqida atroflicha *tasavvur hosil qiladilar*. Folklor materiallarini toʻplash va nashrga tayyorlash haqida atroflicha tasavvurga ega boʻladilar. Folklor matnlarini qiyosiy tadqiq etish metodlari bilan tanishadilar, folklor matnini variant va versiyalarga qiyoslab tadqiq etish metodlari ustida ish olib boradilar,

folklorshunoslik borasida dunyodagi yetakchi tamoyillar to'g'risida ***bilim va ko'nikmalar hosil qiladilar***. Bugungi kun folklorshunosligining taraqqiyot bosqichlari, o'zbek xalq og'zaki ijodi janrlari va ularning xususiyatlari, xalq ijodkorlarining badiiy mahorati, o'zbek folklorshunoslarining ilmiy merosi, barkamol avlod tarbiyasida folklor asarlarining o'rni va ahamiyati ***haqidatushunchaga ega bo'lishadi***. Folklor materiallarni turli nazariy qarash va metodlarga suyangan holda qiyosiy tadqiq etish va ularni baholash ***ko'nikmalariga ega bo'lishadi***.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar bo'yi yaratilgan ulkan ma'naviy xazina, namunalari jahonga mashhur bo'lgan ijod, umuminsoniy qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lgan milliy hodisadir. Shu bois uning tarixi va taqdiri, bir mutaxassis sifatida, ushbu maqola muallifini ham doimo o'yantiradi. Ammo bu erda gap mutaxassis bo'lish yoki bo'lmaslikda ham emas. Muhimi asrlar bo'yi xalq tarixi, ma'naviy-maishiy turmushi, madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi, ilmiy ta'bir bilan aytganda, o'zbek folklori taqdiridadir. E'tirof etish lozimki, hozirgacha folklor va uning ko'pgina namunalari tarixi, taqdiri, albatta, badiiyati, o'zbek folklorshunosligi haqida ham mutaxassislarning e'tiborli fikrlari bayon etilgan.

Asrlar davomida, o'tgan asrning o'rtalarigacha og'zaki ijod xalqning ko'pchilik qismi uchun ham teatr, tasviriy, musiqa sa'nati, ham tarix, ham falsafa, adabiyot, ham estetika, ham pedagogika, milliy etika va etnografik mezonlar, milliy g'oya ham amaliyot –xullas hozir ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rganayotgan hamma narsalar edi. Tarixan folklor etnofolkloriy xarakterli, maishiy turmush bilan uzviy bog'liq bo'lib, turmush va ma'naviyat sa'nati edi. Bugun amaliyotdagi folklor asosan so'z, ma'naviyat sa'nati bo'lib bormoqda. Marosim folklori urf-odatlar va so'z sa'natining uyg'unligi, etnofolkloriy jarayon hosilasidir. Bugun esa uning asosan so'z qismigina saqlanib qolmoqda.

Folklor tabiatiga ko'ra jahoniy hodisadir. Akademik V.M. Jirmunskiy qadimda bir-biridan umuman bexabar bo'lgan xalqlar ijodidagi umumiylikni insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichidagi ijtimoiy, tarixiy-folkloriy jarayonlarning yaqinligidan kelib chiqqanini kashf etib berganki, bu o'zbek folklorining umuminsoniy ahamiyatini ham belgilaydi. Shuningdek, ijtimoiy taraqqiyot, o'zgarishlar tufayli juda ko'plab folklor janrlari namunalari yaratilmay va ijro etilmay qo'yganligi, epik ijod jarayonning so'nishi, jahon folkloriga xos tabiiy hodisadir.

Folklor qaysi davrda, qanday shakllarda bo'lmasin, jamiyatning, kishilarning ma'lum bir ehtiyojlariga javob bermasa, o'z-o'zidan hayot sahnasidan tushib, faqat tarixiy faktgina bo'lib qoladi. Shu bois uning bugunigacha bo'lgan tarixi mutaxassislar tomonidan ko'p o'rganilgan, keyingi taqdiri yanada ko'proq o'rganilishi zarur bo'lgan masaladir.

Folklor - xalq ijodi deymiz, ammo bu juda murakkab tushuncha. Hayotda hech qachon uch-to'rt talantli kishi yig'ilib, dostonning bir qismini men yaratay, qolganini sizlar yaratinglar deb, doston aytmagan. Yoki ayollar to'planib olib, bir misrani u, bir misrani bu aytib, qo'shiq to'qishmagan. Folklor xalq ijodi

tushunchasini izohlash uchun bir misol juda xarakterlidir. O'g'li Ravshan Zarifovning hikoya qilishicha, folklorshunosligimiz fani asoschisi ustoz Hodi Zarif maqollar to'plamini tuzibdi-yu, kitobni qanday nomlashni bilmay ancha o'ylanib yuribdi va o'zi «Otalari so'zi – aqlning ko'zi» degan sarlavha qo'yibdi. Bugungi kunda bu ifodaning xalq maqoliga aylanib ketganiga hech kim shubha qilmasa kerak. Demokimimizki, har bir folklor namunasining dastlabki ijodchisi bo'ladi va u mualliflikka da'vo ham qilmaydi. Yillar, asrlar o'tib bu ijodga yana kimlardir nimalarnidir qo'shadi, o'zgartiradi, sayqal beradi va h.z. «Alpomish»ning bizgacha shu darajada etib kelishida balki yuzta, balki mingta xalq vakilining ulushi bordir.

Insonning tabiatida ozmi, ko'pmi ijod qobiliyati bor. Bola ham ijod qilishi mumkin, biroq xalqning barcha vakillari ijod va ijro qilish qobiliyatiga birdek ega emas. Shu nuqtai nazardan qaralganda, folklor tarixi xalq ijodchilari va ijrochilari hamda ular yaratgan ijod tarixi, taqdiridir.

Professor T.Mirzaev qayd etganidek, o'zbek folklorida professionallashuv juda rivojlangan. Tarixan xalqning professional ijodchi va ijrochilari – bular o'zidagi iqtidorni «xudo bergan», «tanglayiga bergan» deb tushungan baxshilar, ertakchilar, qo'shiqchilar, qiziqchilar, askiyachilar, latifachilar, xalfalar – xullas ijodning qaysidir bir sohasidagi etuk profesionallardir. Hozirgi paytda bunday kishilar yoshligidan o'z salohiyatiga mos keladigan sohalarda tom ma'noda individual ijodkor sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bundan tashqari o'tmishda u sohadan bir shingil, bu sohadan bir shingil biladigan, yaratadigan, umumfolklor rivojiga ozmi-ko'pmi ulush qo'shib kelgan juda katta aholi borki, fanda ular ommaviy ijrochi, ijodchilar tushunchasi bilan ta'riflanadi.

Folkloriy jarayon nuqtai nazaridan, o'tgan asrda professional ijodchilar taqdirida quyidagilarni ko'ramiz:

XX asrning 20=yillaridanoq klassik dostonchilik maktablari tugay boshlagan, ammo Ergash shoir, Fozil shoir, Po'ltan, Islom shoir, Bola baxshi kabi uning etuk namoyondalari faoliyati avj nuqtaga ko'tarilgan edi. Fandami, sa'natdami biror maktab tugab ketishi mumkin. Ammo ular tugagach ham, vakillari yana ko'p yillar ijod qiladilar. Ijodlari turli yo'llar bilan avlodlardan avlodlarga etib boradi. Folklorning kelgusi taqdiri bevosita ana shu ijodni, umuman mavjud xazinani turli yo'llar bilan bugunga xizmat qildirish, avlodlarga etkazib berishga bog'liq. Busiz folklor haqida so'zlashga hojat yo'q. Biror bir nodir folklor asarini, umuman yozib olingan barcha namunalarni yuz yildan keyin ham ilmiy tadqiq, nashr qilish mumkin. Biroq ular yo'qolib ketgan bo'lsa, uning o'rnini hech narsa qoplay olmaydi. Shu bois folklor asarlarini yozib olish bilan shug'ullangan folklorshunoslar bilan birga folklor muxlislaridan har qancha minnatdor bo'lsak arziydi. Bu fikrni folklorshunoslik ikkinchi darajali ekan, deb tushunmaslik kerak.

O'tgan asrda ulkan xalq ijodkorlari, turli darajadagi xalq baxshilaridan, ertakchilar, qo'shiqchilar, aholining barcha qatlamlari vakillaridan beqiyos folklor namunalari yozib olinib, saralanib, talay qismi nashr qilindiki, o'zbek folklorshunoslik amaliyoti hech qachon bunday yuksak yutuqqa erishgan emas, erisha olmaydi ham. Ayni paytda folklorshunoslik kelajakda ham folklor taqdiri uchun eng muhim asos bo'lib qoladi. Masalan, 1928 yilda Maxmud Zarifov

tomonidan Fozil shoir kuylagan «Alpomish» dostoni yozib olinmaganda, bugun biz Prezidentimiz tashabbusi va YUNESKO hamkorligida 1000 yilligi jahon miqyosida nishonlangan, dune xalqlarining eng yuksak eposlari bilan bellasha oladigan, T. Mirzaev ta’rifi bilan aytganda, «dostonlar gultoji»dan abadiy mahrum bo’lar edik. Bu fikrni, xususan, eng mo’jaz maqolu, topishmoqlarimizdan tortib, umuman, bugungi kunda biz ega bo’lgan beqiyos ma’naviy xazina –folklor merosimizga nisbatan ham bemalol aytish mumkin. Og’zaki ijodni to’plash, nashr etish, ilmiy o’rganish, uning asl ahamiyatini xalqqa tushuntirish – folklorshunoslik fani ham folklorning o’zi kabi zarur va qimmatlidir. Afsuski, nazarimda, bugungi kunda o’zbek folklorshunosligi fani unga asos solgan Hodi Zarif, katta va o’rta avlod yaratgan, yaratayotgan ilm zahirolari, to’plagan tajribalariga tayanib qolganga o’xshaydi. Men xato qilarman balki, menga ba’zi fanga kirib kelayotgan yoshlar o’rtasida fan rivojidan ko’ra, ilmiy daraja uchun kurash o’sib borayotganga o’xshab tuyuladi.

XX asrning 70 – yillarigacha, ilmiy-ijodiy kuchlar-ning etishmasligi, mavjud siyosat tufayli erishilgan katta yutuqlar bilan birga, bu ma’naviy merosning juda katta qismi yo’qolib ketdi. Odamlar cho’chitilib, ayrim xalq baxshilari ta’qibga ham uchradi. Ayrim mavzular umuman taqiqlandi yoki qora buyoqlar bilan chaplandi. Misol sifatida, o’zbek folkloridagi diniy mavzularga munosa-batni ko’rsatish mumkin.

Dinga munosabat o’zbek folklori tarixi va taqdiriga taalluqli muhim jihatlardan biridir. Xalq hech qachon mutaassib bo’lmagani kabi, e’tiqodsiz ham yashamagan. Jahon xalqlari, jumladan, o’zbek folklori ham ilk asosiga ko’ra diniy edi. Odamizot osmon, olam, o’simliklar va jonivorlar, o’zi qanday paydo bo’lgan? –degan savollarga dastlab miflar bilan javob bergan edi. Qanday yashash kerak degan, savolga esa homiy va yovuz ruhlarga ishonch, ularga bag’ishlangan turli-urf odatlar, marosimlar, dinning arxaik shakllari bo’lgan: animizm, totemizm, shomonlik, magiya, hosildorlik va boshqa ko’plab kultlarga e’tiqodi, qolaversa, maqolu topishmoqlar, mehnat, marosim qo’shiqlari va boshqalar bilan javob topdiki, ular bizgacha etib kelgan folklor asarlarida mukammal badiiy ifodasini topgan. Qizig’i shundaki, jahonga mashhur etnograf – dinshunoslar E.B.Taylor, J.J.Frezer, S.A.Tokarev va ko’plab folklor-shunslarning tadqiqotlari, garchi har biri biror urug’-qabila, urug’lar birlashmasiga tegishli bo’lsa ham, arxaik dinlar jahonning barcha xalqlari tarixida bo’lgani, ayrimlari taraqqiyotning kuyi bosqichida turgan ba’zi xalqlar hayotida hozir ham mavjudligini ko’rsatadi. Uchta jahon dinlaridan biri bo’lgan islom ta’limoti inson qanday yaralgan, qanday yashashi kerak, qayoqqa boradi, degan savollarga imon etiqodi tushunchasi bilan mukammal tizimiy javob berdi. Ko’pxudolik bo’ladimi, yaxxudolik bo’ladimi barcha dinlar uchun bir umumiylik bor – bu jon, ruh va uning butunlay yo’qolib ketmasligi g’oyasidir. Bu g’oya jahon folklorida qizil chiziq bo’lib o’tadi. O’zbek folklori tarixi va taqdirining ahamiyati shundaki, uning namunalarida yuqorida aytilgan barcha arxaik dinlar va islomiy qarashlar doimo o’z ifodasini topib kelgan. Folklor tarixan noestetik qarashlarning estetik hodisalarga, jumladan, diniy tassavurlarning badiiy tassavurlarga o’tishi maydoni bo’lgan.

“Din, shu jumladan islom dini ham, - deydi Prezidentimiz Islom Karimov, - ming yillar davomida barqaror mavjud bo‘lib kelganligining o‘ziyoq, u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o‘ziga xos bo‘lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi”.¹ Tarixan folklorning dinlarga, diniy qarashlarning folklorga ta’siri shubhasizdir. Jumladan, arab va o‘zbek folklori qiyosining ilk tadqiqotchilaridan biri SH. Shomusarov shunday deb yozadi: “O‘z davri folklorini juda yaxshi bilgan Muhammad alayhissalom o‘z diniy, ma’rifiy, axloqiy, estetik qarashlarini targ‘ib qilishda ham arab xalq og‘zaki ijodining afsona, rivoyat, maqol va hikmatli so‘z kabi janrlardan samarali foydalangan”².

Shu o‘rinda o‘zbek folklori asrlar bo‘yi diniy vazifa ham bajarib kelgan, desak mubolag‘a bo‘lmas. Masalaning muhim bir jihati shundaki, arxivlarda juda boy namunalar mavjud bo‘la turib, o‘zbek folklorining diniy mavzulari umuman ilmiy xolis o‘rganilgan, diniy namunalari nashr etilgan emas.

Folklor taqdiriga nazar tashlar ekanmiz, qiziq bir qutbiy ziddiyatni ko‘ramiz. Bir tomondan epik jarayon, ko‘pgina, folklor janrlari, ayniqsa, doston, ertak, afsona, rivoyat, marosim folklori namunalari yaratilishi, ijro etilishi tugab, yo‘qolib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uni o‘rganuvchi fan - folklorshunoslik rivojiga zaruriyat tobora o‘sib bormoqda. Tadqiqotlarda etnofolkloristik yo‘nalish rivojlanib, jahon fanining eng zamonaviy yutug‘i – ruhiy tahlil metodi o‘zbek folkloriga samarali tadbiiq etila boshlandi.

Ayrim kishilar folklorshunoslikka adabiyotshunoslikning eng engil sohasi deb qaraydilar. Buning sababi, birinchidan, folklor tabiatini tushunmaslik bo‘lsa, ikkinchidan, folklorshunoslik sohasidagi bo‘sh ishlardir. Ulardan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Holbuki, Hodi Zarif folklorshunos tarix, etnografiya, pedagogika, arxeologiya, tilshunoslik, xususan, shevashunoslik, yozma adabiyot va boshqalarni mukammal bilishi zarur, deb bilgan va o‘zi bunga namuna ko‘rsatgan.

Folklor va yozma adabiyot masalasida, ularning o‘zaro aloqasi haqida qator jiddiy ishlar mavjudligini inkor etmagan holda shuni aytish mumkinki, nazarimda, bugun yozma adabiyot mutaxassislarining ko‘pchiligi folklori, folklor mutaxassislari yozma adabiyotni yaxshi bilmagandek tuyuladi.

Folklor bilan adabiyotni har qancha qiyoslash mumkin, ammo aslo ularni bir-biriga qarshi qo‘yib bo‘lmaydi. Bu ota-onani farzandlariga gij-gijlashday gap. Afsuski, hayotda turli saviyadagi kishilar o‘rtasida yozma adabiyot yuksak, folklor sodda, u boy, bu qashshoq, u haqiqat bu yolg‘on, u donu bu somon qabilidagi qarashlar mavjud. Achinarlisi shundaki, bunday qarashlar folklorning kelgusi taqdiriga, masalan, asarlarning nashr etilishi, o‘rganilishi, targ‘ib qilinishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yozma adabiyot paydo bo‘lgandan buyon hozirgacha folklor, shoirlar, yozuvchilar, dramaturglar ijodiga ta’sir qilib kelmoqda. Hozirda uning kino, rassomchilik, qo‘shiqchilik va boshqa sa’natlarga ta’siri yanada kuchaygan. Xususan, ko‘pgina xonandalar xalq qo‘shiqlarini aynan, ba’zan o‘zgartirib, afsuski

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1977. – Б.35.

² Шомусаров Ш. Араб ва ўзбек фольклори тарихий- қиёсий таҳлили. ДДА. – Т.: 1997. – Б. 12.

ba'zan buzib, juda ko'p kuylamoqdalar. An'anaviy tarixiy – folkloriy jarayonda, ta'bir joiz bo'lsa, erkaklarning o'z, xotin-qizlarning o'z folklor muhitlari bo'lgan. Ko'plab talantli xotin-qizlar mohir qo'shiqchi sifatida tanilganlar. O'zlari ham xalq qo'shiqlari yo'lida yangi namunalar ijod qilganlar va bu ijod ham barchaning mulkiga aylanib ketgan. Xorazm xalfalarining ijodi buning yorqin namunasi. Biz bunday xotin-qizlarning deyarlik barchasining ism-shariflarini bilmaymiz. Bugungi kunda bunday xotin-qizlar tezda professional yo'lga o'tib ketmoqdalar. To'g'ri va ko'chma ma'noda «yulduzlar»ning ko'payib ketishi sabablaridan biri ana shunda. Xuddi shuningdek, hozirgi professional qiziqchilar repertuarida an'anaviy latifalar yoki ularning zamonaga moslab talqin qilinishi juda keng tarqalgan.

Hozirda ko'pgina kishilar kelajakni axborot jamiyati bo'ladi, uning asosi bo'lgan axborot madaniyatining tarkibiy qismlaridan birini ommaviy kompyuter savodxonligi tashkil qiladi, deb hisoblamogdalar. Hozircha, ularni ta'riflashga shoshmay turib shuni aytish mumkinki, o'tmishda xalqning o'ziga xos barqaror folklor madaniyati va folklor savodxonligi bo'lgan. Ijrochi biror doston yoki qo'shiq, ertak va h.z. buzib aytsa, tinlovchilar unga tanbeh berishgan. Shu jihatdan qaralganda zamonaviy folklor madaniyati, savodxonligini shakllantirishni uning taqdiridagi eng muhim shartdir, deb o'ylayman. Ana shunda folklor asarlarini istalgancha buzib aytish va nashr qilishni folklor madaniyatsizligi deb baholash mumkin bo'ladi. Folklor asarlari, ular asosida yaratilgan turli sa'nat namunalarining elektron kataloglarga kiritilishi va shu asosda o'rganilishi folkloriy jarayoning zamonaviy o'ziga xos ko'rinishlaridan bo'lib qolishiga ishonaman.

Folklor, barcha sa'natlar ahamiyatini bozor iqtisodi qonunlari bilan o'lchab bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotga qaram bo'lgan odam moliyaviy foydasi tegsa, ularning mazmuni va ma'naviy ahamiyatini tirnoqcha bilmay, «Alpomish» dostoni yoki ertaklar, maqollar to'plamini minglab nusxada nashr ettirishi mumkin. Ammo nafi tegmasa, eng nodir qo'lyozmani ham ikkilanmay, nosfurushtga berib ketadi. Menimcha, bu folklor madaniyatsizligining misoli bo'ladi. Folklorshunoslarimiz e'tirof etishlaricha, o'tmishda professional xalq ijodchilari, Fozil, Ergash, Islom, Po'ltan shoir kabi buyuklari ham, o'z sa'natlarini tirikchilik manbai deb qaramaganlar. Xizmatlari uchun odamlar o'z himmatiga qarab, nimalardir sovg'a qilishsa, olishganu ammo aslo moddiy ta'ma qilishmagan. Ularning xudo bergan iqtidorlaridan tashqari, yashashlari uchun albatta, cho'ponlik yoki dehqonlik, hunarmandchilik kabi kasblari bo'lgan. Xalqqa xolis ximat qilish baxshilar axloqiy – estetik qarashlarining bosh mezonlaridan hisoblangan. Shu o'rinda bir xalq rivoyatini keltirish o'rinlidir:

«Bir och, yalang'och bechora xudoga yolvoribdi: Ey xudo, qani edi, ushlagan narsam tilla bo'lib qolsa-yu, men ham boylarday yashasam. Qarangki, u ushlagan hamma narsa tilla bo'lib qolaveribdi-yu, bechora tillaga botib, ochdan o'lib ketibdi».

Qissadan hissa shuki, biz hamma narsadan, folklordan ham moddiy boylik axtaraversak, ma'naviy ochlikdan o'lib ketish hech gapmas.

Folkloriy jarayon u yoki bu darajada bundan keyin ham mavjud, folklor asarlari zamonaviy shakllarda voqe bo'laveradi. Gap egasini topadi deyдилar. Ayrim kishilar, jumladan ba'zi olimlarimiz, arxiv hujjatlarini **o'lik material**, og'zaki ijro

jarayoni soʻnishi tufayli nashr etilgan kitoblar qanchalik ahamiyatli boʻlmasin, asarlarning jozibasini bera olmaydi deb, ularning soʻz saʼnati sifatidagi badiiy-estetik, maʼrifiy-tarbiyaviy ahamiyatini unutadilar. Bunday fikrlar folklor kelajagi, tashviqi uchun oz boʻlsa ham salbiy taʼsir koʻrsatadi. Holbuki, taniqli folklorshunos B.N. Putilov yozib olingan folklor materiallarini «ikkilamchi matnlar deb» ularning ahamiyatini juda yuksak baholaydi. Aslida arxiv hujjatlari imkoniyatda mavjud material boʻlib, ogʻzaki ijro anʼanaviy folklor poetikasining voqe boʻlish usuli, yashash shaklining, tarkibiy qismidir, hammasi emas. Folklorning anʼanaviy voqe boʻlishining soʻnishi, uning kuni bitdi degani emas. Qolaversa, hayotining keyingi yillarida doston kuylamay qoʻygan, savodxon Ergash Jumanbulbul oʻgʻli oʻz repertuaridagi juda koʻp asarlarni oʻzi yozib, arxivga topshirgan. Folklorshunoslar oʻz tadqiqotlarida ogʻzaki jarayonni kuzatish bilan birga, asosan, yozma matnlarga tayanib kelishgan. Folklorshunosligimiz jahon miqyosida katta yutuqlarga erishgan. Shu bilan birga bu fan natijalarini mustaqillik gʻoyasi nuqtai nazaridan yana bir bor jiddiy, ilmiy xolisona koʻrib chiqilsa, yomon boʻlmas edi.

Folklor tarixiy– ijtimoiy, etnografik-maishiy, badiiy-estetik hodisa. Jamiyatning insonlar ongi, ixtiyoriga bogʻliq boʻlmagan qonunlari boʻlganidek, folklor taqdiri ham tabiiy kechadi. Biz faqat unga maʼlum darajada ijobiy yoki salbiy taʼsir koʻrsatishimiz mumkin.

Jahon folklorshunosligida evrilish motivi tushunchasi juda keng tarqalgan. Masalan, ertaklarda, Goʻroʻgʻli dostonlarida bir toʻp kaptar uchib kelib, bir dumalab parilarga, yoki ilon yigitga aylanib qoladiki, buni evrilish deymiz. Bunday evrilishlarda tub mohiyat oʻzgarmaydi, faqat shakl oʻzgardi. Bizningcha, ijtimoiy taraqqiyot tufayli koʻpgina folklor asarlarining anʼanaviy ijod va ijrochiligi soʻnishi, yangicha shakllarda mavjud boʻlishini evrilishlarga qiyoslash mumkin. Boshqacha aytganda, folklor asarlari matnlarda ham anʼanaviy mazmuni, ahamiyatini saqlab qoladi.

Folklor asarlarining turlicha shakllarda yashash sababalari, kishilarni jalb etuvchi jihatlari koʻp. Shulardan biri hozirgi zamon kishilari koʻpchiligining tafakkurida eng qadimiy mifologik qarashlardan tortib, eng zamonaviy tushunchalargacha uygʻunlashib ketgani, ular tafakkurining koʻp qatlamlilik mavjudligidir. Shu tufayli eng zamonaviy samolyotda qitʼadan qitʼaga uchmoqchi boʻlgan kishi yoʻlini qora mushuk kesib oʻtgani uchun safarini kechiktirsa ajab emas. Inson tafakkurining koʻppatlamligi esa umumfolklorida, yaʼni janrlari majmuasida allaqachon oʻz badiiy ifodasini topgan. Qizigʻi shundaki, bunday koʻppatlamlilik fan va texnika naqadar rivojlangan hozirgi davrda jahon adabiyoti namunalari, fantastik asarlar, kino saʼnati, turli telekoʻrsatuvlarda tobora koʻproq oʻz ifodasini topmoqda.

Folklor asarlarining tarixini anʼanaviylik, kelajagini zamonaviy yashash shakllari belgilab beradi. Bizningcha, folklor asarlari bugungi kunda, asosan, quyidagi shakllarda yashamoqda va odamlarga xizmat qilmoqda:

1. Klassik folkloriy koʻrinishda: Janubiy Oʻzbekistonda dostonchilik, Xorazmda dostonlar va ulardan parchalar ijro etish, xalfachilik maʼlum darajada, Fargʻona vodiysida askiyachilik, ommaviy tarzda latifachilik, qoʻshiqchilik biroz

bo'lsa-da, davom etmoqda. Yangi dostonlar yoki zamonaviy folklor namunalari tushunchalariga kelsak, ular ham an'ana zamirida paydo bo'lib, folklorning zamon talablari, ba'zan sho'ro tuzumi tazyiqiga yoki ijodkor individulligiga ko'ra o'zgarishlarini, ko'proq an'anadan chekinishlarni, buzilishlarni ifodalaydi. «Yangi dostonlar» yoki «avtorli dostonlar», «sovet davri» qo'shiqlari» deb yuri-tilayotgan asarlar ularga misol bo'la oladi.

Bizningcha, bizning irodamizga bog'liq emas ekan, epik asarlar, umuman, ko'pgina folklor asarlarining og'zaki jarayonda ijodchiligi va ijrochiligi so'nib borishidan behuda tashvishlanish, bu jarayonni salbiy baholash shart emas. Yaxshisi ularning mavjudlarini imkon qadar to'liq yozib olishga, yozib olinganlarining eng yaxshi namunalari saralab, xalq ma'naviy ehtiyojlariga xizmat qildirishga qayg'urgan, barchasini mutaxassislar ixtiyoriga berib, ahamiyatini tushuntirib berishlarini so'ragan ma'qul.

Kishilar nutqlarida maqollardan, bolalar maqol va topishmoqlardan faol foydalanishmoqda va h.z. Jahon folklorshunoslari, etnograflarining e'tirof etishicha, topishmoq va maqollar folklorning eng qadimiy va eng zamonaviy janrlaridan bo'lib, insoniyat tafakkuri va faoliyati tarixida beqiyos rol o'ynagan ekan. Chunki, ibtidoiy odam uchun hamma narsa dastlab jumboq, topishmoq bo'lsa, bolalarning har kuni o'ziga xos hayot jumboqlarini echish kashfiyotlaridan iboratdir. Til, falsafa, so'z sa'naining hosilasi bo'lgan maqollar esa kishilar dunyoqarashi, o'tmish tajribalarining ifodasi bo'libgina qolmay, buguni va kelajakdagi hayoti uchun o'ziga xos qomusiy dastur hamdir.

2. Arxiv materiallari sifatida.

3. Turli xalq ijodchilarining ko'rik –tanlovlari shaklida, ommaviy bayramlar va tomoshalar, bolalar ko'rsatuvlari, telemusobaqalari tarkibida.

4. Folklor – etnografik, jumladan, dostonchilik jamoalari repertuarida.

5. Kitoblar shaklida, elektron versiyalar, o'quv qo'llanmalari, darsliklarda - «O'zbek xalq ijodi» turkumidan nashr etilgan ko'p tomlik, turli xarakterdagi folklor matnlari to'plamlari, maktabgacha tarbiya, maktab, kollej, litseylar, oliy o'quv yurtlari xrestomatiyalari, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasining kompyuterlashtirish sohasidagi bugungi faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yozuv va kitob ajdodlarni avlodlar bilan bog'lab turadigan insoniyatning eng buyuk beqiyos kashfiyotlaridandir. Har qancha zamonaviy bo'lmasin, kino sa'natining, o'ziga xos afzalliklari bilan bir qatorda, kitoblardan, aniqrog'i, so'z sa'natidan ancha ojizligi bor. U inson xayoloti, ijodiy tafakkuri o'sishini o'z qolipiga solib, cheklab, qo'yadi. Bunga Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» asari asosida olingan kinoni ko'rgach, kinodagi qahramonlar bilan kitobdagi qahramonlar haqidagi tassavurlarim o'rtasida katta farq paydo bo'lganida o'zim ishonganman. Folklor asarlarining yozma, kitoblar shaklida tarqalishi ham juda yangilik emas. Masalan, XIX asrdayoq Xorazmda ko'pgina dostonlar og'zaki jarayondan ko'lyozmalarga, ulardan yana og'zaki jarayonga o'tgan. Ularning «xalq kitoblari» deb nom olgan litografik nashrlari keng tarqalgan. Nashr etilgan asarlardan(dostonlar, qo'shiqlar, ertaklar, latifalar va boshqalar) o'rganib, ijro qilish tajribasi XX asrda ham mavjud edi, hozir ham ma'lum darajada davom etmoqda.

6. Ommaviy axborot vositalari, gazeta jurnallarda. Folklor asarlari taqdirida ularni targ'ib va targ'ib qilish juda muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan ommaviy axborot vositalari, folklor asarlari namunalarini e'lon qilishdan tashqari, tengsiz ahamiyatga ega. O'zbek folklorini ommaviy axborot vositalarida targ'ib qilish tarixi va taqdiri maxsus tadqiqotlarga arziydi. Yubileylar munosabati bilan ommaviy axborot vositalarining etuk xalq ijodkorlari haqidagi targ'ibot ishlari hurmat va e'tiborga loyiq. Ammo ba'zan bu borada ham mavsumiylik etakchi bo'lib qoladi. Masalan, daho baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lining 100-yilligi nishonlanganda «ergashunoslar» juda ko'payib ketdi. Bundan folklor tashviqotchilari ham, mutaxassis bo'lmasa ham, folklor tabiatini yaxshi bilishlari kerak, «Chumchuq so'ysa ham qassob so'ysin, Bir og'iz bo'lsa ham bilgan gapirsin », - degan xulosa chiqadi.

7. Multfilmlar, kino ssenariylari, teatrlash-tirilgan tomoshalar shaklida.

8. Ilmiy-tadqiqot ishlarida faktik manba sifatida.

9. Yozma adabiyot vakillari ijodiga ta'sir, ya'ni folklorizmlar sifatida.

O'quvchilar o'z bilim, tajribalaridan kelib chiqib, bu tasnifni yanada mukammalishtirishlari, tuzatishlari mumkin. Ammo bir narsa aniqki, folklor asarlari, qanday shakllarda voqe bo'lmasin, o'zlarining tarixiy, badiiy-estetik, ilmiy-ma'rifiy, tarbiyaviy –ma'naviy va h.z. – ularning barchasini umumlashtirgan milliy –ma'naviy ahamiyatini saqlab qoladi. Qadimgi Yunon va Rim adabiyoti hozirgacha butun jahon xalqini qanchalik hayratga solib kelayotgan, sa'natning barcha turlariga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa, kelgusi avlodlar uchun shunchalik qimmatli bo'ladi.

Til haqida dune xalqlari, mutaffakirlari, yozuvchi=yu, olimlari, donolarning millionlab maqollari, hikmatli so'zlari mavjud. Har bir xalq, millat tilining millat tarixi, buguni, kelajagidagi hayotiy ahamiyatini ta'riflab tugatish qiyin. Folklor asarlarining o'ziga xos badiiy tilidan tashqari sheva tili ham bor. Folklor asari qaysi shevada ijro etilayotgan bo'lsa, aynan yozib olish folklorshunoslik amaliyotining asosiy qoidasidir. Yozib olingan folklor asarlarida shunday sheva so'zlari borki, ularning ko'pchiligi jonli shevalarda ham unutilib ketgan yoki ma'nolari butunlay o'zgargan. Albatta, adabiy tilni shevalashtirish joiz va mumkin emas. Biroq shevalardagi ko'pgina so'zlarni adabiy tilga kiritish uni yanada boyitadi. Demoqchimizki, folklor asarlari tilimiz tarixi, shevalarini o'rganish, so'z boyligini oshirishda bundan keyin ham muhim manba bo'lib qoladi.

Demak, folklorning kelajagidagi yana bir muhim jihat til masalasidir. Hech kimga sir emas, yuksak va boy badiiy tili tufayli bugungi kunda Hazrat Navoiy ijodinining asosiy qismini mutaxassislardan tashqari ko'pchilik lug'atlarsiz tushunmaydi. O'zbek folklorining asosiy qismi shevalarda yozib olingan. Ko'pgina namunalari ommaviy nashrlarida ham asar badiiyatiga putur etmasligi uchun sheva xususiyatlari saqlanib qolgan. Qolaversa, qahramonlarning ko'pi mifjkjubrik, epik, fantastik xususiyatlar, nomlanishlarga ega. Bular barchasi o'kuvchi uchun katta qiyinchiliklar tug'diradi. Shu bois Hodi Zarif ilmiy-ijodiy faoliyatining boshidanoq folklor asarlari lug'atini yaratishga alohida e'tibor bergan va o'nlab kartochkalar tuzgan edi. Ammo bu sohaga endigina kirishilmoqda. Misol sifatida “Alpomish”

dostonining izohli lug‘ati’ni ko‘rsatish mumkin. O‘zbek folklori va folklorshunosligining so‘zli va izohli lug‘atlarini tuzish murakkab va sharaflil ishlardandir.

Folklor janrlar taqdiri turlicha kechgan va kechmoqda.

Marosim folklori etnofolkloriy jarayon mahsulidir. Shu bilan birga bugungi kunda bevosita marosim bilan bog‘liq bo‘lmagan janr namunalari tarkibida ham shunchalar ko‘p urf-odatlar, etnografik detallar qayd etiladiki, o‘zbek folklorshunosligida etnofolkloristik yo‘nalishning rivojlanib borayotgani bejiz emas.. Ko‘pgina urf-odat marosimlar yoki ular tarkibidagi so‘z sa‘nati namunalari unutilib, yoki marosimdan uzilib, etnofolkloriy jarayon so‘nib bormoqda. Masalan, hozir nikoh to‘ylarida an‘anaviy urf-odatlar chala yoki umuman bajarilmaydi. Yor-yorlar deyarlik aytilmaydi. Biroq yozib olingan, nashr etilgan yor-yor matnlariga qarab, nikoh to‘ylaridagi barcha urf-odatlar, marosimlar mazmunini tiklash mumkin.

Folklor va etnografiya tarixan Siam egizaklari kabidir. Biz har bir janrning o‘ziga xos urf-odatlarini bo‘lgan deyishimiz mumkin. Shu bois folklorshunoslikda umumfolklor etnografiyasi va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan dostonchilik, qo‘shiqchilik, bolalar folklori etnografiyasi va h.z. atamalarni qo‘llasak xato bo‘lmas. Masalan, dostonchilikda ustozning shogirdga fotiha berishi, doston, odatda, kechalari aytilishi va u aytilayotgan joyga bolalar, ayollarning kiritilmasligi, doston voqealari ayni avjga chiqqanda, do‘mbira to‘nkarilib, ro‘mol yozilishi, do‘mbira bilan bog‘liq ko‘plab irimlar dostonchilik etnografiyasi elementlari, yor-yorlarning:

Avval boshdan xudoni yod etaylik, yor-yor,

Payg‘ambarlar ruhini shod etaylik, yor-yor...

O‘lanlarning:

O‘lan degan qo‘shiqni qizmi yo ul boshlaymi,

Qiz boshlagan o‘lanni el xushlaymi...

misralari bilan boshlanishi qo‘shiqchilik urflari bo‘lsa, bolalar o‘yinlarining qa‘tiy-tartibga rioya qilinishi, uni buzish g‘irom hisoblangani asrlar bo‘yi bolalar folklorining odati bo‘lib kelgan. Shu jihatdan olganda, bizda hali folklor etnografiyasi ham maxsus, deyarli o‘rganil-magan sohadir.

Epik jarayon, ko‘pgina folklor namunalari yaratilishi folkloriy, etnofolkloriy jarayonda so‘nib bormoqda. Buning sababalari juda ko‘p, ammo qisqa qilib, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar deyish mumkin. Shu bilan birga hozir ham hayotda har kuni latifalar yaratilmoqda, kattalar nutqlarida, bolalar zakovat o‘yinlarida maqol va topishmoqlarni aytishmoqda, xonandalar xalk qo‘shiqlarini kuylashmoqda. Umuman olganda, klassik ko‘rinishda bo‘lmas ham folkloriy jarayon so‘nmaydi.

Bizda so‘z folklori, musiqa folklori, xalq dramasi, xalq amaliy sa‘natini bir-biriga bog‘lab o‘rganishda hozirgacha katta uzilish bor. Boshqacha aytganda, har biri o‘z yo‘liga. Holbuki tarixiy – folkloriy jarayonda ularning barchasi bir-birisiz mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lmagan, «qarindoshlik rishtalari» bilan bog‘langan yaxlit tizim edi. Kelgusida bu uzilishni bartaraf qilish umumfolklor-shunoslikning

ulkan yutug‘i, pirovardida folklor taqdirining ham yorqin tomonlaridan biri bo‘lishi mumkin.

O‘zbek folklori, ming-minglab ijodkorlari, o‘nlab mutaxassislari va yuzlab muxlislari xizmatining ma‘naviy, milliy, umuminsoniy qadriyatini, kelgusida bajarilishi mumkin va zarur bo‘lgan ishlar rejasini bir maqola doirasida mukammal yoritishning imkoni yo‘q. Buning uchun, avvalo, folklor janrlarining nisbatan mukammal tasnifini tuzib, so‘ngra, har bir janr tarixi va taqdiri haqida maxsus tadqiqotlar olib borish zarur. Bu bir kishining qo‘lidan keladigan ish emas. Masalan, mo‘jazzgina topishmoq janri tarixi ibtidoiy, miflar yaratila boshlagan, tabular rivojlangan davrga borib taqaladi.

Ushbu maqola munozarali xarakterda bo‘lib, to‘la tasdiq, aql o‘rgatish da‘vo qilmaydi. U o‘zbek xalq og‘zaki ijodi bilan qiziquvchi har bir kishini, folklor taqdiri haqida biroz bo‘lsa ham o‘ylashga, o‘z mulohazalarini o‘rtoqlashishga undar degan niyatda yozildi.

Ma‘naviyatsiz xalqning kelajagi yo‘q, -deydi Prezidentimiz. Xalqning o‘tmishi ham ma‘naviyatsiz bo‘lmagan. Buning eng ishonchli guvohlaridan biri folk-lordir. Odam va odamizot taqdirini Olloh belgilaganiga ishongan bir musulmon sifatida Yurtboshimiz aytgan hikmatni inson va insoniyat, barcha xalqlar kelajagiga taalluqli desak, xato bo‘lmas. O‘zbek folklori esa bugungi mavjudlik shakllarida ham bevosita ma‘naviyatga taalluqli, kelgusida ham shunday bo‘lib qoladigan qadriyatdir.

Folklor namunalarini to‘plash eng avvola unga puxta tayyorgarlik ko‘rish, tashkil etilayotgan ekspeditsiyaning rejasini to‘g‘ri tashkil etishdan boshlanadi. Folklor namunalarini to‘plashga, yozib olishga chiqayotgan kishi birinchi galda nazariy ma‘lumotga ega bo‘lishi, folklorga xos bo‘lgan xususiyatlardan xabardor bo‘lishi talab etiladi.

Folklor ekspeditsiyalarini tashkil etish yo‘l-yo‘riqlari va metodikasi, folklor namunalrini yozib olish prinsiplari atroflicha yoritib beriladi.

Folklor ekspeditsiyasidan yozib olingan materiallar qat‘iy prinsiplar asosida tasnif etilada va nashrga tayyorlanadi. Bu prinsiplar ilk bor o‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov tomonidan ishlab chiqildi. Keyinchalik esa folklorshunos olim, akademik To‘ra Mirzaev tomonidan qayta ishlab chiqildi. Folklor asarlarini nashrga tayyorlash prinsiplari quyidagilardan iborat:

O‘zbek xalq ijodi» ko‘p tomligiga kiradigan asarlirni aniqlash va nashrga tayyorlshn «O‘zbek xalq ijodi» ko‘p tomligini nashr etish prospekt» asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun avvalo prospektni puxta o‘rganib chiqish zarur.

Prospektda ko‘rastilgan talablarga javob beradigan har bir asar kuylovchi va aytuvchidan yozib olingan dastlabki qo‘lyozma asosida nashrga tayyorlanadi. Qo‘lyozmaning qo‘lda yo mashinkada ko‘chirilgan yoki to‘liq nashr etilgan nusxalari mavjud bo‘lgan taqdirda ham, dastlabki qo‘lyozma bo‘lmog‘i shart. Chunki ko‘chirish proessida ayrim so‘zlar va iboralarni noto‘g‘ri o‘qish, xato yozish, tushirib qoldirish hodisalari ko‘p uchraydi. Bunday hodisa va faktlarning miqdori u yoki bu asarning nashrida ham yana ham ko‘proqdir. Dastlabki qo‘lyozma umuman mavjud bo‘lmagan ayrim hollardagina, u asar qo‘lyozmasining kopiyasi yoki original asosidagi nashr asosga olinadi.

Asosiy nusxa, ya'ni yoki bu folklor asari qaysi grafika va qanday imlodan yozib olingan bo'lmasin, u asar hozirgi o'zbek grafikasida va hozirgi joriy orfografiya qoidalariga rioya qilingan holda nashrga tayyorlanadi.

Ma'lumki, folklor asarlari bizgacha bir necha versiya na variantlarda etib kelgan. Bir necha versiya variantlarda yozib olingan asarlar mavjud bo'lgan hollarda, ularni qiyosiy o'rganib, prospekt talablariga javob beradigan yaxshisi yoki yaxshilari tanlab olinadi. Dostonlardan, umuman bir-ikki versiya, ayrim hollardagina bir necha versiya, ertaklar, latifalar, xalq dramasi, askiya, qo'shiq, maqol va topishmoqlardan ikki-uch va undan ko'p versiya olinishi mumkin.

Asarlarning versiyalar ichidagi mavjud variantlari ham qiyosiy o'rganilib, ular orasidan eng yaxshisi tanlab olinadi. Doston va ertaklardan asosan bir variant, boshqa janrlardagi asarlardan ayrim hollarda ahamiyatiga ko'ra ikki variant olish mumkin. Faqat maqol, topishmoq, to'rtlik, qo'shiq, tez aytish kabi mayda janrlardagi asarlardan zarur topilgan taqdiridagina uch-to'rt variant olish mumkin.

Ko'p tomlikka kiradigan har bir asar to'liq ravishda olinadi. Chala yozib olingan tekst yoki biror asarning ayrim parchalari umuman ko'p tomlikka kiritilmaydi. Faqat u yoki bu folklor asari o'z vaqtida qisman (parcha) holda yoki mazmuni yozib olinagan bo'lib, uning to'liq nusxasi bo'lmasa, mavjud qismi tarixiy, ijtimoiy va badiiy jihatlaridan muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ayrim hollardagina ularni ko'p tomlikka kiritish kerak bo'ladi.

Asar to'liq ravishda olingani bilan qo'lyozmaning teksti hammavaqt boshdan-oyoq to'liq olinmaydi. U yoki bu asar tekstidagi g'oyaviy va tarbiyaviy jihatdan mazkur asar ruhiga yod bo'lgan ayrim parchalar, bandlar, jumlar, iboralar, so'zlar tushirib qoldiriladi. Tushirib qoldirilganlarning o'rni ko'p nuqta bilan qayd etiladi, hajmi ko'rsatilmaydi.

Hozirgi kunda tarbiyaviy jihatdan zararli deb hisoblangan ayrim parchalar, jumla va satrlarni, hatto so'zlarni ham tahrir etib, "tuzatish" mumkin" emas. Chunki bu tur "tuzatish" faqat soxtalashtirish bo'ladi. Shuning uchun eng to'g'ri yo'l ularni tushirib qoldirishdir. Lekin bu tur qisqartirishlarni har jihatdan puxta o'ylab, ularga konkret yondoshish, ularning mazkur asarlardagi o'rnini to'g'ri belgilash, muayyan asarning yaratilgan davrini hisobga olib, uning g'oyaviy-badiiy saviyasiga zarar yetkazmaslik kerak.

Ishdan maqsad – Doston janri va uning o'ziga xos xususiyatlari. Doston janrining yozib olinish, Doston janrining nashrga tayyorlash prinsiplari yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday

qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

7. Individual o'qish-2 minut.

8. Muhokama qilish –3 minut.

9. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

10. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

11. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

12. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo'lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografak so'zlar, iboralar va tasvirlar salbiy jihatlari qanday?		
2. Asar ruhiga yopishmagan uznan-uzun diniy munajatlar, xudo, payg'ambar va avliyolarni ta'riflab sig'inishlar. Bunday diniy mazmuni ifodalovchi barcha so'z va iboralarni asardan		

<p>chiqarib tashlash kerak degan ma'no chimasligi kerak. Bu o'rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.</p>		
<p>3. Qaysi bir yo'sinda bo'lmasin, biror xalq va millatni yoki o'sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg'ularini nfodalagan so'zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to'g'rirog'i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g'azab va nafratini bayon etgan so'zlar, iboralar va ta'rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to'g'ri emasni?</p>		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
<p>Fol'klor asarlari uchun xarakterli bo'lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlarni tushuntirib bering.</p>		
<p>Asarning umumiy g'oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog'lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so'zlab bering.</p>		
<p>Asarga aloqasi bo'lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o'tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so'ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba'daz kalom» yoki «Po'lkani shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to'yda o'lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar</p>		

bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo‘lmaydi qanday farqlanishi mumkin?		
--	--	--

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

DOSTON — liro-epik janr, og‘zaki va yozma adabiyotidagi katta hajmga ega bo‘lgan epik asar. «Doston» so‘zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta‘rif va maqtoq ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og‘zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan birbirlaridan jiddiy farq qiladi. Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan dostonlar ko‘plab **variantlarga egaligi** (Misol uchun bugunga qadar «Alpomish» dostonining 50 yaqin, «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlarining yuzga yaqin variantlari yozib olingan), **jamoaviyligi, an’anaviyligi** bilan yozma adabiyot namunasi bo‘lgan dostonlardan ajralib turadi. NMM eng yuksak namunasi bo‘lgan dostonlar **og‘zaki o‘zlashtiriladi, og‘zaki ijro etiladi va og‘zaki tarzda meros qoldiriladi**. Doston ijrochisi – baxshini respublikamizda turli nomlar bilan atalashidi (q.**Baxshichilik**).

Dostonlarning tarixiy asoslari juda qadimiy bo‘lib, unda tarixiy voqelik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o‘z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Bunday umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo‘g‘rilgan. Demak, dostonga epiklik, monumentallik xos bo‘lib, kompozitsion va syujet qurilishi jihatidan murakkab voqea-hodisalarni qamrab oladi. Bunday voqea va hodisalar mazmunan qahramonlik xarakteriga ega bo‘lib, ular xalq idealidagi bahodir atrofiga birlashtiriladi. Favqulodda kuch-qudratga ega bo‘lgan bunday yakka shaxslarda butun bir xalqning orzu-umidlari, imkoniyat va intilishlari mujassamlashgan. Xalq dostonlarining tematik hamda janr xususiyatlari uning o‘ziga xos uslubi va formasini belgilaydi, ya’ni kuy va ijro bilan mahkam bog‘liq bo‘lgan yirik hajmli va keng ko‘lamli dostonlarning poetik bayoniga ko‘tarinkilik, tantanavorlik, an’anaviylik, she’riy va prozaik qismlarning davomiy almashinib kelishi xosdir.

Dostonlar keng qamrovligi va hajmining kattaligi, ko‘tarib chiqqan ijtimoiy, siyosiy, axloqiy muammolari, syujetining sertarmokligi va drammatizmining o‘tkirliigi, personajlarining ko‘pligi bilan ajraladi. Bunday asarlar markazida jamiyat va xalq taqdiri turadi, jamiyat, xalq va qahramon yaxlit, bir butunlikda tasvirlanadi, ular o‘rtasida ziddiyat bo‘lmaydi, balki shu xalq, shu qahramon bilan tashki dushmanlar o‘rtasidagi kurash, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi ziddiyat

tasvirlanadi. Ularda vatanparvarlik, qahramonlik, insonparvarlik, mehr-muxabbat, do‘stlik va sadoqat, mehnatsevarlik g‘oyalari ilgari suriladi.

Dostonlarda ideallashtirish, mubolag‘ali tasvir ustun bo‘ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, *dev*, *parilar*, *xizr*, *ajdar*, ajabtovur otlar («Alpomish»dagi Boychibor), sehr-jodu ko‘p ishtirok etadi.

Dostonlar o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra **qahramonlik** («Alpomish», «Go‘ro‘g‘li»), **jangnoma** («Yusuf bilan Ahmad»), **romanik** («Malika Ayyor», «Dalli», «Kuntug‘mush») **tarixiy** («Xurshidoy», «Shaynboniyxon»), **kitobiy** («Farhod va Shirin») kabi turlarga bo‘linib o‘rganilib kelingan bo‘lsada, bular orasida **qahramonlik va romanik** dostonlar o‘z badiiy xususiyati, epik ko‘lami, mazmun-mohiyati, og‘zaki ijodga qo‘yilgan mezonlar nuqtai nazaridan alohida ajralib turadi.

«**Qahramonlik**» termini o‘zbek folklorshunosligida ikki ma’noda — keng ma’noda, umuman o‘zbek eposiga nisbatan, tor ma’noda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi. Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holda «**Alpomish**» misolida etib kelgan. «Alpomish» dostonining ming yilligi 1999 yilda Respublikamizda xalqaro miqyosda keng nishonlandi.

Romanik dostonlarda ko‘tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g‘ayri tabiiy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi. Romanik dostonlarning tarkibi nihoyatda murakkab. Qahramonlik dostonlarida romanik elementlar bo‘lganidek, romanik dostonlardan qahramonlik elementlari, jangnomalarga xos xususiyatlar ham mustahkam o‘rin olgan.

Xalq dostonlarini kuylash an‘analari hozirgi davrga qadar yashab kelmoqda. O‘zbekistonning Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hamda Xorazm viloyatlarida yashab ijod etayotgan baxshilardan ko‘plab doston namunalari bugungi kunda ham yozib olinmoqda.

Ishdan maqsad – Folklorning o‘rganilish tarixi, Folklor asarlari to‘plash va yozib olish masalasi, Folklor asarlarining nashri masalasi yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi. (darslik, ma‘ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e‘lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o'qish-2 minut.

2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

4. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

5. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo'lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografik so'zlar, iboralar va tasvirlar Salbiy jihatlari qanday?		
2. Asar ruhiga yopishmagan uznanan-uzun diniy munajatlar, xudo, payg'ambar va avliyolarni ta'riflab sig'inishlar. Bunday diniy mazmuni ifodalovchi barcha so'z va iboralarni asardan chiqarib tashlash kerak		

degan ma'no chimasligi kerak. Bu o'rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.		
3. Qaysi bir yo'sinda bo'lmasin, biror xalq va millatni yoki o'sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg'ularini nfodalagan so'zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to'g'rirog'i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g'azab va nafratini bayon etgan so'zlar, iboralar va ta'rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to'g'ri emasnima?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Fol'klor asarlari uchun xarakterli bo'lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlarni tushuntirib bering.		
Asarning umumiy g'oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog'lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so'zlab bering.		
Asarga aloqasi bo'lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o'tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtda aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so'ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba'daz kalom» yoki «Po'lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to'yda o'lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo'lmaydi qanday farqlanishi mumkin?		

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruh-lar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Umuman xalq tilidagi har bir soʻz va tabir folklor asarlarida oʻzining munosib oʻrmini topgan. Bu boy leksika adabiy tnlimizni boyitish uchun asosiy manbalardan hisoblanganidek, oʻzbek tili tarixini. shevalarining taraqqiyot yoʻllarini oʻrganish uchun ham muhimdir. Folklor asarlarini nashrga tayyorlashda unipg lugʻat boyligini mutlaqo saqlash kerak.

Folklor asarlarinnig leksikasi umuman hozirgi shevalarda isteʼmolda boʻlgan lugʻatlar boʻlishi bilan birga, ular orasila arxaik boʻlganlari, maʼno- sini sheva vakillarining oʻzlari bilmaganlari ham uchrab turadi. Biror qadimiy soʻzning qadimiy manosida ishlatilgani holda uning hozirgi maʼnosi bir-biriga qarama-qarshi boʻlganlariga ham duch kelinadi. Bu kabi lugʻatlar koʻpincha uzoq tarixga ega boʻlgan traditsion formulalar, iboralar, maqol, to- pishmoq va qoʻshiqlarda uchraydi. Masalan, *qizil* sifat boʻlgani holda ayni zamonda bu soʻz *bugʻdoy*, demak, ot vazifasidadir.

Qizilingni qirday qil,

Comoningni togʻday qil.

Aka hozirgi maʼnosida ham uchraydi.

Bunday faktlarga eʼtibor bermasdan, ularni tekstda saqlamasdan, tushirib qoldirish yoki oʻzgartirish (maslan, qizilni bugʻdoy, akani opa soʻzlari bilan almashtirish) faqat zarar keltiradi.

Oʻzbek tili turki tillar oilasiga mansub boʻlgani uchun oʻzbek folklori leksikasining asosini ham turkiy tillarga xos leksika tashkil etadi. SH ubilan birga folklor tilida oʻzbek xalqining yuzaga kelishida qatnashgan va asli turkiy boʻlmagan etnik qatlamlar, masalan, shaklar, sugʻdlar, qadim xorazmiylarning tilariga xos leksika ham mavjud. Masalan: “Osang, ustigʻa posang” iborasidagi osang tosh maʼnosidadir. (“Avesto” tilida asan qadim hindida asan). Posang hozir posangi shaklida ishlatiladi, posan shakli qadimgi hind tilida ham bor. Demak, bu shakl ham eski. Maʼlumki ilgari ogʻirlik oʻlchovi uchun tosh ishlatilgan (botmon soʻzining ham birinchi komponenti bat – tosh, ikkinchi komponenti man – oʻlchov demak). Shuning uchun mazkur iborai “Olsang, ustiga posangi” deb tushunish xato boʻlgan. Charm soʻzi qadim xorazm va sugʻd tillarida shu shalda va shu maʼnoda ishlatilga. Dam shak va sugʻd tillarida shu shalda boʻlib, puflamoq maʼnosida. Piyova soʻzining birinchi komponenti piy (piy) shak tilida yogʻ demak. Oʻzbek qabila va urugʻlaridan bir nechasi qushlarning nomi bilan atalgan. shulardan charkas sugʻdcha boʻlib, kalxat maʼnosidadir.

Nashrga tayyorlashda har bir soʻziing maʼnosiga eʼtibor berish, uni toʻgʻri oʻqib, toʻgʻri tushunish shart va shunga ishlatish kerak. Notoʻgʻri oʻqish, mexanki koʻchirish xatoga, mantiqsizlikka sabab boʻladi, asarning tiliga, badiiyligiga katta putur etkazadi. Masalan, “Xushkeldi” dostonining nashrida shunday xato va nuqsonlarga yoʻl qoʻyilgan:

Egarining koshidan,
Tugʻining boshidan
Jazoyilning bir oʻqi,
Tegib yalab ketdi endi.

Toʻgʻrisi:
Egarining qoshidan,
Quvugʻining boshidan.

Har tolga yuk ortadi,
Arqonlarinan tortadi.
Toʻgʻrisi:
Partolga yuk ortadi.
Bol Avaz bola gaz boʻlib ketgan.
Soqi Gʻirotni yolgʻondan yomonlashi tasviridagi baʼsi soʻzlar ham xato oʻqilgan:

*Gʻiring qursin, Poʻpang-poʻpang etadi,
Yomonlasin jami tirik oʻtadi.*

Bundagi ikkinchi satrniig toʻgʻrisi: «Yomonlasin emi tirik oʻtadi». By erda soʻz otning ich kasali haqida boradi. Otchilik bilan bogʻliq bu holatga eʼtibor bermaslik natijasida jem (em) soʻzi jam shaklida oʻqilgan. Ayrim nashrlarda esa, bu ikki satr butunlay tushirib qoldirilgan.

«Shirin bilan Shakar» dostonining bir nashrida «Koʻrib qoldi ort-sirtidan Shakarbek misrasidagi ort soʻzi ot shaklida xato berilgan.

Etaklamoq feʼlining oʻzagi etaklaning eski formasi etjetdir. Bunga eʼtibor berilmaslik natijasida “Xushkeldp” doetonniing bir nashrida «Qizlar etib, pari mingan bedovsan» satridagi *etib* soʻzi *yitib* shaklida xato yozilgan. *Yitmok* — *yoʻqolmoq* maʼnosidadir.

Doridim soʻzi *oralamoq, hujum etmoq, tashlanmoq* maʼnolaridadir. «Xushkeldi dostonining birinchn nashrida «Bir qoʻshinga yakka-tanho doridim» satrlaridagi doridim soʻzi dor edim, – deb xato oʻqilgan.

Soʻzlarning maʼnosiga eʼtibor bermaslik, xato oʻqish va buzib koʻchirish misolini “Goʻroʻgʻlining tugʻilish” dostonida ham koʻrish mumkin. Baʼzi satrlarni keltiramiz:

Qavming yoʻq bu yurtida, qarindoshing yoʻq,
Dod etarga ichki yor, sirdoshing yoʻq.
Folklorda yorning ichki va tashqisi boʻlmaydi. Umuman ichki yor degan taʼbirning oʻzi yoʻq. Diqqat etilsa ichkuar soʻzi yanglish oʻqilgani va yanglish koʻchirilganini payqab olish qiyin emas.
Xushvaqt boʻlib ketgan ikki qarindosh,
Xafa boʻlib buzilib qaytdi uyiga.

Bu erda buzilib soʻzining hech oʻrni yoʻq. Bir soʻzi tushib qolgan, aslida koʻngli buzilib boʻlsa kerak deb oʻylash mumkin. Lekin ikki hijo ortib, vazn buziladi. Toʻgʻrisi:

Xafa boʻlib, boʻzlab qaytdi uyiga
Koʻlga borib shunqor soʻyib kelaman,
Akang boʻldi, qush goʻshiga xumori

Koʻrinib turibdiki, birinchi misradagi maʼni ikkinchi misradagi fikrga tamomila ziddir. Chunki shunqor bilan qush ovlanadi. Qush goʻshiga xumori boʻlgan odam koʻlga borib qush ovlashi kerak. Shunday ekan, nima uchun shunqorni koʻlga borib soʻyib kelishi kerak? Bu mantiqsizlik ham soʻzni toʻgʻri oʻqimaslik bilan birga, satrdagi maʼnoga eʼtibor bermaslik natijasidir. Toʻgʻrisi quyidagicha:

Koʻlga borib, shunqor chuyib kelaman,
Akang boʻldi qush goʻshiga xumori.

Chuymoq ov qushini ovlanadigan qush yoki hayvonga yoʻllamoq, qush solmoq maʼnosidadir.

Originaldagi soʻzni toʻgʻri oʻqiy olmaslik, taxminan oʻzicha bir hukmga kelib yoza berish juda katta xatolarga sabab boʻladi. Maslan, “Balogardon” dostonida makkor kampir Avazni halok etish uchun Avazning boshidan oʻtganlarini takrorlab, “Hamisha hamdaming boʻlgan momongman”, deb aldaganda, Avaz ham ayyorni aldash uchun: “Gupu avzoyingizdan bildim, otamning vakil enasi ekansiz... otam atayni siznikiga tayinlab yuborgan edi”, – deb javob beradi. Vakil soʻzi shevada ukul talaffuz etilgani uchun qoʻlyozmada okul yozilgan. Nashrga tayyorlanganda, maʼnosini bilmaslik natijasida taxminan oʻgay boʻlsa kerak, deb oʻgay ona tarzida yozilgan. Bu soʻz yana qatarilganda ham xuddi shunday yozilgan: “Kampir – Ha, balli, oʻgʻlim, otangning oʻsha aytgan oʻgay onasi biz boʻlamiz”. Buni oʻqigan kitobxonda Goʻroʻgʻlining otasi ikki marta uylangan ekan, degan fikr qoladi. Bu dostonlardagi tasvirlarga butunlay xilofdir.

Maʼlumki, har bir nashrda tushunilishi qiyin boʻlgan soʻzlarga lugʻat beriladi. Bunday lugʻatda bilar-bilmas, tavakkalchasi yoki soxta etimologiyasiga ishonib, xato va chalkash izohlar berishga yoʻl qoʻyilmasligi kerak. Masalan, nashrlarda berilgan lugʻatlarda quyidagi soʻzlar notoʻgʻri yoki etarli izohlanmaganligiga duch kelamiz:

Chavki – ot ustida toʻp qiyin. banot – qizlar.
Boʻla – qalliq, boʻlasi – qalligʻi.
Lochiq – chayla, qora uy, oʻtov maʼnolarida.
Qushnoch – doya xotin.
Endirmoq – iz tushirmoq.
Oʻrlashib yurmoq – oʻralashib yurmoq.
Unatdi – qoyil qildi, joyiga qoʻydi.

Bu izohlardagi xatolarni tekshirib koʻraylik. Chavki soʻzini dostonni nashrga tayyorlovchi surishtirmasdan, teshirmasdan. “Ot ustida toʻp oʻyini” deb izohlagan. Bu izoh chavgon oʻyini demak boʻladi. Holbuki, chavki bilan chavgon tamomila boshqa-boshqa manolarni ifodalaydi. Chavki koʻpchilik tomoshasi uchun qudrati etgan odamlar tomonidan keng maydonda tashkil etilgan katta bazm demakdir.

Mazkur xato izoh o‘zbekcha-ruscha lug‘atda ham qaytarilgan va chavgon so‘zi bila bir deb izohlangan. Natijada folklorist lug‘atchilarni ham chalg‘itib qo‘ygan, mutlaqo xato izoh lug‘atga kirib qolib, yanada keng tus olib, kitobxonlarni go‘yo ishonarli bir holga olib kelgan.

Banot so‘zi dostonida to‘nning qaysi materialdan ekanligini bildirish uchun ishlatilgan bo‘lib, movut ma‘nosidadir. Bu so‘zi kontekstdan ajratib olib, qiz ma‘nosidagi arabcha bintning ko‘pligi banotni eslab, qizlar deb izohlash yaramaydi.

Bo‘la qalliq emas, balki xolavachcha demak. Bu erdagi xato bo‘la so‘zining ma‘nosini bilib olishga intilmasdan, aqalli kontekstdagi fikrlarga ham diqqat etmasdan, tavakkalchasiga aytilgan mulohazadan kelib chiqqan. (Dostonida Avaxxonga qizini qo‘shib qo‘ymoqchi bo‘lgan shum kampir o‘zini xolangman deb tanitadif, qizini esa bo‘lang bo‘ladi deydi).

Lochiq – chayla ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. Ammo qora uy, o‘tov ma‘nolariga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi, xato “G‘orning og‘zida tikib qo‘ygan lochiq” jumlasidan taxminiy xulosa chiqarish natijasida yuz bergan.

Qushnoch doya emas, balki irim-chirim bilan kasal “boquvchi”i xotin, shamanka. Dostonida kimgadir doyalikni qushnoch qilgani aytilganiga qarab, bu termini doya xotin deb izohlash xatodir.

Endirmoq iz tushirmoq, balki tushirmoqning o‘zidir.

O‘rlashmoq o‘rlashib yurmoq emas, balki (o‘z bilganidan qolmay, birovning so‘ziga kirmay) o‘jarlik bilan tortishmoq. O‘zagi o‘jar.

Unatdi so‘zini qoyil qildi, joyiga qo‘ydi deb izohlanishi ham katta xato bo‘lib, tavakkalchasiga aytilgan. Buning sababi dostonning qo‘lyozmasida arabcha yozilgan ovnatdi so‘zini to‘g‘ri o‘qiy olmasdan, mexanik ravishda unatdi deb ko‘chirish, shundan keyin kontekstga qarab taxminiy ma‘no berishdan iboratdir. aslida esa, u so‘z ovnatdi o‘qiladi va ag‘natdi, yiqitdi demak.

Yuqoridagilardan aniqki, folklor asarlarining lug‘at boyligiga alohida diqqat qilish, tushunilishi qiyin bo‘lgan har bir so‘zni to‘g‘ri izohlash muhim ahamiyatga ega. Nashrda folklor asarlarining lug‘at boyligini to‘la saqlash bilan birga arxaik yoki tushunilishi qiyin so‘zlarni boshqalari bilan almashtirish yo tushurib qoldirish mumkin emas. Ma‘nosini izohlash mumkin bo‘lmagan arxaik so‘zlarni ham nashrlarda saqlash kerak. Chunki keyingi tarixiy-etimologik tekshirishlar bunday so‘zning ma‘nosini ochishi turgan gap.

2-AMALIY MASHG‘ULOT: ERTAKLARNI YOZIB OLISH VA NASHR ETISH PRINTSLARI

Ishdan maqsad – Ertak janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari, Ertak janrini yozib olish prinsiplari, Ertak janrini yozib olish prinsiplari yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

13. Individual o'qish-2 minut.

14. Muhokama qilish –3 minut.

15. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

16. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

17. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

18. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
----------	--------------------	------

1. Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo‘lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografak so‘zlar, iboralar va tasvirlar salbiy jihatlari qanday?		
2. Asar ruhiga yopishmagan uznan-uzun diniy munajatlar, xudo, payg‘ambar va avliyolarni ta’riflab sig‘inishlar. Bunday diniy mazmunni ifodalovchi barcha so‘z va iboralarni asardan chiqarib tashlash kerak degan ma’no chimasligi kerak. Bu o‘rinda folklor asarlariga suniy ravishda kiritilgan holatlar nazarda tutiladi.		
3. Qaysi bir yo‘sinda bo‘lmasin, biror xalq va millatni yoki o‘sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg‘ularini nfodalagan so‘zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to‘g‘rirog‘i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g‘azab va nafratini bayon etgan so‘zlar, iboralar va ta’rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to‘g‘ri emasnima?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Tarbiyaviy jihatdan foydasi bo‘lmagan, aksincha, zarar etkazadigan pornografak so‘zlar, iboralar va tasvirlar tushuntirib bering.		
Asarning umumiy g‘oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog‘lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so‘zlab bering.		
Asarga aloqasi bo‘lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o‘tilgan jummlalar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so‘ng yozamiz, «Ovqat		

kelib koldi, avval taom, ba'daz kalom» yoki «Po'lkani shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o'g'li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to'yda o'lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo'lmaydi qanday farqlanishi mumkin?		
--	--	--

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a'zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Fantastik xayolot hamda badiiy to'qimalar asosiga qurilib, didaktik g'oya tashuvchi og'zaki hikoyalar **ertak** deb ataladi. Xalq ijodi namunasi bo'lgan ertaklarda xalqning dunyoqarashi, milliy xarakteri, turmush tarzi, tafakkur olami ma'lum darajada o'z ifodasini topadi. Ertaklarning paydo bo'lishida qadimiy miflar, urf-odat va marosimlar muhim o'rin tutadi. Ertak atamasi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asarida «*etuk*» shaklida keladi va biror voqeani og'zaki hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Folklorshunoslikda ertak atamasi qabul etilgan bo'lsa-da, O'zbekistonning turli hududlarda **matal, ushuk, varsaqi, cho'pchak** nomlari ham uchraydi.

Ertaklarda biror bir voqea mukammal hikoya tarzida bayon qilinadi, voqelik xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida, kishilarda badiiy zavq uyg'otadi.

Ertaklar tarixiy taraqqiyot jarayonida turlicha o'zgarishlarga uchrab bizga qadar etib kelgan. Shu sababdan ko'pgina ertaklarning g'oyaviy yo'nalishi, kompozitsiyasi, qahramonlarning vazifalari o'zgarib, yangi-yangi variant va versiyalari yuzaga kelgan. Ertaklardagi variantlarning vujudga kelishi ertak aytilganda ijrochining ijodiy qobiliyati, dunyoqarashi, voqelikni aks ettira olish iqtidori, ertakchilik an'alarini qay darajada bilishi, tajribasi, ruhiy holatlari bilan bog'liq holda amalga oshadi.

Ertak asosida yotgan badiiy to'qimaning davr e'tibori bilan tashkil topgan vaqti va o'rmini, uning real haqiqatga bo'lgan munosabati va asosiy funksiyasi, badiiy aks ettirish prinsiplariga ko'ra a) **hayvonlar haqidagi ertaklar** («**Tulki va laylak**» kabi), b) **sehrli ertaklar** («**Kenja botir**», «**Muqbiltoshotar**» va h.), v) **maishiy** («**Davlatmirzo**», «**Ayoz**» va h.) ertaklarga bo'linadi.

Hayvonlar haqidagi ertaklar shakl va mazmuniga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: sof hayvonlar haqidagi ertaklar va majoziy ertaklar.

Sof hayvonlar haqidagi ertaklar nisbatan qadimiydir. Hayvon-personajlar harakati va munosabati qadimiy dunyoqa-rash bilan bog‘langan.

Majoziy ertaklar hayvonlar haqidagi ertaklar zaminida vujudga kelib, tanqidiy vazifani ado etishga bo‘ysundirildi. Bir vaqtlar totem sanalgan hayvonlar ijtimoiy-siyosiy mazmunni aks ettiruvchi ko‘chma ma‘nodagi personajlarga aylanadi. Bunday ertaklarning g‘oyaviy mazmuni va obrazlar talqinida majoz asosiy o‘rinda turadi. Majoziy ertaklarning pedagogik ahamiyati katta.

O‘zbek xalq ertaklari orasida sehrli ertaklar alohida turkumni tashkil etadi. Sehrli ertaklarning yuzaga kelishi qadimiy tarixga ega bo‘lib, ularning ildizi ibtidoiy jamiyatga bog‘landi.

Sehrlil ertaklarda personajlar, voqea va hodisalar odatdan tashqari, g‘ayri tabiiy holda tasvirlanadi. Sehrli ertaklardagi har bir epizod qahramonlarning xatti-harakatlari, sehr, jodu, mo‘jiza, xayoliy ob-razlar bilan bog‘lanadi.

Sehrlil ertaklarda u yoki bu totem hayvon asosiy personaj bo‘lib, bosh qahramon yordamchisi sifatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Sehrlil ertaklar poetikasida tilsim alohida o‘rin tutadi. Tilsim va tilsimli hodisalar ta’sirchanlikni orttirib, ertaklarga xos tabiat yaratadi, voqea va hodisalar mazmunini ochadi, qahramon ruhini belgilaydi. Tilsim syujetning asosiy bezagi, ertak poetikasining tarkibiy qismidir. Chunki sehr-jodu va tilsim vositalari ertak syujetini harakatga keltiradi, qahramonlar xarakterini belgilaydi.

Maishiy ertaklarning tematikasi, g‘oyaviy mazmuni sehrli ertaklardan farq qiladi. Aqlni sinash, vafodorlik, jangovarlik, oilaviy tortishuvlar, ayyorlik va tentaklikni tanqid qilish bu xildagi ertaklarning asosiy tematikasini tashkil etadi. Shuning uchun ularda ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, zulm va zo‘rluk qoralanib, ezgulik va haqiqat ulug‘lanadi. Ertak qahramonlari — hayotning faol kishilari, ular ajoyib va g‘aroyib yordamchilarsiz ish ko‘radilar, aql kuchi, tadbirkorlik, chidam, jasorat, iroda kuchi, do‘stga vafodorlik, sadoqat, adolatsizlikka nisbatan muhosasizlik ularning asosiy sifatlaridir. Maishiy ertaklarda voqealar harakati nisbatan hayotiy. Ertak syujetini, asosan, sotsial-maishiy motivlar tashkil qiladi.

Ertaklar o‘ziga xos kompozitsiyaga ega bo‘lib, kirish qism – boshlama, voqealar rivoji, tugallanmalardan tashkil topadi.

Qirish qisim – boshlama tinglovchi diqqatini jamlab, uni ertak eshitishga hozirlaydi. ertakning an’anaviy boshlama voqeaning qaysi vaqtda bo‘lib o‘tganini aniq bildirmaydi, umumiy tarzda ifodalaydi. Maishiy ertaklarda boshlama nihoyatda ixcham va sodda. Bunda ham voqelikning bo‘lib o‘tgan vaqti noaniq bo‘lsa ham, biroq sirlilik sezilmaydi, hayotiylik hukmron bo‘ladi. Voqea bo‘lib o‘tgan joy va qahramon nomi aniq hamda to‘liq beriladi.

Tugallanma ertakning yakuniy qismini ifodalaydi. Sehrli ertaklarda tugallanma doimo to‘y-tomosha tasviri bilan yakun topadi. Maishiy ertaklarda esa u voqealar sintezidan kelib chiqqan xulosa bo‘lib, sotsial ruh hamda ta’limiy mazmun anglatadi.

Ertak aytib beruvchiga **ertakchi** deyiladi. Har bir ertakchi aytib berayotgan ertaklarining xarakteri va hikoya qilib berish uslubiga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Ayrim ertakchilar hayvonlar haqidagi, ayrimlari sehrli, ba’zilari esa maishiy mazmundagi ertaklarni aytish bo‘yicha dong taratganlar.

Ertakchilar: ijodkor va ijrochi ertakchilarga bo‘linadi. Ijodkor ertakchi o‘zi eshitgan ertakka ijodiy yondoshadi, an’anani buzmaganda, ertak voqeligiga yangiliklar qo‘shadi, uning ta’sir kuchini oshiradi. O‘z bilim darajasi va mahorati hamda tinglovchi talabidan kelib chiqib, ertak voqelariga o‘zgartirishlar kiritadi. Ijrochi ertakchi o‘zi qanday eshitgan bo‘lsa, aynan shunday takrorlaydi, matnga ijodiy yondoshmaydi.

Ertaklarning asrlar osha yashab qolishida, ajdodlardan avlodlarga etib kelishida mahoratli, ya’ni professional ertakchilarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Hamrobibi Umarali qizi, Hasan Xudoyberdi o‘g‘li, Haydar Boycha o‘g‘li, Nurali Nurmat o‘g‘li, Huchanboy Rasulov, Abdug‘ofur Shukurov kabi mashhur ertakchilar o‘z davrida mashhur bo‘lgan va ulardan ko‘plab ertak namunalari yozib olingan. Bugungi kunga qadar ko‘plab ertak namunalari turli nomlar ostida chop etib kelinmoqda.

Milliy va umuminsoniy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan ertaklarning ta’limiy hamda tarbiyaviy ahamiyati juda katta. ertak syujetlari tasniflangan va sistemalashtirilgan katalogdir. Xalqaro ertak materiallarini aks ettiradigan, umume’tirof qilingan syujet ko‘rsatkichi sifatida Stit Tompsonning Antti Aarne (Aarne A. Verzeichnis der Märchentypen. Helsinki, 1910) ko‘rsatkichi asosida tuzilgan “Ertak tiplari” (Thompson S. The Types of the Folktale. Helsinki, 1961) katalogi tan olinadi. Keyinchalik ko‘plab milliy va mintaqaviy ko‘rsatkichlar ham Aarne-Tompson sistemasi bo‘yicha yaratildi. 2004 yili Gans-Yorg Uter qayta ishlangan va to‘ldirilgan ko‘rsatkich – “Xalqaro ertak tiplari” (Hans-Jörg Uther. The Types of International Folktales. A Classification and Bibliography. Parts I–III. Helsinki, 2004) katalogini e’lon qildi. Aarne-Tompson tasnifiga tayanmagan, boshqa metod asosida tuzilgan ko‘rsatkichlar ham bor. Masalan, Bronislava Kerbelitening “Ertak tiplari. Litva ertaklarining struktur-semantik tasnifi” kitobi («Tipi narodnix skazok. Strukturno-semanticheskaya klassifikatsiya litovskix narodnix skazok». Moskva, 2005).

XX asr boshlarigacha ham ertak syujetlarini sistemalashtirishga urinishlar ko‘p bo‘lgan, bu yo‘lda muayyan yutuqlarga erishilgan, bir necha o‘nlab tiplar hisoblab chiqilgan. Ammo hech bir tadqiqot oxirigacha etkazilmagan va qo‘lga kiritgan natijalari ham ilmiy amaliyotga singishib ketmagan. Ularning orasida eng muvaffaqiyatli chiqqani Antti Aarne (1867–1925) tuzgan “Ertak tiplari” bo‘lib, sobiq ittifoq folklorshunosligida “Ertak syujetlari ko‘rsatkichi” tarzida qabul qilingan.

Antti Aarne izlanishlarida salafalaridan farqli o‘laroq o‘sha vaqtda ilm-fanga ma’lum barcha ertak matnlarini qamrab olgan, Evropaning bir necha majmualarini, jumladan, Afanasevning to‘plamini ham ko‘rib chiqqan. Olim tadqiqotlari natijasini 1910 yili FFC (Folklore Fellows Communications, № 3) turkumida nemis tilida

e'lon qildi (Verzeichnis der Märchentypen). Keyin ham to umrining oxirigacha katalogga qo'shimcha va tuzatishlar kiritib bordi (FFC, № 25; FFC, № 33).

Aarne ertak syujetlarini tasniflashda janriy xususiyatlariga qarab farqlash prinsipiga rioya etdi va quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatdi: I. Hayvonlar haqidagi ertaklar; II. Haqiqiy (nem.: eigentliche, rus.: sobstvenno, ing.: ordinary – 1961 yilgi nashrda) ertaklar: A) sehrli ertaklar, V) afsonaviy (nem.: legendenartige, rus.: legendarniy, ing.: religious – 1961 y.n.) ertaklar, S) novellistik (nem.: novellenartige, rus.: novellisticheskie, ing.: novella (romantic tales) – 1961 y.n.) va D) ahmoq maxluq (dev)lar haqidagi ertaklar (nem.: Märchen vom dummen Teufel (Riesen), rus.: skazki o glupom chorte (velikane i t.p.), ing.: Tales of the Stupid Ogre – 1961 y.n.); III. Latifalar. Albatta, bunday guruhlash empirik ahamiyatga ega bo'lib, mutlaqo kam-ko'stsiz deb bo'lmasdi.

Syujetlar ushbu guruhlar ichida yana mavzusiga qarab to'p-to'pi bilan tartib berilgan (tiplarga ajratilgan): masalan, I. 1–99. Yovvoyi hayvonlar haqidagi ertaklar; II. B. 750–779. Taqdirlash va jazolash (nemischadan aynan tarjima qilsak: “Xudo taqdirlaydi va jazolaydi”). Har bir ertak (yaxlit voqea sifatida, ba'zida esa motiv va epizod ham) o'z tartib raqamiga ega (birinchi guruhda 1 dan 299 gacha, ikkinchi guruhda 300 dan 1199 gacha, uchinchi guruhda esa 1200 dan 1999 gacha); yangi tiplarni qo'shish uchun bo'sh o'rinlar qoldirilgan. Aslida Aarne tartib bergan syujetlar soni mingdan oshmaydi. Katalog esa 2400 raqamdan iborat bo'lishi ko'zda tutilgan. Har bir ertak tipiga qisqacha tavsif berilgan va bibliografik ko'rsatkichi (manbasi) keltirilgan.

Aarne katalogi jahon miqyosida ommalashib, xalqaro ilm-fanda qabul qilindi, ko'plab g'arb tillariga o'girildi. Jumladan, rus tiliga Nikolay Andreev (1892–1942) “Ertak syujetlari ko'rsatkichi. Aarne sistemasi bo'yicha” (“Ukazatel skazochnix syujetov po sisteme Aarne”) nomi bilan tarjima qildi (1929). Tarjimon-olim yangi ruscha to'plamlarga berilgan bibliografik havolalar bilan katalogni boyitdi. Ayrim ertaklarning yangi variatsiyalari yoki butkul yangi tiplarni qo'shib, ko'rsatkichning mundarijasiga umumiy tartibotni saqlagan holda maxsus belgilardan foydalanib o'zgartishlar kiritdi.

Rus tadqiqotchisi ishini tugatib, hali nashr ettirib ulgurmasidan amerikalik olim Stit Tompson (1885–1976) fin folklorchisi Antti Aarne asarini ingliz tiliga o'girib, ayrim tuzatish va to'ldirishlar bilan e'lon qildi – “Ertak tiplari: tasnifot va bibliografiya” (The types of the folk-tale. A classification and bibliography. Antti Aarne's Verzeichnis der Märchentypen. Helsinki, 1928. FFC, №74). Stit Tompson shu bilan kifoyalanmay, ertak syujet tiplari ustidagi izlanishlarini chuqurlashtirib va kengaytirib, ko'rsatkichni milliy kataloglardagi materiallar bilan boyitib bordi. Nemischa nashrdan yarim asr, inglizcha nashrdan o'ttiz uch yil o'tib, 1961 yili FFS turkumining 184-sonida ko'rsatkichning tom ma'nodagi ikkinchi tahriri chop etildi. Stit Tompson kitobga shakliy ertaklar (ing.: formula tales; masalan, kumulyativ ertaklar) va tasniflanmagan ertaklardan iborat yana ikki bo'lim qo'shdi. Umumiy sanoqni 2499 taga etkazdi. Shu tariqa har bir folklorchi tez-tez murojaat qiladigan ertak syujetlarining universal katalogi yuzaga keldi va haqli ravishda Aarne-Tompson (AaTh yoki AT) indeksi deb atala boshladi.

Aslida Stit Tompson o‘z tadqiqotlarida syujetga emas, motivga ko‘proq e‘tibor qaratgan. Olti jildli “Folklor motivlari ko‘rsatkichi” ([Motif-Index of Folk-Literature](#). Bloomington, 1955–1958) monumental asari qirq yillik izlanishlari natijasida yuzaga kelgan. Mazkur katalogda motivlar 23 guruhga bo‘linib, alifbo bo‘yicha harflar bilan belgilangan. Har bir guruh ichida alohida tartib raqam berilgan. Muayyan motivning variantlari raqami asosiy raqamdan nuqta bilan ajratiladi. Masalan, A670. Erosti olami tabiati; A671. Do‘zax; A671.0.1. Do‘zax shimolda joylashgan; A671.0.1.1. Do‘zaxning boshqa joylashuvi; A671.0.2. Do‘zaxning yaratilishi; A671.0.2.1. Do‘zax olovi(ning yaratilishi)... Shu tarzda davom etadi. Har bir motiv qaysi manbalarda uchrashi albatta ko‘rsatiladi. (Eslatma: motiv indeksi bilan syujet ko‘rsatkichini chalkashtirib yubormaslik kerak, ikkalasi alohida-alohida katalog.)

Yana oradan qirq yil o‘tib, 2004 yili ertak syujetlari ko‘rsatkichi mualliflari safiga yangi nom qo‘shildi. Katalogning uchinchi tahririni nemis olimi Xans-Yorg Uter (1944 yil tug‘ilgan) amalga oshirdi. Folklorshunoslikda kuzatilgan ilgari siljishlar, tarixiy-qiyosiy metod asosida qo‘lga kiritilgan yutuqlar syujet ko‘rsatkichini qayta ko‘rib chiqishga majbur etdi. “Xalqaro ertak tiplari: tasnifot va bibliografiya” (The Types of International Folktales. A Classification and Bibliography. Parts I—III. Helsinki, 2004. FFC, № 284, 285, 286) kitobi 2003 yilgacha chiqqan tematik monografiyalar, folklor va adabiy ertak to‘plamlari va mintaqaviy kataloglarni qamrab olgan. Ko‘rsatkichga 250 dan ortiq yangi tiplar qo‘shilgan. Katalog bo‘limlari quyidagicha ko‘rinishga keltirilgan: “Hayvonlar haqidagi ertaklar” (1–299), “Sehrli ertaklar” (300–749), “Diniy ertaklar” (750–849. Ing.: religious tales; bu guruhni Stit Tompson shunday nomlagan), “Hayotiy ertaklar” (850–999. Ing.: realistic tales; bu guruh nomlanishini Xans-Yorg Uter o‘zgartirgan), “Ahmoq maxluq (dev, iblis)lar haqidagi ertaklar” (1000–1199. Qavs ichidagi izoh to‘ldirilgan: giant, devil), “Latifa va hazillar” (1200–1999. Ikkinchi tahrirda “Hazil va latifalar” bo‘lgan), “Shakliy ertaklar” (2000–2399). Stit Tompson qo‘shgan “Tasniflanmagan ertaklar” bo‘limini chiqarib tashlab, umumiy sanoqni birinchi nashrdagi hisobga tushirdi.

Syujetlar ko‘rsatkichini tuzishga zarurat turli xalqlarning minglab ertaklari matnini qamrab olgan holda, ularning mazmuni to‘g‘risida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish ehtiyojidan tug‘ilgan bo‘lsa, yangi metodlar asosida tasniflaydigan kataloglar syujet va motiv tiplarini yanada aniqroq ajratib ko‘rsatish maqsadidan dunyoga kelgan. Bronislava Kerbelite (1935 yili tug‘ilgan) yaratgan “Ertak tiplari. Litva ertaklarining struktur-semantik tasnifi” (“Tipi narodnix skazok. Strukturno-semanticheskaya klassifikatsiya litovskix narodnix skazok”. Moskva, 2005) kitobi Aarne-Topmson sistemasiga asoslanmaydi. Olima syujet strukturasiining asos birligini ifodalash uchun “elementar syujet” atamasini kiritgan. Elementar syujet deganda ikki personaj(lar guruhi)ning qahramonni maqsadiga etishtirish yo‘lidagi bitta “to‘qnashuv”i bayon qilingan alohida matn yoki matn parchasi tushuniladi. Bronislava Kerbelite struktur-semantik metod yordamida litva ertak, afsona va latifalaridagi elementar syujetning har biri ko‘plab variantlariga ega 152 tipini ajratib ko‘rsatgan. Ba‘zan bir matnda asosiy rol o‘ynaydigan bir necha elementar

syujet uchrashi mumkin, bunda kontaminatsiya (bayonda voqealarning qo‘shilib, aralashib ketishi) hodisasi ro‘y beradi. Shu bois muallif syujet tavsifini Arne-Tompson ko‘rsatkichidagi kabi statik emas, balki bir necha variantlarini e‘tiborga olgan holda dinamik tarzda yozishga harakat qilgan.

Nazorat savollari

1. O‘zbek xalq ertaklarining nashrlari, tasnifi, o‘rganilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?

3-AMALIY MASHG‘ULOT: MAROSIM FOLKLORINI YOZIB OLISH, ILMIY O‘RGANISH METODLARI

Ishdan maqsad – Marosim folkloriga xos etakchi xususiyatlar, Marosim folklori va uning yozib olinishi, Marosim folklorining o‘rganilishi yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi. (darslik, ma‘ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e‘lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e‘tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas‘uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

1. Individual o‘qish-2 minut.

2. Muhokama qilish –3 minut.

3. Presentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.

4. Presentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

5. Guruhlar boshqa guruhlarni presentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

6. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Marosim folklor va uning turlari qanday?		
2. Mavsumiy marosimlar holatlar nazarda tutiladi.		
3. Yomg‘ir yog‘dirish marosimlari ?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
O‘zbek mifologiyasi deyilganda nimani tushinasiz?		
O‘zbek folklorida qanday mifologik obrazlar bor?		
Bugungi adabiyotda, san’atda mifologik tafakkurning o‘rni qanday?		

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a’zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Qo‘shiq inson ma‘naviyatiga xos badiiy-estetik hodisa sifatida xalqning kundalik maishiy turmushida hamkor, ma‘naviy hayotida hamroh hisoblanadi va ruhiy dunyosining boyishiga xizmat qiladi. Har qanday xalqning, umuman insonning hayotini qo‘shiqsiz tassavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli ham dunyodagi jamiki xalqlar folklorida qo‘shiq janri mavjudligini ko‘ramiz. Inson quvonchga to‘lganida ham g‘am-anduhga botganida ham kuylaydi, qo‘shiq aytadi. Xalqda: “Kuygan ham qo‘shiqchi, suygan ham”, degan maqol bejiz paydo bo‘lmagan. Xalq qo‘shiqlarini turli nuqtai nazardan, xususan, ijro shakli, kompozitsiyasi, raqs bilan munosabati, ishtirokchilariga ko‘ra, etnografik jihatdan marosim va nomarosim qo‘shiqlarga ajratib hamda mintaqaviy jihatdan – Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘istonning o‘zbeklar istiqomat qiladigan tumanlaridagi qushiqchilik an‘analari, Farg‘ona vodiysi va Toshkent viloyati qo‘shiqchiligi, o‘rta va quyi Zarafshon vohasida ommalashgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari, Janubiy O‘zbekiston qo‘shiqchiligi ijodiyoti, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqaqlar qo‘shiqlari va hokazo hududlarga ajratib tadqiq etish mumkin. Ammo folklorshunoslikda asarni so‘z sa‘natining nodir namunasi sifatida o‘rganish, unda qo‘llanilgan turli poetik ko‘chimlar va ularning semantik qatlamlarini aniqlash, estetik qimmatiga oydinlik kiritish, tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida ajdodlarimiz tomonidan asrlar osha yaratilib, ko‘z qorachig‘iday e‘zozlanib kelinayotgan ma‘naviy qadriyatlarimiz durdonalari bo‘lgan xalq ijodiyotiga tegishli asarlarning tub mohiyatini yoritish, ularning xalq ma‘naviyatida tutgan o‘rnini belgilash borasida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini ifoda usuliga e‘tibor qaratisa, poetik ko‘chimlarning turli shakllari, ayniqsa, ramziy obrazlarning keng qo‘llanilishiga guvoh bo‘lamiz. Bu holat tasodif emas, chunki inson tafakkurida fikr va ifodani qiyoslab tasvirlash usuli eng qulay vosita sanaladi. Xususan, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining kisha shakli, asosan to‘rtliklardan iborat ekanligi ifodaning bu shakliga tez-tez murojaat etishni tabiiy ravishda talab etadi. Shu sababli ham poetik ramzlarni tadqiq qilish folklorshunosligimizda, ayniqsa, uning qo‘shiqchilik sohasida hamisha diqqat e‘tiborda bo‘lib kelmoqda.

Folklorshunosligimizdagi bu dolzarb masalaga bo‘lgan e‘tibor birinchilardan bo‘lib o‘zbek xalq qo‘shiqlarining XX asrdagi jonkuyar to‘plovchisi va tadqiqotchisi M.Alaviyaning tadqiqotlarida ko‘zga tashlanadi. U o‘zining “O‘zbek xalq qo‘shiqlari” nomli kitobida poetik ramzlarga tegishli misollarga murojaat qilar ekan, ularni “ramz”, “parallelizm”, “allegoriya”, “psixologik motivirovka” kabi turli nomlar bilan tilga oladi¹. Olima o‘zbek xalq qo‘shiqlarida qo‘llaniluvchi ramziy obrazlar va timsoliy detallarga umumiy tarzda murojaat qilgan bo‘lsa-da, bu masalaga folklorshunosligimiz tarixida birinchilardan bo‘lib diqqat qaratganligini alohida ta‘kidlash lozim. Olimaning poetik sezgisi qo‘shiqlarni g‘oyaviy-badiiy talqin etishda, ularda ifodalangan mazmuni to‘g‘ri aniqlashda tayanch asos bo‘lib

¹ Алавия М. Ўзбек халқ қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1959. – 6-101-бетлар.

xizmat qilganligini ta’kidlash lozim. Bu xil talqinlar olimaning boshqa bir qator kitoblari va maqolalarida ham yaqqol ko’zga tashlanadi². Ayni paytda, M.Alaviyaning tadqiqotlarida poetik ramzlarni alohida figura sifatida olib, uning o’ziga xos belgi va xususiyatlarini aniqlashdek muhim ilmiy masalaga jiddiy va tizimli yondashuv mavjud emasligini ham aytib o’tish lozim. Bu masala xassos olimaning tadqiqot maqsadlari doirasiga kirmaganligi sababli poetik ramzlar tizimli ravishda tahlilga tortilmaganga o’xshaydi.

3. Marosim folklor va uning turlari. Marosim folklori namunalari folklorning eng qadimiy janrlari sirasiga kiradi. Folklorshunoslikda marosim folklori janrlarini ikki katta guruhga ajratish an’anasi mavjud. Bu turlar quyidgi ko’rinishga ega : 1) mavsumiy marosimlar folklor. 2) oilaviy marosimlar folklori.

Mavsumiy marosimlar yil mavsumlarining almashinuvi avvali va oxiri, ma’lum bir xo’jalik turlarining boshlanib yakun topishi, ob-havo bilan bog’liq mavsumiy marosimlarni o’z ichiga oladi. Mavsumiy marosimlarning aniq vaqti, belgilangan o’tish muddatlari mavjud va ular bir oila yoki jamoaga tegishli bo’lmay butun xalq ommasiga tegishlidir.

“Mavsum” deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo’shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog’liq bo’ladi. Marosim esa diniy yoki an’anaviy urf-odatlar munosabati bilan o’tkaziladigan tadbir, yig’in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma’nosini ifodalaydi. Ma’lum bo’ladiki, “marosim” tushunchasi “bayram” so’zi ifodalagan ma’nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki, marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqea bilan bog’lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo’lishi lozim. To’g’ri, biz, ko’pincha, “bayram marosimi” birikmasini qo’llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta’kidlanadi.

Dunyoda bironta xalq yo’qki, turli munosabatlar bilan ommaviy bayramlarni nishonlanmasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o’tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o’yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o’rtasidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to’ldiradi, mukammallashtiradi.

Oilaviy marosimlar esa aksincha bir oila va oila a’zolari hayotidagi barcha mavsumlar o’zgarishlarni o’z ichiga qamraydi. Oilaviy marosimlar mazmuni tug’ilig’, to’y va motam marosimlaridan iborat va bu marosimlarda ijro etiluvchi folklor namunalari oilaviy marosimlar tarkibiy qismini tashkil etadi.

4. Mavsumiy marosimlar.

² Бу ҳақда қаранг: Алавия М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974; Шу муаллиф. Қўшиқнинг мазмуни ва шакли масаласига доир // Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Фан, 1967. – 71-79-бетлар; Шу муаллиф. Лирик қўшиқлар // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. II том. – Тошкент, 1988. – 244-253-бетлар; Шу муаллиф. Ўзбек фольклорида ўлан / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 63–80.

O‘zbek mavsumiy marosimlarining boshlanishi bevosita Navro‘z bayrami bilan aloqador. Navro‘z yangi yil, yilboshi deb ham yuritiladi. YA’ni qish va yoz (ikki qutb)ning o‘zaro kurashuvi, qish tomonning yengilib, chekinishi natijasida kirib keladi, degan dualistik qarash ushbu marosimda eng tayanch tasavvur hisoblanadi. Navro‘zni kutib olish, tantana qilish jarayonida o‘tuvchi barcha marosim halqalarida ana shu kurashni tasvirlashga, ifodalashga yo‘naltirilgan. Ushbu o‘rinda Farg‘onada o‘tuvchi Navro‘z bayrami haqidagi xitoy manbasidan keltirgan ko‘chirma muhim ahamiyatga ega: “Har yangi kelayotgan yilning boshida podsho va darg‘alar bosh xalq ikki guruhga bo‘lingan. Har bir guruh bittadan vakil saylab, unga jang kiyimlarini kiydirib o‘zaro jang qildirishgan, qolganlar esa raqib tamonga toshu kesaklar otib o‘z jangchilariga yordam berib turishgan. Jang tamonlarning biri halok bo‘lgunicha davom qilgan. So‘ngra jang natijalariga qarab yangi yilning qanday kelishini taxmin etilgan” (166. –S. 282–283).

S.P.Tolstov ushbu marosimni ibtidoiy xalqlar orasida keng tarqalgan ikki fratriyning marosimiy musobaqasi ekanligini yozar ekan, Sharqiy Turkistondagi Kuchi shahrida yangi yilni kutishda yetti kun davomida o‘tuvchi qo‘chqor, ot, tuya urishtirib yilning qanday kelishini aniqlash tantanalari va O‘rta Osiyodagi uloq (ko‘pkari) hamda turkmanlar orasidagi “ko‘k bo‘ri” to‘y marosimini ham ana shu tizimda tahlil etadi. (166. –S. 284).

Biz uchun e‘tiborli jihat ushbu o‘rinda ko‘pkari (uloq) va ko‘k bo‘ri nikoh to‘yi marosimidagi bo‘ri va uloq (echki) obrazlaridir.

Ko‘k bo‘ri marosimida uloq yoki qo‘zichoqni (aslida uloq varianti to‘g‘ri) otda o‘ngarib qochayotgan kelinni kuyov o‘z jo‘ralari bilan ta‘qib qilib, undan uloqni olib qo‘yishi kerak (Qozoqlar o‘rtasidagi qiz quvdi marosimi ham ana shu tizimda turadi. Faqat u o‘rinda uloq unutilgan). Ushbu marosimning tub asoslari ham yil fasllari o‘rtasidagi qutblar holati, kurashi va birligiga ulanadi. Uloq – ko‘klam, bo‘ri esa qish timsoli. Qiz – uloq – ko‘klam, yigit – bo‘ri – qish yaxlit tizimni tashkil etadi. Uloq (ko‘pkari) o‘yining qish vaqti o‘tkazilish an‘anasi ham bekor emas. Boysun tumanining olis qishlog‘ida Navro‘z kuni ijro etiluvchi “Gurgak” o‘yini ham bevosita ana shu tasavvurlarga bog‘liq (87. –B.148).

Respublikamizning bir qator viloyatlarida turli shakl-ko‘rinishlarda hozirgacha amal qilib kelayotgan “Boychechak” marosimi ham ushbu tizimning o‘ziga xos ko‘rinishi hisoblanadi.

Marosimni nisbatan to‘laroq halqalarini Namangan viloyatining Chortoq tumani hududida kuzatish mumkin. Bu yerda bolalar erta ko‘klam boychechakni topib, bir guruh bo‘lib, jo‘raboshi yetagida xonadonma-xonadon kezib chiqishadi. Boychechakchilar har bir xonadon darvoza oldida to‘xtaganda, jo‘raboshi ushbu qo‘shiqni kuylaydi:

– Boychechak aytib keldik eshingizga,
Xudoim o‘g‘il bersin beshingizga, –

Guruh esa:

– Bota, bota-bo, boychechak,
Uyingizga choch tilla.
Iloyim o‘g‘il bersin,

Otginasi Rahmatilla,
 Uy egasi ko‘rinish berganda:
 – O‘tirib chiqing,
 O‘tirib chiqing,
 Yog‘och tovoqni to‘ldirib chiqing, –
 deydilar.

Xonadon sohibi jo‘raboshi tutib turgan boychechakni ko‘rib, tavob qilib, himmatiga yarasha ul-bul boychechakchilarga beradi. Uy egasi xasislik qilib hech narsa bermasa, boychechakchilar:

O‘qim, o‘qim,
 Qozoningga ...! –

deb yomon tilak bildiradi.

Biz ushbu marosimni dunyoning boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlaridagi ko‘klam marosimlari bilan qiyosan o‘rganib, uning qadimiy ko‘rinishini tikladik (216. –B. 40–41).

Qadimda o‘tgan “Boychechak” marosimida qish va ko‘klamning kurashini ifodalovchi sahnalar bo‘lgan. Boychechak tutgan jo‘raboshi ko‘klam siymosida o‘z sheriklari – aniqrog‘i, jangchilari bilan xonadonma-xonadon yurib qishni haydagan. Qish siymosi va jangchilarini ifodalovchi tomon qattiq qarshilik ko‘rsatgan. Bir-bir chekinib xonadonlarni va nihoyat butun qishloqni tark etgan. Qish va ko‘klam o‘rtasidagi asosiy kurash katta dalada bo‘lgan. Bunda qish va yoz tomon ramziy jang qilib, aytim-qo‘shiq kuylab bahslashganlar.

Xorazmda sumalak sayli bilan aloqador bo‘lgan “Ashshadarozi” o‘yini (169. –B.43–44) va unda aytiluvchi laparning tub asoslarini qish va yoz munozarasi sifatida baholash o‘rinli. Ushbu laparni marosimdan butkul ajralib sof san‘at namunasiga aylangan versiyasi sifatida Farg‘ona vodiysida keng yoyilgan “Sochingni uzun deydilar” laparini keltirish mumkin. Ushbu lapar matnida “qish”ning so‘rog‘i va “ko‘klam”ning javoblari asl mohiyatga yaqin turibdi. Laparda yigit qizning sochi, qoshi, ko‘zi, yuzi, beli, qanday ekanligini so‘raydi. Qiz esa ko‘klamdagi tabiat tasviri orqali o‘zini ta‘rif etadi (27. –B.90–92). Bizning nazarimizda, “Kichkinajon-kichkina” qo‘shig‘i ushbu aytishuv, bahsning so‘nggi nuqtasi bo‘lgan. YA’ni qo‘shiqni kuylab, o‘rtadagi raqqosni ma‘lum obrazlarga taqlidan kichrayib borishi barobarida tariq timsoliga kelishi, buni raqsda ko‘rsatishi ko‘klamning qishni yengib urug‘ (tariq) holatiga keltirishini ifoda qilgan.

Xalqimizning yoz(ko‘klam) va qish(kuz) haqidagi tasavvurlar tizimini quyidagi jadval orqali yanada aniqroq ifoda etish mumkin (... shaklga qarang) S.P.Tolstov o‘zi keltirgan faktlarni tahlil etar ekan, ularning tub asosini zoorastrizmdan ham ancha qadimiyroq bo‘lgan ibtidoiy odamning animistik tasavvurlari zahirida an‘analashganligini yozadi (166. –S. 291). Bu esa bizning “Go‘ro‘g‘li” turkumi o‘zagidagi syujet, yetakchi motiv va asosiy obrazlarning animistik dunyoqarash va e‘tiqodlarga bog‘liq talqin etganimiz to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatish barobarida, turkumning tub manbalari qadim-qadimdan kelayotganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yomg‘ir yog‘dirish marosimlari – Bahorda o‘tuvchi mavsumiy marosimlar

tizimida yil qurg‘oqchilik kelgan mavsumlarda o‘tuvchi yomg‘ir chaqirish bilan bog‘lik Sust xotin, Sut xotin, So‘z xotin, Sel xotin, Suv xotin, Chala xotin, Ko‘sam-ko‘sam, Chayla qazon deb nomlanuvchi marosimlar yomg‘ir yog‘dirish marosimlarini tashkil etadi. Keltirilgan atamalar mohiyatan bir marosimning turli hududlarda aytiluvchi o‘ziga xos nomlanishidir. Masalan, “Sust xotin” marosimi quyidagi tartibda o‘tgan. Qurg‘oqchilik davri yosh-yalanglar yig‘ilib bir bolani eshakka chappa o‘tqazib, qo‘liga suv to‘la kadi ushlatib, yoniga ikki toshbaqani oyog‘idan bog‘lab osib qo‘yishgan va uyma-uy olib yurishgan. Bola biror uy oldiga kelsa: “*Voy, jonim! Kuydim-ey! Kuydim-ey!*” – deb qichqirgan. Uy egalari uning ustiga suv quyishgan. Yigitlar:

Havo yohmas bo‘larmi,
Tomchi tommas bo‘larmi,
Saksondagi kampirlarni,
Suv oqizmas bo‘larmi,
Sust xotin-o, sust xotin,
Ko‘ylaklari bo‘z xotin...

deb qo‘shiq kuylashgan. Xonadon egalari yigitlarga turli tortiqlar berishgan. “Sust xotin” marosimida bir xodaning teppa qismiga cho‘p bog‘lab, ayol kiyimini kiydirib, “Sust xotin” qo‘shig‘ini kuylab, yetti uyga olib borishgan. Xonadonlardan yig‘ilgan bo‘g‘doy un qilinib maxsus taom tayyorlangan. “Sel xotin” marosimida boshiga g‘alvir kiygan uch xotin qo‘shiq aytib xonadonma-xanodon yurishgan. Chala xotin, Ko‘sam-ko‘sam, Chayla qazon marosimlarida ham xotin obrazi asosiy o‘rin egallaydi. “Sust xotin” marosimlari qadim ajdodlarimizning “osmon suvlari”, yog‘in-sochin egasi sifatida qaralgan Tishtriya yulduzi kulti bilan bog‘liq marosimlarning aks-sadosi sifatida baholanadi.

Yozgi marosimlar folklori – Yozda o‘tuvchi marosimlar bevosita dehqonchilik mavsumining yoz davriga to‘g‘ri keladi. Yozda g‘allalar o‘rib bo‘lingach yig‘ilgan hosilni yanchib olish uchun mavsumda kerakli shamolning bo‘lishi yoki aksincha yil qurg‘oq kelib chang-to‘zon quyinning to‘xtashi uchun maxsus marosimlar o‘tkazishgan. “Choymomo”, “Yalli momo” shamolni to‘xtatish uchun uyushirilgan marosimlar bo‘lsa, “Haydar”, “Ajdar bobo”, “Yalang‘och ota” kultlari bilan bog‘liq irim-sirimlar shamol chaqirishga bog‘liq tashkil etilgan. “Oblo baraka”, “Haqullo” marosimlari esa g‘alla o‘rimini tugatish va bug‘doyni yanchib olish davomida tashkil etilgan. Bu marosim va irim sirimlarda kuylanuvchi qo‘shiqlar yozgi marosimlar folklori hisoblanadi. “Choy momo” marosimida besh yoki yetti nafar bo‘y qizlar chorshanba, payshanba, juma kunlari uyma-uy yurib un va bug‘doy yig‘ishadi. Eng orqada yuradigan qiz keli sopini ko‘tarib oladi. Uning etagiga bog‘langan supurgi sudralib boraveradi. Qizlar quyidagi qo‘shiqni kuylashgan:

Choymomo o‘libdi,
O‘g‘li yetim qolibdi,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin bu shamol.
Uga-uga beringlar,

Ugilib qolsin bu shamol.

Marosimning boshqa bir ko‘rinishida tadbirni boshiga chodir yopingan kampir boshqaradi. Boshqa xududda marosimda uch kampir bosh bo‘lib, uning izidan yettita qiz yuradi. “Yalli momo” marosimida ushbu qo‘shiq kuylanadi:

Yalli momo, yalli-yo,
Yalli momo o‘ldiyo,
Quduq suvi topolmay,
Sirka bilan yuvdik-o,
Bo‘zdan kafan topolmay,
Bo‘yra bilan ko‘mdik-o!

Yalli momo, yalli-yo,
Yalli momo o‘ldi-yo,
Yalli momo gullari,
Xazon bo‘lmay so‘ldi-yo,
Shum shamolning onasi,
Yalli momo o‘ldi-yo!

“Haydar” shamol piri Haydarni chaqirish uchun aytiladigan aytimlarga ega:

Haydar-o, Haydar,
Shamolingni qaytar,
Bolang quduqqa tushibdi,
Uying qayg‘uga to‘libdi,
Haydar, Haydar, keloqol,
Shamol bo‘lib esaqol,
Bug‘doyi menga foyda,
Samonini olaqol!

Haydarga atab aytiluvchi aytimlarning el orasida turli variantlari mavjud. “Ajdar bobo”, “Yalang‘och ota”ga nisbat berib aytiluvchi aytimlar ham el orasida mashhur.

“Oblo baraka”, marosimi bevosita bug‘doy o‘rimi so‘ngida, oxirgi bashoqlarni o‘rish vaqti o‘tkazilsa, “Haqullo” bug‘doyni yanchish payti uyushtirilib ba’zi hududlarda “chosh qurdi”, “chosh oshi”, “xirmon oshi” deb ham yuritilgan.

5. Oilaviy marosimlar. Oilaviy marosimlar tizimi ham o‘z navbatida ikki katta guruhga ajraladi. 1) To‘y marosimlari folklori. 2) Motam marosimlari folklori.

To‘y marosimi folklori. To‘y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. “To‘y” atamasi “to‘ymoq”, “el-yurtga ziyofat bermoq” ma’nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to‘y ham moddiy, ham ma’naviy oziqlanish marosimidir.

O‘zbek to‘y marosimlari nikoh to‘ylari bilangina chegaralanib qolmay. balki xatna (sunnat), beshik to‘yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o‘tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi.

Beshik to‘ylari folklori. Odatda, beshik to‘yi oiladagi birinchi (to‘ng‘ich) farzand uchun o‘tkaziladi va u tantanali kechadi. Ba’zan oilaning moddiy turmush

darajasi bilan bog‘liq xolda bu tartib o‘zgarishi ham mumkin.

Nikoh to‘ylari folklori. Uzbek to‘y marosimlari sirasida nikoh to‘ylari rasm-rusmlarga, irim-sirimlarga boyligi, folklor materialining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bunday rang-baranglik hamda ko‘tarinki ruh marosimning maqsad va vazifasi bilan — insonning o‘z hayotining yangi davriga qadam qo‘yishini alohida quvonchi orqali nishonlashi bilan bog‘liqdir. Haqiqatan ham, nikoh to‘yi yigit va qizlar hayotida ro‘y beradigan eng baxtli, eng unutilmas marosim sanaladi. Chunki mana shu marosimdan so‘ng ular hayotga boshqacha ko‘z bilan, ya‘ni ham jismonan, ham ma‘nan kamolotga erishgan kishilar ko‘zi bilan qaraydilar.

Nikoh to‘yi marosimi barcha uzvlari bilan yaxlit olib qaralsa, anchagina katta muddatni o‘z ichiga oladi. Chunki marosim qiz tanlash voqealaridan boshlanib, nikoh kechasidan birmuncha muddat keyin o‘tadigan kuyov chaqiriq marosimi bilan yakunlanadi.

O‘zbek nikoh to‘ylarining birinchi bosqichiga o‘lan va lapar kabi folklor janrlari mansubdir.

O‘lan janri. O‘lan asosan o‘tmishda ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik tarzida hayot kechirgan o‘zbek urug‘lari o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, u qiz uzatar oq-shomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o‘tkaziladigan “qiz oqshomi”, “qizlar majlisi” kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. O‘lan shahar hamda qadimdan o‘troq tarzda hayot kechiruvchi aholi o‘rtasida uchramaydi. M. Alaviya ko‘rsatib o‘tganidek, to‘yda lirik qo‘shiqlar ijro etiladigan, umuman, lirik qo‘shiqlar rivojlangan joylarda o‘lan kam aytiladi. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o‘tkaziladigan bazmlarda ham o‘lan ijro etilishi mumkin. Bunda o‘lan to‘yni qizitish, mehmonlarning kayfiyatini ko‘tarish maqsadida aytilgan. Ammo “qiz oshi”da ijro etiladigan o‘lanlar umumo‘zbek to‘ylari uchun barqaror an‘anadir.

Janrning paydo bo‘lishi masalasida ham o‘zbek folkloristikasida aniq bir fikr yo‘q. M. Alaviya bu masala xususida to‘xtalib, o‘lan janri qadimda yor-yor, lapar janrlari bilan bir bo‘lib, keyinchalik ular turli joylardagi traditsiya, turmush tarzi bilan bog‘liq holda differentsiyalashib, mustaqil janr holiga kelib qolgan, deb yozadi. Lapar va o‘lan janrlarining genetik jihatdan aloqadorligi u qadar shubha uyg‘otmasa ham, lekin yor-yor va o‘lan janrlarini tarixan bir hodisa sifatida olib qarash ishonarli emas. Farg‘ona vodiysining ayrim joylarida o‘lan misralari oxiriga “yor-yor” so‘zini radif qilib ishlatish hollari bu ikki janrning o‘tmishda bir bo‘lganligini bildirmaydi.

Chunki yor-yor va o‘lan janrlari ijro usuli jihatidan keskin farqlanadilar. Umuman, o‘lan, lapar, yor-yor janrlarining paydo bo‘lishi, ular o‘rtasidagi aloqadorlik va o‘zgachaliklar masalasi alohida tadqiqot talab qiladi.

O‘lan ijrosida erlar va ayollarning yuzma-yuz turishi, ularning so‘z vositasida mulohaza yuritishlari ushbu janrning tarixan islom ta‘siri u qadar kuchli bo‘lmagan ko‘chmanchi turkiy xalqlar, jumladan, ko‘chmanchi o‘zbek urug‘lari orasida vujudga kelganligidan dalolat beradi.

O‘lan janrining ijrosi ommaviy xarakter kasb etib, u professional o‘lanchilar tomonidan boshlanib, ular tomonidan boshqarib borilsa ham, ko‘p hollarda, unga

boshqa kishilar ham qo‘shilishlari mumkin.

O‘laning tematik doirasi keng bo‘lib, unda ishqda vafodorlik, yor visoliga mushtoqlik motivlari yetakchilik qiladi. Ulan aytishni, odatda, yigitlar boshlab berishadi.

Yigit:

Qarg‘a deyman, ko‘zingdan, qar‘ga deyman,

Qarg‘a uya soladi jarga, deyman.

Ko‘rmaganga ko‘p vaqt, oylar o‘tdi,

O‘lan bilan so‘rashay — “horma” deyman.

Qiz:

O‘lanlarim, ko‘zingdan, o‘lanlarim,

Sen bo‘lding shu dunyoda gumondorim.

Sen bo‘lsang shu dunyoda gumondorim,

Kuya-kuya kul bo‘ldi suyaklarim.

O‘lan poetik jihatdan ham qator o‘zgachaliklarga ega bo‘lib, ulardan biri tekstning izchil to‘rtlik shaklidagi band tuzilishiga ega ekanligidir. Har bir band esa aa ba tarzida qofiyalanadi. O‘lanlarning aksariyati ritmik jihatdan o‘n bir hijoli vaznga ega.

Xulosa qilib aytganda, o‘lan to‘y marosimining mustaqil janri sifatida Toshkent, Namangan, Leninobod oblastining Asht rayonidagi «j» lovchi o‘zbeklar yashaydigan qishloqlarda jonli yashashda davom etyapti.

Lapar. Lapar to‘y marosimining birinchi bosqichiga mansub bo‘lib, ijrochilar sostavi, ijro usuli jihatidan o‘lanlarga yaqin turuvchi janrdir. Ammo u o‘zining nisbatan voqebandligi hamda hazilga boyligi jihatidan o‘lanlardan farqlanadi. Mazkur janr Toshkent atroflaridagi qishloqlarda, shuningdek, Janubiy Qozog‘istonda yashovchi o‘zbeklar o‘rtasida keng tarqalgan.

Lapar asosan kelinning xonadonida o‘tkaziladigan “qizlar bazmi”da ijro etiladi. Buni ayrim joylarda “lapar kechasi” deb ham yuritishgan. Ushbu bazmda qizlardan tashqari ayollar va kuyov tomonidan yigitlar ham ishtirok etishgan. Bazmni boshqarish keksaroq, tajribali va so‘zga chechan ayollardan biriga topshirilgan. U kechada odobsizlik qilgan yoki qo‘pol mazmundagi laparlarni aytgan yigitlarni majlisdan haydab chiqargan. Shu sababli lapar aytishuv kechalari juda tartibli va yoqimli kechgan.

To‘ylardagi yor-yorlar, o‘lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo‘lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo‘lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o‘tishini tasdiqlagan. Shuning uchun kuyov-kelin ko‘nglini bir-biriga yaqin qilish orzusi qayta-qayta tilga olinadi:

Shoyi ko‘ylak yengiga

Tut qoqaylik yor-yor,

Kelin-kuyov ko‘ngliga

O‘t yoqaylik yor-yor.

O‘LAN – xalq og‘zaki ijodidagi omaviy janri; qo‘shiq turi. O‘lanlar to‘y-yig‘in, sayl, bayramlarda kishilarning tarafma-taraf bo‘lib aytuvchi qo‘shiq turi hisoblanadi. Nikoh to‘yida kelin tamon kuyov taraf bilan bahslashsa, sayl-bayramlarda mahalla, ovul yoki qishloq ahli boshqa mahalla, ovul, qishloq vakillari bilan musobaqalashgan. O‘lanlar yakkama-yakka yoki guruh bo‘lib aytilgan. Aytuvchilar raqiblarini “harf”, deb atashi urfga kirgan. Qadimda o‘lan nikoh to‘yi marosimlari tarkibida yor-yor” bilan bir umumiy ohangda paydo bo‘lgan. Fikrimizni “yor-yor”dagi “hay-hay o‘lan” an’anaviy boshlama va “Alpomish” dostoni tarkibida kelgan o‘lan shakli va har ikki janr ohangini ta’min etuvchi o‘n bir bo‘g‘inli yetakchi vazn o‘lchami tasdiq etadi.

Daryoga tosh otmanglar,

Botar ketar yor-yor.

Uzoqqa qiz bermanglar,

Olar ketar yor-yor.

Ushbu “yor-yor” bo‘g‘inlari hisoblab chiqilsa ($7+4+2=13$) o‘n uch bo‘g‘inli o‘lcham hosil bo‘ladi. O‘lchamdan “yor-yor” qo‘shimchasi olib tashlansa, o‘n bir vaznli o‘lan vazni hosil bo‘ladi. Aksincha o‘lanning har bir misrasiga “yor-yor” qo‘shsak, aynan “yor-yor” she’riy o‘lchamiga ega bo‘lamiz. “Alpomish” dostonida o‘lanning ayni shakli ham kelgan.

Folklorshunoslikda o‘lan atamasining kelib chiqishi borasida ikki fikr ilgari surilgan. Birinchi fikr keng ommalashgan bo‘lib, unda o‘lan “ulashmoq”, ya’ni “ula” fe’liga aloqador “bog‘lash”, “qo‘shish” ma’nolari ega va o‘zaro aytishuvda qo‘shiqni mazmunan bir-biriga ulashni bildiradi, deb izohlanadi. Ikkinchi fikr Ozarbayjon folklorshunosi Mirali Seyidovga tegishli. Olim o‘lan janri turkiy xalqlarning yashillik, yoshlik, oila ilohi O‘lang nomi bilan bog‘liq deb yozadi. Bu fikrni o‘zbek “yor-yor”laridagi “hay-hay o‘lan, jon o‘lan, o‘lan ko‘pdir” an’anaviy takrorlanuvchi murojoat ma’lum ma’noda tasdiq etadi. O‘lan janri nafaqat o‘zbeklarda, balki qazoq, turkman, uyg‘ur xalqlari orasida ham mashhur. Bu holat ushbu janrning qadimdan kelayotganligini dalillaydi.

O‘lan harflarning quyidagi ko‘rinishli an’anaviy chorlovlari bilan boshlangan:

Baland tog‘lar boshida tuman toshi,

To‘y oldidan tortganim so‘qim oshi,

Haddin bo‘lsa qanikan, o‘lan boshla,

Bu elatning man, degan keksa-yoshi...

Javob beruvchi:

Olti qizning ichida otm Anor,

Anor suvin ichganda mehrim qonar,

Mening bilan shu kecha aytsangiz o‘lan,

Ikki betiz anorday gul-gul yonar.

Tuzilishiga ko‘ra o‘lanlar chorlov, tanishuv – hol-ahvol so‘rashish, asosiy bahs, xotima qismlardan tashkil topadi. O‘lanning chorlov, tanishuv, xotimalarini an’anaviy mazmunli to‘rtliklar tashkil etib, cheklangan miqdorda keladi. O‘lan asosini tashkil etuvchi bahs qismida badihago‘ylik muhim o‘rin egallaydi. Ushbu

qismda raqibning harfiga munosib javob topib aytishi o‘lan janrining bosh talabi hisoblanadi. Kimki badihago‘y shoir, qumquloq qo‘shiqchi bo‘lib, vaziyaga, harfiga mos savol-javob qila olsa, g‘olib bo‘ladi.

Muhabbat mavzusi o‘lanlarda yetakchilik qiladi. Bu xil o‘lanlar mazmunan aytuvchi va tinglovchi uchun barobar tegishli bo‘lib, inson kechinmalari, o‘y-hayollarining hamma bop qoliplari bo‘lib yangraydi:

Oq olma, qizil olma pishmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushmas ekan,
Ikki yaxshi bir yerga tushganida,
Umrining o‘tganini bilmas ekan.

O‘lanlarda aytuvchilarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, dil izhorlar ham ifoda etiladi:

Doim mening minganim jiyron qashqa,
Tamog‘imdan o‘tmaydi choydan boshqa,
Tol chiviqday buralib sen turganda
Ko‘zimga ko‘rinmaydi sendan boshqa.

Ba‘zan harflardan birining tili toyib, quvligi tutib, odob doirasidan chiqib o‘lan aytsa:

Oting o‘zsin og‘ajon, oting o‘zsin,
Qora qaychi tilingning uchin kessin,
Yana qaytib shundayin o‘lan aytsang,
It yaloqda osh ichib kuning o‘tsin,

deb, tartibga chaqirilgan. Inson hayotida quvonch bilan g‘am egiz yuradi.

O‘lanlar orasida g‘amli aytimlar ham uchrab turadi:

Qora tog‘ning boshidan ko‘ch keladi,
Qora yo‘rg‘a selkillab bo‘sh keladi.
Qarindoshdan ayrilgan yomon bo‘lar,
Qaro ko‘zga mo‘ltirab yosh keladi.

O‘lanlarda tabiat hodisalari, tasvirlari bilan kishi kechinmalarini qarshilantirish usuli keng qo‘llaniladi. Bu o‘rinda an‘anaviy poetik ramziy obrazlarga tayaniladi, u yoki bu obraz vaziyat talabi bilan ramziy ma‘no tashiydi:

Bu dunyoda ne qatti, jiyda qatti,
Boshidagi mevasi boldan totli.
Ota bilan onaning mehri qatti,
Tilab olgan bolasin pulga sotti.

Ushbu to‘rtlikda jiyda daraxti va mevasining tabiiy xususiyatlari lirik qahramonning ota-onasi, taqdiri haqidagi fikr, xulosalarini aniq ifodalash imkonini bermoqda.

O‘lanlarning qofiya tizimi asosan a,a,b,a shakliga ega. O‘lanlarning kuylanish yo‘li “yor-yor”larga yaqin, ayni paytda sokinligi bilan ajralib turadi. Go‘zal, betakror obrazli ifodalari, inson diliga yaqin o‘lanlar so‘z san‘atining o‘ziga xos betakror janri hisoblanadi.

Motam marosimlari folklori. Motam marosimi folklorining katta qismini yig‘i va yo‘qlovlar tashkil etadi. Yig‘ilar, odatda, dafn marosimi kunidan boshlab to

«uch» yoki «yetti» marosimigacha azadorlar yoki maxsus yollangan yig'ichi (go'yanda yoki nahvagar) tomonidan azaxonaga ta'ziya bildirib kelganlar oldida yig'i bilan ritual ijro qilinadi. Yig'i matnlari qat'iy turg'unlikka ega bo'lmaydi. Ular, odatda, bir martalik ijroga moslashgan. Sababi, yig'ilar mavjud holatdan kelib chiqib, badihatan kuylanadi. Yig'ilarga xos situativlik va improvizatsion sajiya ular ijrosiga yetarli ta'sir ko'rsatadi. Yig'ichi an'anaviy yig'ilarni ijro etar ekan, uning qaysidir misrasini yoki so'zlarini tushirib qoldirishi, o'zgartirishi yoki an'anaviy misralar yordamida yangi yig'i matnlarini yaratishi mumkin. Shu tariqa yig'ilarda variantlashish hodisasi ham kuzatiladi.

Yig'ilar tarkibida, albatta, yig'ini ifoda etuvchi «voy-voy-ey», «voy-dod-ey» kabi undov so'zlar hamda yig'ining kimga kim tomonidan qaratilganligini bildirib turuvchi undalmalar mavjud bo'ladi va ular yorqin ko'zga tashlanib turadi.

Yig'ilar kimga qaratilganiga, ya'ni marhum bilan yig'ichining qarindoshlik darajasiga qarab, mavzu jihatidan farqlanadi va ularning har biri alohida turkumni tashkil qiladi. Masalan, otaga, onaga, boboga, buviga, akaga, opaga, ukaga, singilga, farzandga, erga, xotinga, ammaga, xolaga, amakiga, tog'aga va boshqa har bir qarindoshlik rishtasi bilan bog'langan kishilarga bag'ishlangan yig'ilar murojaat obekti, badiiy vositalari jihatidan o'zaro farq qilinadi. Ularning har biri yakka, mustaqil yashaydi va kimning o'limiga bag'ishlanganligiga qarab o'zaro birlashib, kattakon yig'i turkumini hosil qiladi. Jumladan, otaga yig'i, onaga yig'i, boboga yig'i, farzandga yig'i va hokazo kabi poetik turkumlar shular sirasini tashkil etadi. Bu turkumlarga kiruvchi barcha yig'ilar ma'lum bir nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, jonli an'anada yakka-yakka ijro etiladi. Chunki ular bosh qahramonga berilgan baho, hajmi, kim tomonidan kuylanishi jihatidan bir-biridan farq qilib turadi. Aytaylik, ota yig'isi turkumiga kiruvchi yuzlab yig'ilar yaratilganligi ma'lum va ular alohida-alohida ijro etilishi kuzatiladi. Biroq ular qancha ko'p bo'lsa-da, ota o'limiga bag'ishlanganligi, marhum ota obrazini talqin etishi, unga xos ramziy belgilarni tashib kelishiga ko'ra o'zaro mantiqan birlashib turadi. Lekin ota yig'ilari otaning oiladagi o'rniga berilgan bahoga va o'g'il yoki qiz farzand tilidan kuylanganligiga qarab bir-biridan farq qiladi. Binobarin, otaga bag'ishlangan yig'ilarda ota-quyoshga, ustunga o'xshatilsa, ona-oyga, buloqqa o'xshatiladi. Bobo-eski bog'ning kundasiga, amma-eshikning tambasiga, xola gulu lolaga, farzand gulga yoki bulbulga tashbeh qilinadi. Shuningdek, ularga nisbatan qo'llaniladigan sifatlashlar ham o'zaro farq qiladi. Masalan, ona-“sutli ko'lim”, ota-“suyangan tog'im”, uka-“sho'x bulbulim”, opa-“sirdoshim”, buvi-“uyimning farishtasi” deya sifatlanadi.

Yig'ilarning mavzu doirasi keng. Yig'ichining hayotiy tajribasi va ruhiy dunyosi bilan shartlangan yig'ilarda o'limga munosabat maishiy-falsafiy ruhda ifodalanib keladi. Yig'ilarning mavzu doirasi marhumning shaxsiyati, oiladagi tutgan o'rniga qarab belgilanadi. Xuddi shu o'rinda ta'kidlash joizki, mavzu leksik-grammatik takrordan ma'lum bo'ladi. Er o'lsa-“vo, to'ram”, xotin o'lsa-“vo, gulim” yoki “vo, uyim” deb, qarindoshlarga “jigarim” deya yig'i beriladi.

Ota o'limida otaga bag'ishlab ijro etiladigan yig'ilar motam folklori namunalari orasida alohida turkumni tashkil etadi.

Orqamdagi yuksak tog'im,

Otajanim, qaydasiz-a?

Bog‘imdagi gul chamanim,

Qiblagohim qaydasiz-a?

Otaga bag‘ishlab ijro etilayotgan bunday yig‘ilarda otaning oiladagi mavqei, uning xonadan boshlig‘i sifatida bolalariga g‘amxo‘rligi, pushti panoh va himoyachiligi alohida tilga olinadi.

Oila boshlig‘i bo‘lgan otaning hurmati yuksak, baland toqqa tenglashtiriladi. Farzandlar otaning pushti kamaridan bo‘lgani uchun uni ham yaratuvchi iloh kabi muqaddaslashtiradilar. Xalq orasida ota bilan bog‘liq e‘tiqodlar juda ko‘p. Shuning uchun bolalar ota o‘tirgan uyning tomiga chiqishni gunoh deb biladilar. Shu tushunchalar asosida yig‘ilarda ota “qiblagohim” deya ulug‘lanadi. Hatto ota sifatlari Olloh sifatlari bilan tenglashtirilib, unga qarata “mehribonim”, “boshimdagi panohim” deya murojaat qilinadi.

Ota oilani birlashtirib turuvchi, unga har tomonlama bosh-qosh, moddiy ta‘minotchi bo‘lgani bois ko‘p hollarda uning o‘limidan so‘ng oila a‘zolari qiynalib qolishadi. Buni hatto bolalar o‘lim yuz bergan kundanoq his eta boshlaydilar va o‘z his-tuyg‘ularini yig‘i matnlarida ifodalar ekanlar, “boshidagi posboni”, “oldidagi sarboni” o‘limidan qattiq aziyat chekayotganliklarini ta‘kidlaydilar. Otasiz oilalarda yuz beradigan boshboshdoqlik “buzilgan qo‘rg‘on”ga qiyoslanadi.

Ona vafoti munosabati bilan aytiladigan yig‘ilar ham talaygina. Ularda onaning mo‘tabar zot ekanligi, mehribonligi va fidoyiligi madh etilishi orqali ona o‘limiga achinish, bundan g‘am chekish holatlari ifoda etiladi.

Volidam, Makkam, Madinam

Mehribonim, jonim onam. (B.u.g‘.,39-b.)

Yoki:

Oq sutingga rozi bo‘l,

Azizam – Ka‘bam onam. (B.u.g‘.,34-b.)

Ona nomini muqaddas qadamjolar nomi bilan teng qo‘yish orqali uning ham mo‘tabar zot ekanligi ta‘kidlanadi. Onaning mo‘tabarligi esa o‘ta mehribonligi, fidoyiligi, g‘amxo‘rligi bilan belgilanadi. Ona vafotiga bag‘ishlangan ayrim yig‘ilar hatto kuyga solinib, qo‘shiq qilib kuylanadi.

Onalarga bag‘ishlangan motam yig‘ilarida, asosan, onaning beqiyos mehru-muhabbatli ekanligi, farzandlari uchun umrbod kuyib-pishganligi, mushfiqligi, shirin so‘zligi, bolalarini oq yuvib, oq tarab, oq sut berib boqqanligi tilga olinadi. Ayniqsa, uning ro‘zg‘or qiyinchiliklariga sabr-toqat bilan yelka tutib berganligi alohida madh etiladi:

Boriga ham yo‘g‘iga,

Achchig‘u ham totiga.

Dardiga ham dog‘iga,

Sabri ul tog‘im onam.(B.u.g‘.,35-b.)

Ona o‘limi-farzandlar uchun katta yo‘qotish. Shuning uchun farzandlar ona o‘limida:

Xayr ketdi sen bilan,

Ko‘rk ketdi sen bilan.

Bir o‘zing dunyomiding,

Dunyo ketdi sen bilan,(B.u.g‘.,36-b.) –deya nolish qiladilar.

Ayniqsa, onalar qizlarning yaqin sirdoshi, ko‘makchisi va maslahatdoshi bo‘lishadi. Lekin ko‘pincha qizlar ham, o‘g‘illar ham o‘z ro‘zg‘orlari bilan bo‘lib, onalarini unutib qo‘yishadi. Uning holidan kamdan-kam xabar oladilar. O‘lim yuz berganda ana shu haqiqat yuzaga chiqib, bundan farzandlar qattiq afsus-nadomat chekadilar. Ularning afsus-nadomati esa boshqalarga saboq bo‘lib yangraydi:

Qiz dedim, o‘g‘il dedim,

Ro‘z dedim, ro‘zg‘or dedim,

Hech o‘zimdan ortmadim.

Dilginang tortgan taom-la,

Bir kuni yod etmadim.

Kiydirgani, xush etgani,

To‘rt enlik mato topmadim.(B.u.g‘.,35-b.)

Xullas, ona-buyuk zot bo‘lib, uning buyukligi farzandlariga g‘amxo‘rligida aks etadi. Farzandlar onasini «boshdagi tojga», «bog‘ning bog‘boniga», «ro‘zg‘orning sultoniga», «taxti ravonga», «mulki jahonga» tenglashtiradilar.

Yig‘ilar orasida og‘a-inilarga, opa-singillarga bag‘ishlangan namunalar ham mavjud. Ular «akaga», «ukaga», «opaga», «singilga» bag‘ishlangan yig‘ilar sifatida alohida-alohida turkumni hosil qiladi va o‘ziga xos poetik lug‘ati bilan o‘zaro farq qiladi.

Nega bevafoqlik qildingiz,

Yangamni gulday so‘ldirdingiz.

Bolalarni tashlab ketib,

Onamni tirik o‘ldirdingiz.

Akajonim, akam-ey,

Mehribonim, akam-ey.(B.u.g‘.,76-b.)

Yanga- akaning xotini. Qo‘shiqda shu so‘zning hamda «onam» so‘zining ishtiroki, uning aka haqida kuylanayotganini bildirib turadi. Aka haqidagi yig‘ilarda «akajon», «akajonim», «og‘am» kabi leksik murojaatlar uchrab keladi. Akaning oiladagi o‘rni, er yigit sifatida xalq orasida qozongan shon-shuhrati tilga olinadi.

Nazorat savollari

1. O‘zbek mifologiyasi deyilganda nimani tushinasiz?
2. O‘zbek folklorida qanday mifologik obrazlar bor?
3. Bugungi adabiyotda, san’atda mifologik tafakkurning o‘rni qanday?
4. Mavsumiy va oilaviy marosimlarning xalq hayotidagi amaliy ahamiyati nima?
5. Navro‘z bayrami va xalq taqvimining o‘zaro uyg‘unligi siz yashayotgan hudud folklor namunalarida ham aks etganmi?
6. Xalq lirikasining marosim bilan bog‘liq bo‘lmagan janrlarida yetakchi motiv sifatida nimani ko‘rsatasiz?

4-AMALIY MASHG‘ULOT: XALQ MAQOLLARINI YOZIB OLISH VA CHOP ETISH MASALALARI

Ishdan maqsad – O‘zbek xalq maqollari va ularning janriy xususiyatlari, O‘zbek xalq maqollarining o‘rganilish masalasi, O‘zbek xalq maqollarining yozib olinishgi va chop etilishi masalalari yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo‘lingan holda ularga har bir vazifa bo‘yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O‘qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo‘ladi. Mavzu bo‘yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O‘quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma‘lumot beradi. (darslik, ma‘ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e‘lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e‘lon qiladi.

O‘qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to‘g‘ri xulosalar chiqarishiga e‘tibor qaratadi.

Mavzu bo‘yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o‘z o‘rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas‘uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.

Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

19. Individual o‘qish-2 minut.

20. Muhokama qilish –3 minut.

21. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.

22. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

23. Guruhlar boshqa guruhlarni prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

24. Baholash natijalarini rahbarga aytish

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Maqol og‘zaki janrning eng faol turi degan fikrga qo‘shilasizmi? Agar shunday bo‘lsa nega? Fikringizni asoslab bering.		
2. Maqollarda o‘z va ko‘chma ma’nolar qay tarzda namoyon bo‘ladi?		
3. Qaysi bir yo‘sinda bo‘lmasin, biror xalq va millatni yoki o‘sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg‘ularini nfodalagan so‘zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to‘g‘rirog‘i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g‘azab va nafratini bayon etgan so‘zlar, iboralar va ta’rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to‘g‘ri emasni?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Fol’klor asarlari uchun xarakterli bo‘lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlarni tushuntirib bering.		
Asarning umumiy g‘oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog‘lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so‘zlab bering.		
Asarga aloqasi bo‘lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o‘tilgan jumlalar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so‘ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba’daz kalom»		

yoki «Po‘lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to‘yda o‘lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo‘lmaydi qanday farqlanishi mumkin?	
--	--

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a‘zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Maqollar xalq og‘zaki ijodining tarixiy asoslari topishmoqlar kabi ibtidoiy madaniyat davrida shakllangan eng ommaviy, variantlarga boy barcha xalqlar folklorida mavjud janridir. Shu sababli jahon xalqlari tarixi, madaniyati, tafakkuri, etnografiyasini o‘rganishga qiziqqan olimlar xalq maqollariga ham muhim manba sifatida murojaat qilib kelmoqdalar.

O‘zbek xalqining folklor merosi g‘oyatda boy va rang-barang. Bu merosning salmoqli qismini maqollar tashkil etadi. Ammo bu ulkan boylik XX asrning boshlariga qadar folkloristik nuqtai nazardan o‘rganilmay keldi. Bundan xalq maqollari o‘tmish adiblari, shoirlari, tarixchilari e‘tiboridan mutlaqo chetda ekan, degan xulosa chiqmasligi kerak. Maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta‘minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so‘z sa‘natkorlarining diqqat markazida bo‘lgan. Yusuf xos Hojib, Rabg‘uziy, Yassaviy, Qutb, Xorazmiy, Atoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Abulg‘ozi, Turdi, Gulxaniy, Munis, So‘fi Allohyor, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza va boshqalarning asarlari sinchiklab o‘rganilsa, ular tarkibida qanchadan-qancha maqollar ba‘zan aynan, ba‘zan o‘zgargan holda mavjudligiga qanoat hosil qilamiz.

Maqolga maxsus, agar ta‘bir joiz bo‘lsa, folklorshunoslik nuqtai nazaridan, garchi u epizodik xarakterda bo‘lsa-da, munosabatda bo‘lingan hollarga ham duch kelamiz. Bunga XI asrning ulkan tilshunos olimi, folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg‘ariyning to‘plovchilik faoliyati va uning «Devonu lug‘otit turk» asari yorqin misol bo‘la oladi. Koshg‘ariy maqollarni keltiribgina qolmay, ularga izohlar ham bergan. «Devon»da turli munosabatlar bilan turkiy xalqlar orasida keng

tarqalgan 400 ga yaqin maqol va matallar keltiriladiki, ularning aksariyati bugun ham tilimizda ayrim o'zgarishlar bilan muvaffaqiyatli ravishda ishlatilmoqda.. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar mavjudligini ham ta'kidlash zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari tarkibida 300 dan ortiq maqol mavjud bo'libgina qolmay, ular asar g'oyasini yoritish, personajlarning o'ziga xosliklarini ifodalashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek, Sulaymonqul Rojiiy o'zining «Zarbulmasal» asarida 400 dan ortiq maqolni she'riy vaznga solganligi ham adabiyotimiz tarixida e'tiborga loyiq hodisadir.

XX asrgacha o'zbek xalq maqollarining to'planishi haqida so'z ketar ekan, ikki shaxs mehnatini ta'kidlashimizga to'g'ri keladi. Ulardan biri venger olimi H. Vamberidir. Uning 1867 yilda Leypsigda nashr etilgan «Chig'atoy tili darsligi» xrestomatiya lug'atiga folklor va adabiyotning ayrim namunalari qatori 112 o'zbek maqoli kiritilgan bo'lib, ularning nemis tiliga tarjimasi ham berilgan³. Bu o'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish yo'lidagi eng dastlabki ish edi.

O'zbek maqollariga e'tibor bergan xorijliklarning ikkinchisi rus orientalisti, missioner N.P. Ostroumov hisoblanadi. U o'zbek folklori materiallari asosida bir necha to'plamlar e'lon qildi. Uning e'lon qilgan materiallari orasida mingga yaqin xalq maqollari muhim o'rin tutadi⁴. Lekin u to'plagan va e'lon qilgan materiallar bevosita xalq orasidan yozib olinmagan bo'lib, ikkinchi darajali kishilardan, asosan, rus-tuzem maktablari o'quvchilaridan olingan edi. Shunga qaramay, bu ishlar o'zbek folklori, jumladan, maqollarni to'plash va o'rganishda o'sha davrda dadil bir qadam bo'ldi.

O'zbek xalq paremiologik xazinasini to'plash, ma'lum bir tartibga solish, jiddiy o'rganish va yaxlit to'plamlar hoida xalqqa taqdim etish ishlari XX asrning 20-yillaridan keyin keng quloq yoydi. Bu paytga kelib, xalq maqollarini to'plash va o'rganish dastavval kichik-kichik maqol to'plamlarini nashr etishdan boshlandi. Shundaylardan dastlabkisi Xorazm materiallari asosida tuzilgan to'plamdir. Unda 564 ta maqol alfavit tartibida joylashtirilgan bo'lib, «Xalq adabiyoti» nomli kichik so'z boshi ham berilgan⁵. SSSR xalqlari markaziy nashriyotida chop etilgan ikkinchi to'plamga esa, Farg'ona vodiysi, asosan Qo'qon atroflaridan to'plangan maqollar alfavit tartibida kiritilgan. 711 maqolni o'z ichiga olgan bu to'plamga «Darvesh» taxallusi bilan kichik bir so'zboshi ham yozilgan⁶.

Yuqoridagi to'plamlarni XX asrning 20-yillari birinchi yarmida xalq maqollarini to'plash va nashr etishdagi jiddiy qadam sifatida baholash bilan birga bu ish keyingi yillarda ancha susayganligini, faqat 30-yillarning oxirida ayrim-ayrim to'plamlar yuzaga kela boshlaganligini qayd etish zarur⁷. Albatta, bunday

³ Нурмурадов Ю.Б. История изучения и проблемы научно-литературного перевода узбекского фольклора на немецкий язык. АКД, Тошкент, 1983.

⁴ Остроумов Н.П. Пословицы и загадки сартов. Этнографические материалы, вып. III, Ташкент, 1985.

⁵ Ўзбекча оталар сўзи. Тқпловчи ва тузувчи Мулла Бекжон Раҳмон ўғли, Хива, 1924.

⁶ Ўзбек мақоллари. Тўпловчи ва тузувчи Шерали Рқзи, М., 1926.

⁷ Мақоллар ва ҳикматли сқзлар. Тўплаб босмага тайёрловчи Б. Каримов, Тошкент, 1939; Мақоллар ва ҳикматли сўзлар. Тузувчилар Ш. Ризо, Ў. Азимов, Ў. Холматов, Тошкент, 1941.

susayishga 30 – yillarda o‘zbek ziyolilarining ommaviy qatog‘on qilinishi asosiy sabab edi.

Xalq maqollarini, hozir biz tematik tasnif deb yuritayotgan, anglatgan ma’nolariga qarab tartib berishni atoqli olim H.T. Zarifov boshlab berdi⁸.

Maqollarni mavzu jihatdan tasnif qilish folklor asarlari nashri amaliyotida ularni hech qanday ko‘rsatkichsiz alfavit tartibida berishga nisbatan olg‘a tashlangan qadam edi. Shuning uchun ham bu yo‘l keyingi yillarda ham izchil davom ettirildiki, xalq maqollarini to‘plash, sistemalashtirish, ulardagi umuminsoniy g‘oyalarni targ‘ib qilishda bunday to‘plamlarning ahamiyati g‘oyatda katta bo‘ldi⁹.

Bu to‘plamlardagi faktik materiallar asosan bir-birini takrorlaydi. Biroq, ular materialning hajmi, tanlanish xarakteri, tematik guruhlariga ajralish jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Masalan, M. Afzalov boshchiligida tayyorlangan to‘planning keyingi nashriga 2500 dan ortiqroq maqol kiritilib, 34 tematik guruhga bo‘lingan bo‘lsa, R. Jumaniyozov to‘plamining so‘nggi nashrida 1047 maqol 22 tematik guruh ostida berilgan Yoki B. Sarimsoqov boshchiligida tuzilgan to‘plamdagi (1984) 4500 ga yaqin maqol 40 mavzu ostida jamlangan. Keyingi to‘plam folkloristik saviyasi, maqollarni sistemalashtirishda nisbatan izchillikka intilish jihatidan alohida ajralib turadi. Ammo bu yo‘l hamma to‘plamlar uchun xarakterli emas. Ularning ayrimlarida folklorshunoslik erishgan yutuqlardan foydalana olmaslik hollari ko‘zga tashlanadi. Shundaylardan biri «Dengizdan qatralar» to‘plamidir¹⁰.

To‘plamga ikki mingdan ortiq maqol, matal, yumuq iboralar kiritilgan, ular alfavit tartibida joylashtirilgan, izoh va ko‘rsatkichlar bilan ta‘minlanmagan. Ommaviy kitobxonga mo‘ljallangan alfavit tartibidagi ko‘rsatkichsiz nashr, agar ta‘bir joiz bo‘lsa, «o‘lik», «harakatsiz» to‘plamdir. Bunday to‘plamlarda maqsad aniq bo‘lmaydi, ulardan foydalanish qiyin. Ikkinchidan, to‘plamga kiritilgan materiallar tanlanmagan, to‘povchining qo‘liga nimaiki tushgan bo‘lsa, maqol va matal tamg‘asi bilan nashr etib yubora berilgan. Bo‘lmasa, «Chena, ketingga qarab ena» tipidagi namunalar undan joy olmagan bo‘lar edi.

⁸ Ўзбек фольклори, тузувчи Ҳоди Зариф, Тошкент, 1939. – Б. 268-279; Оталар сқзи – ақлинг кқзи.

Тқплаб, сқз боши билан нашрга тайёрловчи қоди Зариф, Тошкент, 1947.

⁹ Ўзбек халқ мақоллари. Нашрга тайёрловчилар М. Афзалов, С. Худойерганов, С. Иброҳимов, сқз боши муаллифи. М. Афзалов, Тошкент, 1958, тқртинчи наشري: 1978; Мақоллар. Тузувчи М. Аҳмадбоева, Тошкент, 1960; Сқз кқрки – мақол. Тузувчи ва сқз боши муаллифи Р. Жуманиёзов, Тошкент, 1962, учинчи наشري : 1970; Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар : Б. Саримсоқов, И. қақзқлов, А. Мусақулов, Р. Зарифов, сқз боши муаллифи Ш. Шоабдурахмонов, сқнг сқз муаллифи Б. Саримсоқов, Тошкент, 1978 (уч мингдан ортик мақол киритилган); Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Б. Саримсоқов, А. Мусақулов, М. Мадрахимова, қз боши муаллифи Ш. Шоабдурахмонов, сқнг сқз муаллифи Б. Саримсоқов, Тошкент, 1981, иккинчи наشري : 1984; Узбекские пословицы и поговорки. Перевод Е. Чернявского и В. Рузиматова, Ташкент, 1959 (мингга яқин мақол киритилган); Узбекские народные пословицы. Составители: Б.И. Саримсаков, А.К. Мусақулов, перевод Н.К. Гацунаева, предисловие Б. И. Саримсакова, Ташкент, 1983 (уч мингдан ортикқоқ мақол киритилган).

¹⁰ Денгиздан қатралар. Тқплаб нашрга тайёрловчи Э. Сиддиков, сқз боши муаллифи О. Собиров, Тошкент, 1976.

O'zbek maqollarining hozirgacha eng so'ngi yirik nashri 2003 yildagi to'plamdir¹¹. Unda 9 mingga yaqin maqollar 70 ta mavzuda berilgan. Bu to'plamning avvalgi nashrlardan farqi shundaki, unda mustaqilligimizning qisqa davridagi ulkan o'zgarishlar hisobga olingan. Jumladan, unga avvalgi nashrlarda uchraydigan «Bog'li kolxoz, yog'li kolxoz», «Kolxoz – baraka daryosi», «Rus tili – do's tili» kabi sun'iy maqollar kiritilmagan. Bu maqollarning sun'iyliigi shundaki, birinchidan, o'tgan asrning 30- yillaridan 90 – yillarigacha mavjud bo'lgan kolxozlar sobiq tuzum siyosati tufayli tashkil topgan, ammo asriy milliy an'analarimizga zid hodisa bo'lsa, ikkinchidan, dunyoda faqat rus tili emas, barcha tillar xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirishga, madaniyatlarini yuksaltirishga xizmat qiladi. To'plam T. Mirzaevning «So'zdan so'zning farqi bor» nomli kirish maqolasi bilan boshlanadi. Unda maqollarga ixcham ta'rif berilib, ularning o'rganilish tarixi, nashri, qo'llanilishidagi o'ziga xosliklar muxtasar bayon qilingan.

Demak, maqol to'plamlarini tuzishda konkret maqsad asosida ish ko'rish, ularning kimga va nima uchun mo'ljallanganini aniq belgilash, qat'iy tanlash prinsiplari asosida ish qurish folklorshunoslikning zaruriy talablaridan biri edi va shunday bo'lib qoladi.

Xalq maqollari, matallari va aforizmlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish va ularning lug'atlarini tuzish bo'yicha ham muayyan bir ishlar amalga oshirilgan¹².

Ammo bu sohadagi ishlar hozircha epizodik xarakterda. Xalq maqollarining kontekstual va situativ stilistik xususiyatlarini, strukturasi va semantikasini har tomonlama tahlil etuvchi mukammal izohli to'plamlar tuzish vaqti allaqachon etgan.

Xalq maqollarini ilmiy o'rganish ularni nashr etish bilan birga boshlandi. Bu jihatdan turli vaqtlarda maqol to'plamlariga yozilgan so'z boshilari, xususan, H. Zarifov, M. Afzalov, R. Jumaniyozovlar ishlarini alohida ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi. Bu ishlarda xalq maqollariga umumiy xarakteristika berildi, ularning tematik doirasi belgilandi. Keyinroq esa, SH. Shorahmedov, X. Sharafiddinovlarning maqolalari, X. Abdurahmonov maqollarning til xususiyatlarini yorituvchi tadqiqoti yuzaga keldi¹³.

O'zbek xalq maqollari haqidagi nisbatan yangi ishlar qatorida K. Imomov, B. Sarimsoqov maqolalarini va X. Sharafiddinovning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish zarur¹⁴.

¹¹ Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: Т.Мирзаев, А. Мусақулов, Б. Саримсақов; маъсул муҳаррир: Ш. Турдимов. – Т.: «Шарк», 2003.

¹² Абдурахимов М. Ўзбекча-русча афоризмлар луқати, Тошкент, 1976; Бердиёров қ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луқати, Тошкент, 1984.

¹³ Паремиология Ўзбекистана, выпуск I, Самарканд, 1978; выпуск II, Самарканд, 1980; выпуск III, Самарканд, 1981.

¹⁴ Имомов К. Мақоллар. – Китобда : «Ўзбек халқ оқзаки поэтик ижоди», Тошкент, 1980, -Б. 108-115; Саримсоқов Б. Халқ тафаккурининг олмос Катралари. – Китобда: «Ўзбек халқ мақоллари», иккинчи нашр, Тошкент, 1984. -Б. 336-350; Саримсақов Б.И. Предисловие. – В кн.: «Ўзбекские народные пословицы», Ташкент, 1983. – С. 5-15; Шарафиддинов Х. Рифма и её функционально-стилистические особенности в структуре узбекских народных пословиц. АКД, Ташкент, 1986.

Bu ishlarda maqollar folklor janri sifatida har tomonlama asoslandi, uning g'oyaviy- tematik xususiyatlari bayon etildi, poetikasining ayrim tomonlari yoritildi, aforistik janrlarning chegarasini belgilashga harakat qilindi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek xalq maqollarini chinakamiga o'rganish endi boshlanayotir. Qilingan ishlar, to'plangan materiallar voqelik faktlarini obrazli formalarda umumlashtira olgan bu folklor janrini, tilimizning beqiyos qudratini to'la namoyish qila olgan xalqimiz tafakkurining bunday durdonalarini butun-bo'yi-basti bilan har tomonlama o'rganishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Nazorat savollari

1. Maqol og'zaki janrning eng faol turi degan fikrga qo'shilasizmi? Agar shunday bo'lsa nega? Fikringizni asoslab bering.
2. Maqollarda o'z va ko'chma ma'nolar qay tarzda namoyon bo'ladi?

5-AMALIY MASHG'ULOT. XALQ QO'SHIQLARINI YOZIB OLISH, NASHRGA TAYYORLASH VA ILMIY O'RGANISH

Ishdan maqsad – O'zbek xalq qo'shiqlari va ularning o'rganilishi, O'zbek xalq qo'shiqlarining yozib olinishi, O'zbek xalq qo'shiqlarini nashrga tayyorlash prinsiplari yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo‘lgan holda yordam so‘rashi lozim.
 Har kim undan yordam so‘ralganda albatta yordam berishi kerak.
 Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.
 Har kim aniq tushunishi kerakki:
 - boshqalarga o‘rgatib o‘zimiz o‘rganamiz.
 - kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho‘kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

25. Individual o‘qish-2 minut.
26. Muhokama qilish –3 minut.
27. Prezentatsiya (takdimot) varag‘ini tayyorlash- 5 minut.
28. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.
29. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.
30. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Xalq lirikasi genezisi va tadrijiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?		
2. Lirik qo‘shiqlarni tadqiq etilishi va chop qilish tajribalari haqida gapiring?		
3. Qaysi bir yo‘sinda bo‘lmasin, biror xalq va millatni yoki o‘sha millat vakilini kamsitish, qoralash, milliy va diniy adovat tuyg‘ularini nfodalagan so‘zlar, iboralar, tasvirlar. Biror xalq yoki mamlakat nomi bilan ataluvchi epik nomlar, to‘g‘rirog‘i, epik dushman nomlari va bularga nisbatan xalq g‘azab va nafratini bayon etgan so‘zlar, iboralar va ta’rif-tasvirlarga milliy va diniy adovat nuqtai nazaridan qarash to‘g‘ri emasnima?		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Fol’klor asarlari uchun xarakterli bo‘lmagan, asarning badiiyligiga xalal etkazib turgan ortiqcha jumla va qaytariqlarni		

tushuntirib bering.		
Asarning umumiy g‘oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog‘lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so‘zlab bering.		
Asarga aloqasi bo‘lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o‘tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtida aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimiznn olib, so‘ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba‘daz kalom» yoki «Po‘lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to‘yda o‘lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo‘lmaydi qanday farqlanishi mumkin?		

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a‘zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Ibtidoiy dinlar, qadimgi tushuncha va e‘tiqodlar nafaqat xalq lirikasi, balki umumjahon folklorining ham tarixiy asoslari bo‘lgan, degan xulosaga keldik. Agar mif, ibtidoiy –arxaik dinlar bilan bog‘liq tushuncha va tasavvurlarni, jumladan, xalq lirikasining tarixiy asoslarini sodda holda, gullar, daraxtlarning ildizlariga o‘xshatsak, ularni ifodalagan marosimlarni novdalar, barglarga, g‘unchalarga qiyoslashimiz mumkin.

A.N. Veselovskiy xalq lirikasining poetik qurili-shini «uslubiy Domostroy» deb izohlagan edi. Bu atama hozirgi rus tili uchun ham ancha begonalashgan bo‘lib,

qadimgi rus yozma yodgorliklari, tirikchilik qoidalari, xulq-atvor to‘g‘risida bitilgan nasihat to‘plamlarini anglatadi. Ibtidoiy dinlar shakllanib, xalq og‘zaki ijodi uchun ham, «Domostroy», poydevor, dastlabki tarixiy asos, sodda qilib aytganda, xomashyo vazifasini o‘tagan.

Biz umumfolklor deganda, xalq og‘zaki so‘z sa‘nati-nigina tushunmaymiz, balki musiqa folklori, raqs folk-lori, xalq dramasi, xalq amaliy sa‘nati sohalari ham shu tushuncha doirasiga kiradi. Qadimda bu sohalarning barchasi marosimlarning harakat, buyumlar va so‘z tarkiblari birli-gida mujassam bo‘lgan. Shu bois hozirda folklori maishiy yo‘nalishiga ko‘ra, marosim va nomarosim turlariga tasnif qilamiz. Marosim folklorining nomarosim folkloridan farqi shundaki, marosim folklorida amaliy maqsad, nomarosim folklorida estetik maqsad ustivordir. Boshqacha qilib aytganda, tarixan nomarosim folklori marosim folkloridan o‘rib chiqqan.

O‘zbek folklorshunosligida nomarosim folklori o‘tgan asrning 90 – yillarigacha maxsus tadqiq etilmadi. Shundan so‘ng va hozirgacha marosim folklori tadqiqi shu darajada tez rivojlandiki, natijada etnofolkloristik yo‘nalish tadqiqotlarning muhim metodlaridan biri bo‘lib qoldi. Marosim va mif haqida fanda, asosan, ikki xil qarash mavjud. Ayrim olimlar avval mif, boshqa bir guruh vakillari esa, dastlab marosimlar paydo bo‘lgan deydi-lar(212.- S. 507 -588). S.A. Tokarev avval marosimlar paydo bo‘lgan, degan qarashlarni yoqlab, e‘tiqod tushunchadan kelib chiqadi, marosim shu e‘tiqodni amalda ifodalaydi, mif esa izohlaydi, deydi(212. – S.531).

Hozir fandagi behisob tortishuvlarga qarab, marosim avval paydo bo‘lganmi yoki mifmi, bu haqda bir nima deyish qiyin. Ammo marosim va miflar og‘zaki so‘z san‘anti rivoji-da tarixiy asos vazifasini o‘tagani haqiqatdir. Negaki, ibtidoiy dinlar haqidagi tushuncha va tasavvurlar ilk bor miflar va marosimlarda o‘z ifodasini topgan, ya‘ni o‘ziga xos «moddiylashgan». Bizningcha, tezis sifatida barcha sa‘natlar, jumladan, so‘z sa‘natining paydo bo‘lishi bosqichlarini shunday ifodalash mumkin: **tushuncha►tasavvur► marosim► mif►din (animizm, totemizm, shamanizm, kultlar, patronimiya, dunyoviy dinlar)► sa‘nat(jumladan, folklor sa‘nati)**. Albatta, bu tezisimiz so‘z sa‘natining paydo bo‘lishida ibtidoiy madaniyat davridan boshlab, hozirgacha real hayot tajriba-larining ta‘sirini zarracha inkor etmaydi.

Marosim va lirika munosabatlari juda keng va murakkab muammo. Aytish mumkinki, xalq lirikasi so‘z sa‘nati sifatida shakllanib bo‘lgandan keyin ham, marosim tarkibidagi lirik qo‘shiqlarning marosimdan tashqarida ham kuylanishi yoki aksincha, lirik qo‘shiqlarning marosimlar tarkibiga so‘z qismi sifatida kiritilishi jaryoni juda rivojlangan. Bugunga kelib esa, ko‘pgina marosimlar unutilgan bo‘lsa-da, ular tarkibidagi lirik qo‘shiqlar u yoki, bu shaklda mustaqil yashamoqda.

Ma‘lumki, marosim, avvalo, amaliy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham marosimlar tarkibidagi faqat amaliy maqsadlarga qaratilgan aytimlar, qo‘shiqlar marosimlar yo‘qolishi bilan tabiiy ravishda unutiladi. Kinna, badik, sust xotin kabi marosimlar va ularning verbal – so‘z komponentlari buning yorqin misolidir. Biroq marosim tarkibidagi aytimlar, qo‘shiqlardayoq xalq lirikasining ilk shakliy va

mazmuniy asoslari – ritm, musiqa, vazn, poetik takrorlar, jonlantirish, sifatlash, sinekdoha, ritmik –sintaktik parallelizmlar va boshqalar mavjud bo‘ladi. Biz ushbu o‘rinda xalq lirikasining tarixiy asoslariga ko‘ra, marosimlar, urf-odatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatish uchun ayrim misollar bilan cheklanamiz:

Folklorshunos Y.I.Yudin rus xalq lirik qo‘shiq-laridagi ota-ona uyini sog‘ingan yosh juvon obrazining tarixiy asoslarni o‘rganib, unda juda qadimiy bir odat o‘z badiiy ifodasini topganligini ko‘rsatib bergan. Bu qadimiy odatga ko‘ra, yosh juvon bir yoki ikki yil turmush qurgach, uzoq muddatga ota-ona uiga qaytgan. Bu muddatda u eri bilan deyarli ko‘rishmagan. M.O. Kosven ushbu odatning qadimda Kavkaz, turkman, udmurt, boshqird, buryat va boshqa xalqlarda ham keng tarqalganligini aniqlab, juvonning ancha muddatga ota-ona uyiga qaytishini matriarxatdan patriarxatga, juft nikohdan monogam nikohga o‘tish, matriolkal joylashuvdan, patriolkal joylashuvga o‘tish davri bilan bog‘liq, degan xulosaga kelgan(120. - S.26-27). Izoh berib o‘tish kerakki, matrilokal joylashuv nikohda kuyoning qiz uyiga, patrilokal joylashuv qizning yigit uyiga borishi demakdir. Yana bir muhim fakt: T.V.Zueva ma‘lumotlariga qaraganda, feodal jamiyatgacha bo‘lgan davrlarda nikoh odatlarida ayollar tashabbuskor bo‘lgan. Qizlarning o‘zlariga qayliq tanlashlari, sovchilik qilishlari, hatto kuyovlarni qalin kabi shartlarni to‘lab, sotib olishlari ham normal holat hisoblangan(165. -S.52). Mazkur odatning o‘zbek xalqi tarixida ham bo‘lganligini xalq ertaklari, lostonlari juda yaxshi ko‘rsatib bergan. Masalan, ko‘pgina doston, ertaklarimizda maliklar o‘zlari shart qo‘yib, o‘zlari er tanlaydilar.

O‘zbek xalq lirikasida ham ayollarning ota-ona uyini sog‘inish motivi juda rivojlangan. Bizningcha, bunga yuqorida M.O. Kosven aytgan mulohazalar tarixiy sabab bo‘lgan. Negaki, o‘zbeklarda tarixan urug‘ doirasidagi nikoh-lar etakchilik qilgan.Urug‘ doirasidagi nikohlarda qiz bola uzatiilganda ham o‘z ota-onasidan uncha yiroqqa tushmagan, aksincha yaqin qarindoshlariga kelin bo‘lgan. Qo‘shiqlarda esa buning aksini ko‘ramiz:

Daryoga tosh otmanglar,

Botar-ketar, yor-yor.

Uzoqqa qiz bermanglar,

Olar- ketar, yor-yor.

Uzoqqa bergan qizning

Rangi sariq, yor-yor.

Ko‘zidan oqqan yoshi

Misli ariq, yor-yor.

Misli ariq mis bo‘lsin,

Somon bo‘lsin, yor-yor.

Uzoqqa tushgan singlim

Omon bo‘lsin, yor-yor.

Qizig‘i shundaki, biz kelin bo‘lmish nafaqat qo‘shni qishloqqa, balki o‘z qishlog‘ida boshqa bir xonadonga tushganida ham ushbu yor-yor kuylanganligining guvohi bo‘lgan-miz. Demak, qo‘shiqdagi uzoq so‘zining poetik ma‘nosi lug‘aviy ma‘nosidan farq qilib, bu qadimiy odat bilan bog‘liq.

Avvalo shuni aytish kerakki, misolimizdagi daryo va ariq hosildorlik kulti ta'siriga ko'ra, oila, farzand tushunchalari bilan uyg'unlashadi. Keksa momolarimizning aytishlaricha, ilgari qizlar suvga tosh tashlab, uning cho'kish tezligi, tosh cho'kkan joydagi doira to'ldinchalar miqdori, tarqalish kengligiga qarab ham fol ochishar ekan. Agar suvga tosh tez cho'ksa, qiz kelin bo'lgan joyida tez singishib ketadi, nechta to'ldin xalqacha paydo bo'lsa, shuncha farzand ko'radi, qancha keng tarqalsa, shuncha ko'p yashaydi deb talqin qilishar ekan Bundan tashqari xalqimizda uzatilayotgan qiz izidan borgan joyida toshday o'rmashib, o'z-o'zidan serfarzand bo'lib, tinchib ketsin degan maqsadda tosh otib qolish odati ham bo'lgan. Shuning uchun «olma deb otgan otam» deb boshlanadigan qo'shiqda ham otaning zolimligi emas, balki qiz tushgan joyda olmaday mevali, ya'ni serfarzand bo'lsin degan maqsad ifodasi bor. Ana shu sababalarga ko'ra, yuqoridagi qo'shiqda **uzoqqa** so'zi ham tarixan matrilokal joylashishdan patrilokal joylashuvga o'tish davrining izi deya olamiz. Qiz uyiga kuyov kelgandan ko'ra, qizning kuyov uyiga doimiy yashash uchun borganida uzoqlik nafaqat masofani, balki ijtimoiy ma'noni ham anglatishi tabiiy.

1. Xalq lirikasi genezisi va tadrijiy bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Lirik qo'shiqlarning tadqiq etilishi va chop qilish tajribalari haqida gapiring.

6-AMALIY MASHG'ULOT: XALQ LATIFALARINI YOZIB OLIISH VA ILMIY O'RGANISHI

Ishdan maqsad – Latifa – nozik fikrlash san'ati, Loflarning janr xususiyati olish masalasi, yuzasidan tinglab tomosha qilingan video lavha yuzasidan asosli fikr-mulohaza yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish.

Masalaning qo'yilishi: Tinglovchilar kichik guruhlariga bo'lingan holda ularga har bir vazifa bo'yicha berilgan savollarga javob tayyorlab, asosli sharhlab berishlari talab etiladi.

Ishni bajarish uchun namuna

O'qituvchi tinglovchilarni 2- (3 yoki 4) guruhga bo'ladi. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi. O'quv natijalari nima berishini aniklashtiradi, erishiladigan natijaning yutuq va kamchiliklarining mohiyatini aytadi. Qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligi haqida ma'lumot beradi. (darslik, ma'ruza matni, internet materallari). Guruhlarda ish boshlash vaqtini e'lon qiladi.

Guruhlardagi hamkorlik ishlarining takdimotini tashkillashtiradi va boshqaradi. Takdimot muddati 20 minutdan oshmasligini e'lon qiladi.

O'qituvchi har bir savolga yakun yasaydi.

Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, topshiriqlarni asoslab berish, shuningdek tinglovchilar bilim saviyasini shakllantirishga, tushunchalaridan to'g'ri xulosalar chiqarishiga e'tibor qaratadi.

Mavzu bo'yicha yakunlovchi xulosalar qiladi. Mavzu maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va baholaydi.

Guruhda ishlash qoidalari

Har kim o'z o'rtoqlarini tinglashi, hurmat bildirishi kerak.

Har kim aktiv, birgalikda, berilgan topshiriqqa mas'uliyat bilan qaragan holda ishlashi kerak.

Har kim zarur bo'lgan holda yordam so'rashi lozim.

Har kim undan yordam so'ralganda albatta yordam berishi kerak.

Har kim guruh ishi natijasini baholashda ishtirok etishi shart.

Har kim aniq tushunishi kerakki:

- boshqalarga o'rgatib o'zimiz o'rganamiz.

- kemaga tushganning joni bir: yo birga qutilamiz yoki birga cho'kamiz.

Topshiriqni bajarish ketma-ketligi va reglamenti.

31. Individual o'qish-2 minut.

32. Muhokama qilish –3 minut.

33. Prezentatsiya (takdimot) varag'ini tayyorlash- 5 minut.

34. Prezentatsiya (takdimot) qilish –5 minut.

35. Guruhlar boshqa guruhlarini prezentatsiya (taqdimot)lari vaqtida ularni baholash.

36. Baholash natijalarini rahbarga aytish.

1-ilova

Birinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
1. Latifa va loflarning farqli jihatlarini sanab bering?		
2. Loflarning janr xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?		
3. Latifa va loflarning yozib olinishiga misollar keltiring.		

Ikkinchi guruh uchun vazifa.

Savollar	Tushuncha va sharh	Izoh
Latifa va loflarning nashri haqida so'zlab bering.		
Asarning umumiy g'oyasi, ruhi, kompozitsiyasi bilan organik bog'lanmagan, unga tasodifan kirib qolgan, shu asarga nisbatan yotligi aniq bilinib turgan ayrim motiv yoki bandlari haqida so'zlab bering.		

<p>Asarga aloqasi bo‘lmagan, faqat uni yozib olish paytida qistirib o‘tilgan jumlar. Masalan, doston va ertaklarni yozib olinayotgan vaqtda aytuvchi tomonidan qistirilgan: «Endi charchadik, bir-akki soat damimizni olib, so‘ng yozamiz, «Ovqat kelib koldi, avval taom, ba‘daz kalom» yoki «Po‘lkan shoir aytayotir, Mulla Isa bitayotir» kabilar asosiy tekstga kirmasligi kerak. Aytuvchining ijodiy chekinishlari, albatta, bundan mustasanodir. Masalan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li «Qunduz bilan Yulduz» dostonida to‘yda o‘lan aytilayotganligini tasvirlar ekan: «U barobar kelarmikin aytishganda bizlar bilan» degan lirik chekinish qiladiki, buni qisqartirib bo‘lmaydi qanday farqlanishi mumkin?</p>		
---	--	--

2-ilova

Guruhni baholash jadvali.

Guruhlar	Javoblarning aniq, ravshanligi	Axborotning ishonchliligi	Guruh a‘zosining faolligi	Umumiy ballar	Baho
1-guruh					
2-guruh					

Latifa – nozik fikrlash san’ati. O‘zbeklar dunyodagi boshqa xalqlar kabi hazilni, taqlidni, kulgini yaxshi ko‘radilar. Kulgi insonga sog‘lik, yaxshi kayfiyat, o‘z-o‘zidan qoniqish tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Xalqimizning dono farzandlari Yusufjon qiziq, Aka buxor, G‘anijon Toshmatov kabilar mashaqqatli kechgan paytlarda ham yurtimiz ahliga tetiklik, umid, ishonch ulashganlar. Bunday natijaga erishish o‘z vaqti uchun juda og‘ir kechgan. Latifalar, loflar, askiya, xalq dramasi asarlari, muqallidchilikdan unumli foydalanish zukko va iqtidorli insonlarni xaqiqiy ma‘noda xalq sevgisini qozonish sharafiga muyassar qildi.

Inson qalbidagi tashvishni, tanasidagi xastalik xurujini chetroqqa surishda kulgili latifalar juda samarali vosita hisoblangan. «Latifa» atamasi arabcha «lutf» (لطف) so‘zidan olingan bo‘lib, nozik fikrlash, yaxshilik qilmoq, muruvvat ko‘rsatmoq, sharaflamoq ma‘nolarini anglatadi.

Nasriddin Afandi nomi bilan latifalar mazmunining bog‘lanib, uyg‘unlashuvi XIX asr oxiri XX asr boshlari bilan belgilanadi. O‘zbek folklorshunosligi fani asoschisi, professor Hodi Zarifov qayd qilishiga binoan, Nasriddin Afandi nomining o‘zbek latifalarida shuhrat topishi yurtimizda matbaaning paydo bo‘lishi, Nasriddin Afandi latifalarining kitob tarzda nashr ettirilishidan boshlangan.

O‘zbek Nasriddin afandi latifalarida bosh qahramon o‘ta hozirjavob, o‘ta

zukko, dono va tadbirkor inson sifatida gavdalanadi. Hayotda uni so‘z bilan, xatti-harakat bilan yechimi yo‘q vaziyatga tushirish mumkin emas. Chunki aqlli, mutafakkir Nasriddin afandi qiyofasida butun xalqning, millatning so‘zga chechanligi, zakiy, ya’ni nozik fikr yuritish fazilati o‘z ifodasini topgan. Har bir latifa matnida uni o‘ylab topgan shaxs aqli, vaziyatni aniqlash kayfiyati va zakovati namoyon bo‘ladi. Latifalarning e’tiborli, tinglovchini o‘ziga jalb qiladigan jihati shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini mutlaqo yechimi topilmas vaziyatga tushirishga urinadilar. Ayniqsa, Nasriddin afandi qismati latifaning yakuniy qismiga yetgunga qadar juda og‘ir va chorasiz taqdir sharoitida tasvirlanadi. Ammo xalq Nasriddin afandi tarafida bo‘lgani uchun ana shunday mushkul vaziyatdan ham o‘z topqirligi, so‘zga ustaligi bilan qahramonimiz yechim topib keta oladi.

Afandi latifalarida afandidagi ikkinchi xislat – uning nihoyatda soddaligi, aniqroq aytsak, no‘noqligini namoyish qilish bilan izohlangan. Bunday namunalarda biz afandining soddaligidan, hayotdagi ko‘ngilsiz voqealarni o‘ziga olmasligidan zavqlanamiz. Afandining afandiligi uning afandiligi bilan sharhlanadi. YA’ni bironta es-hushi joyida odam qilishi mumkin bo‘lmagan qarorni aynan afandi qabul qiladi.

Nasriddin afandi ko‘chada ketayotib, kichkina bir ko‘zgu – oyna topib olibdi. Uni qo‘liga olar ekan, o‘z aksini ko‘rgani zahoti: «E, kechirasiz, oyna siznikimidi?» - deb tashlab yuboribdi. Oyna sinibdi. Shunda afandi: «Kerak bo‘lmasa, ayta qolmaysizmi? O‘zim olar edim-ku», - degan ekan.

Bunday latifalar bilan tanishish, ayniqsa, hikoya qilish mahoratiga ega inson ijrosida tinglash odamga huzur bag‘ishlaydi. Bu turdagi latifalarda tinglovchi sodda afandi qarorlaridan kuladi. Lekin shuni ham qayd qilish lozimki, xalq bu bilan nima demoqchi ekanini tushunib yetishga ham harakat qilish zarar keltirmaydi. Ehtimol, dono xalq shu kabi latifalar vositasida «Sen bunchalik sodda bo‘lma!» demoqchimi? Xulosa chiqarish har kimning o‘ziga havola.

Loflarning janr xususiyati. Xalq og‘zaki ijodidagi loflar mubolag‘a san’atiga asoslanadi. Lug‘atda «lof» - fors tilidan olingan so‘z bo‘lib, quruq (puch) gap, safsata, maqtanchoqlik. 1.Folklordagi hajviy-yumoristik janrlardan biri: haddan tashqari bo‘rttirilgan, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yolg‘on gap»¹⁵ deb izohlangan.

Loflar xalq og‘zaki ijodining latifalar va askiya kabi kulgi uyg‘otuvchi ommaviy janri hisoblanadi. Asosan, janrda qo‘llanadigan san’at mubolag‘aning ig‘roq va g‘uluvv turi hisoblanadi.

Loflar badiiy adabiyotning epik turi (jinsi)ga mansub janr. Uning hajmi cheklangan: ikki-uch, uch-to‘rt jumladan iborat. Asosan, dialogda qatnashgan ikki lofchi suhbatidan bir lavha tarzida bo‘ladi. Ularda bo‘rttirilgan yolg‘on voqea to‘qishda mohir, tajriba to‘plagan lofchi deb hisoblangan shaxslar musobaqalashadi. Har ikki taraf aytayotgan voqeasining yolg‘on va to‘qima ekanini juda yaxshi biladi, lekin mutlaqo bu fikrini ochiq aytmaydi. Bu shart buzilsa, lof butun mohiyatini, jozibasini yo‘qotadi. Aksincha, bir lofchi suhbatdoshining bo‘rttirilgan yolg‘on

¹⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Иккинчи жилд. - Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 509.

gapini aksariyat hollarda tasdiqlaydi, e'tiroz bildirmaydi. Faqat lofning mazmunidan xabar topganidan so'ng unikidan o'tkirroq, yana ham mubolag'ali, yolg'onroq javob topishi lozim. Muhimi, ikkinchi lofchi keyin javob bergani uchun lof shu o'rinda tugaydi. Ba'zan dialoglar bir oz davom etishi mumkin, lekin bari bir so'nggi fikr bildirgan lofchi g'olib chiqaveradi.

Latifalarda, lofda, askiyada kulgiga sabab bo'lgan jumlaning kashfiyot darajasida baholash mumkin. Ularni o'ylab topgan shaxs katta hayot tajribasiga ega bo'ladi, ayniqsa, vaziyatni to'g'ri baholab kulgi hosil qilish mahoratini namoyish etadi. Buning uchun u til boyligidan ham yaxshi foydalana olish fazilatiga ega bo'lishi zarur.

Nazorat savollari

1. Latifa va loflarning farqli jihatlarini sanab bering.
2. Loflarning janr xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Latifa va loflarning yozib olinishiga misollar keltiring.
4. Latifa va loflarning nashri xaqida so'zlab bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar:

1. Muhammadyev R. AskiY. – T., 1962.
2. Askiyada ijrochilik mahoratini oshirish yo'llari (metodik tavsiyanoma).
Tuzuvchilar: Jo'rayev M, Sobitova T. - T, 1985.
3. Said Anvar. Muhiddin Darvesh. - T.: Sharq NMAK, 2006.
4. Razzoqov H. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. - T.: Fan, 1965.
5. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T., "Musiqqa", 2010
6. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T.: "Mumtoz so'z", 2010
7. Yo'ldosheva F. O'zbek latifalarida Nasriddin afandi obrazi. - T.: Fan, 1979.
8. Shoh Akbar va dono Birbol. - T., 1994.
9. Afandi latifalari. - T., 1989.
10. Sarimsoqov B. Lof / O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. - T.: Fan, 1989.

V. KEYSLAR BANKI

V. KEYSLAR BANKI

1-keys. Pedagogika bo'yicha yaratilgan adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularda —Ta'lim jarayoni tushunchasining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta'lim jarayoni – bu:

1. O'quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko'nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o'zlashtirilishini ta'minlash (o'qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O'quvchilar tomonidan BKMning o'zlashtirilishi (o'qishi)ni ta'minlovchi jarayonini boshqarishga yo'naltirilgan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o'qitish va o'qitish – ta'limning o'zaro aloqador va o'zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O'qituvchining o'quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o'zlashtirilishiga yo'naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o'zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o'quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta'minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida BKMni o'zlashtirish, qobiliyatlarini rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta'lim jarayonining mohiyatini to'la yoritadi?
2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

—Pedagogikal faniga oid bir necha manbalar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhkama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhkama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1. Mazmuniga ko'ra barcha ta'riflar ham ta'lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, muayyan fan har bir kategoriya bo'yicha o'zining aniq terminologiyasiga ega bo'lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta'riflar asosida tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo'llash ko'nikma, malakalarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

2-keys.

Birinchi sinfda o'qiyotgan Dilshod she'rni ifodali o'qib bergani uchun —besh baho oldi. O'qituvchi uni buning uchun maqtadi. Dilshod uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U, hatto, o'zi yod olgan she'rni oyisiga ham o'qib bermoqchi bo'ldi. Ammo, oyisi Dilshodning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va o'g'liga qayrilab ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, - endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o'ynab kel!

Dilshod tushlik ham qilmay ko'chaga chiqib ketdi.

Savollar:

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?
2. Dilshodning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga qanday ta'sir o'tkazadi.

Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

- Pedagogika va
- Psixologiyaga oid adabiyotlar.

Tinglovchilar uchun ko'rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoadada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajratib oladi.
4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan tarbiya tamoyili (ikkita tamoyil) asosida bayon etadi.
5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1. Nihoyatda yoqimsiz vaziyat. Onasi Dilshodning maktabga qanday borib kelganligi bilan ham qiziqmadi.
2. Dilshodning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag'batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.
3. Shu kabi vaziyatlar Dilshodning tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazadi, asta-sekin unda qo'rslik, befarqlik, o'z-o'zini past baholash, o'ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

3-keys.

1. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakllarni aniqlash.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali metodlarni tanlash.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiya vositalari belgilash.

Tinglovchilar uchun metodik ko'rsatmalar

1. Tegishli adabiyotlardan shakl, metod va vosita tushunchalari qanday ma'no anglatishini yodga oling.

2. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari va shaxs ma'naviyatini shakllantirish jarayonlarining mohiyatini chuqur o'rganing.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalar aniqlang.

4. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari asosida talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda samarali bo'lgan shakl, metod va vositalarini tizimlashtiring.

5. —Ko'zgaizmal metodi yordamida oila tarbiyasining talabalar ma'naviyatini yuksaltirishdagi samarali shakl, metod va vositalari asosida plakat ishlang.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.


4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O'qituvchining yechimi

1-topshiriq bo'yicha

Shakllar



VI. GLOSSARIY

VI. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingiliz tilidagi sharhi
FOLKLOR ASARLARI	Xalq ijodiyoti, xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (yertak, doston, qo‘shiq, lapar, metal. Topishmoq va b.)	Folk art, works created by the people and popular among the people (fairy tales, epics, songs, lapar, metal. Riddles, etc.)
YOR-YOR	Nikoh to‘yi marasimi jarayonida aytiladigan xalq qo‘shig‘i.	A folk song sung during a wedding ceremony.
ALLA	Bolani uxlatish jarayonida yakkaxonlik uslubida aytiladigan qo‘shiq. Onaning bolaga bo‘lgan mehr-muhabbati, umid va orzulari, yaxshi niyat va tilaklari ifodalanadi.	A song sung in solitude during the process of putting a child to sleep. The mother's love for the child, hopes and dreams, good intentions and wishes are expressed.
LAPAR	Musiqiy folklore janri, vaqebandligi va kuy tuzulishi jihatidan uncha murakkab bo‘lmagan, tor diapazonli, naqoratsiz, cholg‘u jo‘rligisiz aytiladigan qo‘shiqlarga aytiladi.	Musical folklore is a song that is not complicated in terms of genre, storytelling and melody structure, it is sung in a narrow range, without rehearsals, without instrumental accompaniment..
REPERTUAR	(frans. Repertior, lot. Repertorium – ro‘yxat, izohlash) – drama teatri, musiqali teatr, Estrada konserti yoki ayrim artist tomonidan ijro etiladigan asarlar majmui.	(French Repertior, Latin Repertorium - list, interpretation) - a drama theater, musical theater, pop concert or a set of works performed by an individual artist.
FOLKLOR-YETNOGRAFIK JAMOALARI	Havaskor ijodiy jamoa. Xalq ijodini qo‘shiq, raqs, o‘yin, og‘zaki drama kabi shakllarini mahalliy (milliy) urf-odat va marasimlarga bog‘lab sahnaviy talqinini namoyish etadi.	Amateur creative team. Demonstrates a theatrical interpretation of folk art by linking its forms such as song, dance, play, oral drama to local (national) traditions and ceremonies.

JAMOA	Kishilarning qadimiy uyushuv shakli. Qadimda urug‘, oila, xonadon, qishloq (qo‘shnichilik) jamoalari mavjud bo‘lganligi ma‘lum. San‘at sohasida vocal yoki cholg‘u musiqa asarining bir necha ijrochi tomonidan ijro etilishi tushuniladi.	An ancient form of human organization. It is known that in ancient times there were clans, families, households, rural (neighborhood) communities. In the field of art, it is understood that a piece of vocal or instrumental music is performed by several performers.
MA’NAVIYAT	(arab. “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) – kishilarning estetik, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.	(Arabic "spirituality" - a set of meanings) - a set of aesthetic, moral, religious ideas and concepts of people.
RAHBAR	Biror davlat, tashkilot, guruh, jamoa va shu kabilarga yo‘l ko‘rsatib, boshchilik qilib boruvchi, rahbarlik qiluvchi, yo‘lboshchi, rahnamo.	A state, organization, group, community, etc., leading, guiding, leading, guiding, guiding.
AMALIY TASNIF	Amaliy ish, amaliy jarayon, amaliy jihatdan turlarga bo‘lish, ajratish.	Practical work, practical process, practical division into species, separation.
FOLKLOR-YETNOGRAFIK JAMOALARI	Havaskor ijodiy jamoa. Xalq ijodini qo‘shiq, raqs, o‘yin, og‘zaki drama kabi shakllarini mahalliy (milliy) urf-odat va marasimlarga bog‘lab sahnaviy talqinini namoyish etadi.	Amateur creative team. Demonstrates a theatrical interpretation of folk art by linking its forms such as song, dance, play, oral drama to local (national) traditions and ceremonies.
FOLKLOR ASARLARI	Xalq ijodiyoti, xalq tomonidan yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan asarlar (yertak, doston, qo‘shiq, lapar, metal. Topishmoq va b.)	Folk art, works created by the people and popular among the people (fairy tales, epics, songs, lapar, metal. Riddles, etc.)
FOLKLOR SAN’ATI	Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lmish xalq san’atining ijrochilik turlari bilan (folklor,	The part of folk art that is an integral part of folk art, distinguished by the types of

	musiqa folklori, raqs) ajralib turadigan qismi.	performance (folklore, music folklore, dance)..
OMMAVIY TADBIR	Katta yig'in, keng nishonlanadigan tantanali yig'in. Ko'pchilik tarzda, ommaviy ravishda tashkil etiladigan bayram, tadbir.	A large gathering, a solemn gathering that is widely celebrated. In many ways, it is a public event.

VII. ADABIYOTLAR RUYXATI

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev SH.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli [Farmoni](#).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli [Farmoni](#).
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli [Farmoni](#).

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

16. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –T.: «Mumtoz so‘z», 2010.
17. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. –T.: “Fan”, 2009.
18. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. –Toshkent: Barkamol avlod media, 2017. – 180 b.
19. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi. Mirzayev T. va boshqalar. – T.: “Aloqachi”, 2008.
20. Razzoqov N., Mirzayev T va boshqalar., O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi, T., 1980
21. Nashrga tayyorlovchi To‘ra Mirzayev va Zubayda Xusayenova. “Go‘ro‘g‘li” (o‘zbek xalq dostonlari)
22. Jo‘rayev M., Eshonqulov J.. Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. T.: “Fan texnologiyalar” -2017. 192 b.
23. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. T.: “Mumtoz so‘z”, 2010.
24. Madayev O., Sobitova T. O‘zbek xalq oqzaki poetik ijodi. T., 2005.
25. Jo‘rayev M. Folklorshunoslik asoslari. – T., 2009 yil.
26. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 1-kitob. T., 2006.
27. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 2-kitob. T., 2010.
28. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. T., 2010.
29. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – T., “Musiqqa”, 2010. 368 b.
30. Turdimov SH. Etnos va epos. . –Toshkent: Ozbekiston, 2012. 112 b.
31. Eshonqul J. Folklor:obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. - 160 b.
32. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. 120 b.
33. Mirzayev T. Dostonlar gultoqi//Alpomish. Doston, Fozil shoir varianti. -T.: Sharq, 1998. -B. 7-12.
34. Mirzayev T. «Alpomish» dostoni uning versiya va variantlari // «Alpomish» - o‘zbek xalq qahramonlik eposi. -T.:Fan, 1999. -B. 3-21.
35. Turdimov SH. «Go‘ro‘g‘li» dostoni genezisi va tadrijiy bosqislari. – Toshkent: Fan, 2011. 220 b.

IV. Internet saytlar

36. <http://edu.uz>
37. <http://prezedent.uz>
38. <http://madaniyat.uz>
39. <http://mygov.uz>
40. <http://lex.uz>
41. <http://bimm.uz>
42. <http://ziyonet.uz>
43. <http://www.dsmi.uz>
44. <http://www.artsait.ru>
45. <http://belcanto.ru/>
46. <http://music.edu.ru/catalog>
47. <http://artyx.ru/>